

“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika
ko'p tarmoqli, ilmiy
KONFERENSIYA

#11
AUGUST
2023



TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent

Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,
TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: M.Yusupov

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558**

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI
№ 11-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
20-AVGUST 2023-YIL**

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES
11th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
AUGUST 20, 2023**



LISONIY SATHDA RAQAMLI TIL BIRLIKLARI

Xalikova Mohigul Xalimjanovna
Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada lingvistik sathda son soʻz turkumi sirasiga kiruvchi raqamlar xalqlar madaniyatida turli semalarni oʻzida jamlab, tillar kesimidagi sonli lingvistik birliklar qadimiyligi, muqaddasligi, qudratli sehrli kuchi bilan ajralib turishi ilmiy asosda ochib berilgan. Sonlarning funksional jihatlari matnlarda, xalq ogʻzaki ijod namunalarida raqamlarning polisemantik maʼnosiga bogʻlanib, konnatativ maʼno ifodalashi va bu har bir xalq grammatikasida oʻzgacha milliylikni namoyon etgan holatda voqelanashi koʻrsatilgan.

Kalit soʻzlar: numerologik tizim, raqamli til birliklari, soha terminologiyasi, raqamli frazeologik birliklar, numerologik arifmetika, numerologik matematika, numerologik falsafa, numerologik tilshunoslik.

Numerologiyada raqamlarga dunyo qiyofasini aks ettiradigan birlik sifatida qaraladi. Insoniyat tarixini, ayniqsa, zamonaviy dunyoni raqamlarsiz tasvirlab boʻlmaydi. Jamiyatning hozirgi taraqqiyot bosqichi, tarixiy evrilishlar, oʻzgarishlar, rivojlanish-u pasayishlarning barchasi raqamlar hukmiga berilgan. Oddiygina kechaning kunduzga almashishi(yigirma toʻrt soatdan oraligʻida); inson umrining oʻtib borishi(soat sayin, yillar oraligʻida); bolalik davridan oʻsmirlikka oʻtishi(13yoshdan); bobo-buva boʻlib, paygʻambar yoshini qarshi olish(63 yoshda); insoniyat tarixida oʻchmas iz qoldirgan jahon urushlari(1939-1945 yillar oraligʻida)— bu tizmani yana qator davom ettirishimiz mumkin. Borliqdagi barcha narsa-hodisalar matematika qoidalariga boʻysunadi, degan fikrning asosida ham raqamlar turadi. Jahon sivilizatsiyasini, xalqlar oʻtmishini, tarixiy hodisa-yu xalqaro ahamiyatga molik ishlarni raqamlarsiz tasavvur qilishning imkoni yoʻq. Raqamlar orqali kompyuterlar, insoniyat oʻnlab, yuzlab va minglab harakatlar, hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Matematika ilmida raqamlarga oid bir qancha nazariyalar mavjuddir.

Raqamlar haqidagi konsepsiyalar bir necha ming yillar davomida rivojlandi. Ushbu konsepsiyalarning paydo boʻlishi dastlabki amaliy sohalar: qishloq xoʻjaligi(toʻqqiz bosh qoramol, bir qadoq choy, yetti tanob yer...), qurilish(yuz minglab gʻisht) va yulduzlarning kuzatuvlari(1018 yulduz, yetti qaroqchi yulduzi) bilan bogʻliq edi. Umuman olganda, hayotning barcha jabhalarida samoviy harakatlardan tortib kundalik savdo, qishloq xoʻjaligi-yu xalqaro xizmatlarda ham hisob-kitob bilan bogʻliq raqamlar muhim boʻlgan. Hatto ibtidoiy davr odamlaridan boshlab raqamlar haqidagi tasavvurlar bir necha asrlar mobaynida takomillashib, sayqallanib borgan.

Turli madaniyatlarda, dinlarda, badiiy adabiyotlarda, hattoki tarix zarvaraqlarida raqamlar anglatgan ramziy rollarining ulkan doirasini qiyoslash oraqali numerologik bilimlarni tahlil qilish mumkin. Badiiy asarni o'qir ekanmiz, ko'pgina shoir va yozuvchilar o'z ijodlarida hayotiy kuzatuvlari orqali raqamlarning yashirin sirini yaxshi his etgan holda hodisa tafsilotida xohlagan raqamni qo'llamaganligini kuzatish mumkin, hatto asar nomlarida raqam qo'yishda ham hushyorroq turishadi(Ch.Aytmetov "Qiyomat" romanidagi "Oltovlon va yettinchi" hikoyasi va b.; "41-yil olmalari", "Uttincha o'q" filmlari...). Badiiy asar mazmun mohiyatini ochishda raqamlardan foydalanish nafaqat o'zbek badiiyati-yu folklorida, balki ingliz adabiyoti (Kristin Hanahning tarixiy mavzudagi "The Four Winds"(To'rt shamol), Leigh Bardugo qalamiga mansub fantastik roman "Six of Crows"("Olti qatg'a"), Garbiel Garkiy Markiz qalamiga mansub dunyoning 37 tiliga tarjima qilingan mashhur "One Hundred Years of Solitude"("Yolg'izlikning yuz yili"), rus xalqining badiiy durdonlarida(Aleksand Dyumaning "Три мушкетера", SSSR davlat mukofotiga sazovor bo'lgan V.Kaverin qalamiga mansub "Два капитана", diniy kitoblarning timsoli sanalgan Ilya Ilf, Yevgeniy Petrovlarning "Двенадцать стульев", Juul Vernning dunyoga mashhur sarguzasht asarlari "Пятнадцатилетний капитан", "Двадцать тысяч лье под водой", "Вокруг света в восемьдесят дней") raqamlar bilan bog'liq asarlarni uchratishimiz mumkin. Bu raqamlar oddiy raqamlar emas, balki asarda turli xalq madaniyati bilan, tarix guvohligi bilan bog'liq semalari voqelantirgan numerologik birlik sifatida reallashadi.

Sharq lirikasida esa raqamlar aksariyat holatlarda aniq bir miqdor ma'nosini emas, balki ramziy-ilohiy, falsafiy, dunyoviy mazmun kasb etgan. Mumtoz adabiyotimizdan joy olgan raqamlar tilga kirsam, o'quvchining ko'z o'ngida yangi bir ma'no, talqin, ifoda, sir-u sinoatlar ochiladi. "1" raqami musulmon olamida o'zgacha ekstralingvistik ma'no kashf etadi. Masalan, Ahmad Yassaviy hikmatlarining "Biru borum, diydoringni ko'rarmanmu? misralarida qo'llangan bir Ollohning birligiga ishoradir. Alisher Navoiy g'azaliyotida ikki raqami boqiy(abadiy) va foniy(zohiriy, o'tkinchi) semalarini tashiganligining guvohi bo'lish mumkin. Islom ta'limotiga ko'ra bir qancha farishtalar bo'lib, ularga ma'lum vazifalar yuklatilgan. Jumladan, ikki farishta Munkar va Nakirga inson foniy dunyoni rixlat qilgach, so'roq berish vazifasi yuklatilgan. Diniy-tasaffuviy adabiyot namunalarida ikki raqami bilan bog'liq misralar talaygina:

Yetishsa so'rganli ikki farishta,

Na qilg'ay bandai hasrat sarishta (So'fi Olloyor).

Bu sirani yana davom ettirish mumkin. Bugun ham odamlar telefon yoki mashinalariga raqam tanlar ekanlar, uning alohida ajralib turishini istashadi.

Buning javobi raqamlar, sonlarning inson ruhiyatiga ta'siri bilan bog'liq deb o'ylaymiz.

Hozirda ko'pchilik insonlar aynan ular yoqtiradigan yoki, aksincha, yoqtirmaydigan son-raqamlar — ularning taqdiriga allaqanday ta'sir ko'rsatishini ich-ichidan sezishadi... Biri omad, boshqasi baxtsizlik keltiradi, uchinchi ko'z tegishiga sabab bo'lishim mumkin, to'rtinchi biri yo'l ko'rsatadi, deb taxmin qilinadi.

Yuqorida keltirilgan kognitiv fikrlardan ayon bo'ldiki, numerologiya nafaqat matematika, geometriya, falsafa, astronomiya bilan uyg'unlikda borliq manzarasini tasvirlaydi, balki numerologik tadqiqotlar ijtimoiy fanlar sanalgan adabiyot, tarix, tilshunoslik, ma'naviyat kabi ilmlar bilan ham integratsiyaga kirishadi. Shunga ko'ra shartli ravishda numerologiyani quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

- Numerologik arifmetika;
- Numerologik matematika;
- Numerologik falsafa;
- Numerologik tilshunoslik...

Numerologiyada inson nutqidagi harflar va tovushlar raqamlar bilan nisbatiga ko'ra, turli tillardagi so'zlarning fonetik o'zaro bog'liqligini tahlil qilish mumkin, buni tilshunoslik fanining yangi yo'nalishi, ya'ni numerologik tilshunoslik deb nomlashimiz o'rinli. Dunyo tillari fonetik jihatdan murakkabdir, ya'ni biz kommunikatsiya vazifasida foydalanidan tillar turli alifbo tizimiga asoslangan belgilar tizimidan iborat, bu belgilar tizimi numerologiyada raqamlarga tayanadi. Demak, numerologik tadqiqotlarda inson lisonidagi leksemalarni raqamli qiymatlari alifbo harflari bilan yoki nutqqa reallashadigan fonetik tovushlar bilan bog'lanadi. Xususan, qadimgi yunon alifbosi matematik yozuvning o'nlik shkalasining raqamli belgilarining numerologik matritsasiga mos keladi. Yoki zamonaviy rus alifbosining harflari va Finikiya yozuvining alifbo belgilarini misol tariqasida keltira olamiz. Ammo nutq tovushlari yoki boshqa tillarning fonemalarini aytish har doim ham alifbo harflariga mos kelmaydi. Shuning uchun inson nutqining tovushlariga ko'ra sonli so'z qiymatlarini numerologik hisoblash usullari ancha murakkab. Xususan, alifbo belgilarini ingliz yoki frantsuz tillaridagi tovushlarga mos kelmaydi. Masalan, ingliz alifbosidagi tovushlar miqdori harflar miqdoriga nisbatan anchagina ko'p, yoki arab alifbosidagi harflar ham tovushlar bilan miqdor jihatdan teng emas.

Yuqoridagi ilmiy faktlardan ayon bo'ldiki, numerologiya raqamlarni borliqning turli jabhalarida o'zgacha sema ifodalagan xususiyatlarini ochib beruvchi ezoterik fandır. Numerologik tadqiqotlarda raqamlar bilan bog'liq ma'no xalqlarning lingvomadaniy jihatlarini o'zida jamlab, turli madaniyatlarda

insonning fe'l-atvor, ehtiros va vazifalarini tushuntirishni ta'minlaydi. Jumladan, rus numerologlari raqamlarning inson hayotiga ta'sirini e'tirof etib, rus madaniyatida raqamlar bilan bog'liq urf-odatlar-u, bayramlar, kishi nomlari-yu, tarixiy evrilishlar mavjudligini qayd etishadi. Ingliz tilshunosligida ham raqamlarning hayot tebranishlari bilan bog'liqligiga urg'u berilib, raqamlar inson hayotining 5 asosiy yo'lini belgilashi aytiladi:

- Hayot yo'lining raqami(bu inson umri davomiyligi bilan bog'liq);
- Tug'ulgan kun raqami;
- Ifoda raqami(taqdir raqami ham deyiladi);
- Shaxs raqami;
- Ruhiy chaqiruv raqami.

Xulosa qilib aytish joizki, raqamlar ifodalagan ma'no turli xalqlar madaniyatida boy madaniy semantikalar bilan bog'liq bo'lib, ular xalqlar taraqqiyotida turli ramziy ifoda kasb etadi. Raqamlarning bunday milliy va madaniy ramzlarni ifoda etish xususiyati numerologiyaning madaniyatshunoslik(culture) bilan bog'ligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи”// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. София Жумаева. Ўзбек мумтоз шеърлятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). Тошкент: Фан, 2010.-124 б.
3. О'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. 2004. 264-bet.
4. Приемьшева Марина Николаевна. Количественные числительные в современном русском языке: Семантика и функционирование: Автореферат на соискание степени доктора философии (PhD). Санкт-Петербург, 1999.
5. <https://ziyonet.uz>

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN
FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI.**

M.A.Asqarova
NamDU tadqiqotchisi

Аннотация. Ушбу мақолада бошлангич таълимда халқаро баҳолаш дастурларидан фойдаланиш методикаси аниқланади. Мақола, халқаро баҳолаш дастурларининг умумий мақсадларини ва халқаро баҳолаш тизимидан фойдаланишнинг методик жиҳатлари, ўқитишда халқаро баҳолаш дастурларининг самарадорлиги тўғрисида фикр юритилган.

Калит сўзлар: бошлангич таълим, халқаро баҳолаш, методика, мақсад, муваффақият, самарадорлик, кўникма.

Аннотация. В этой статье определяется методология использования программ халқаро баҳолаш в обучении начинающих. В статье отражены общие цели международных оценочных программ и методологические аспекты использования системы международных оценочных программ, эффективность международных оценочных программ в обучении.

Ключевые слова: начальное образование, международная оценка, методология, цель, успех, эффективность, навыки.

Annotation. This article defines the methodology of using halkaro baholash programs in teaching beginners. The article reflects the general objectives of international assessment programs and methodological aspects of the use of the system of international assessment programs, the effectiveness of international assessment programs in training.

Keywords: primary education, international assessment, methodology, goal, success, efficiency, skills.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarda o'qish ko'nikmasini rivojlantirish asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Maktab o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, vaqtni tejashga va tanlangan o'quv materialini samarali o'qishga imkon beradi. Bundan tashqari, tushunish va konsentratsiya darajasini oshirishga, dunyoqarashlarini kengaytirish, o'z fikrlarini ravon ifoda etishga va teran fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu borada 4-sinf maktab o'quvchilarining o'qish ko'nikmasini baholashda PIRLS baholash tizimidan foydalanish alohida e'tiborga molikdir. PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro

assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkor hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholash va amaliyotda qo'llash ijobiy natijaga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Xalqaro baxolash dasturlaridan foydalanish metodikasi talablarga, baholash maqsadlariga va ushbu dasturlarni qo'llash uchun mavjud resurslarga muqobil kelishi kerak. Bu maqolada boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning bir nechta bosqichlari to'g'risida takliflarni berib o'tmoqchimiz:

-birinchidan, xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish maqsadlarini ishlab chiqish lozim. Maqsadlar keng tushunchalarni ifodalovchi mazmunli va muayyan matnlarni tahlil qilish yuzasidan bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchilarning me'yoriy rivojlanishini, o'qish va mehnat qilish birligini ta'minlash va ta'lim jarayoniga muvofiqlashtirish maqsadlariga ega bo'lishi, matnda aks ettirilgan ma'no-mazmun va g'oyalarni chuqurroq o'rganishni o'z ichiga oladi.

-Ikkinchidan, matnni o'qishda kerakli fikrlarni sharhlab borish o'qishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Matnni o'qishda fikrlarni mos keladigan dalillar bilan bog'lashni talab qiladi. Demak, qo'llanilgan tushunchalarni, shuningdek, dalillarning aniqligini va ahamiyatini sinchkovlik bilan o'rganishni anglatadi.

Uchinchidan, tanqidiy o'qishni rivojlantirish. Tanqidiy o'qish matndagi dalillarni faol tarzda topib, tahlil qilishni nazarda tutadi. Demak, tanqidiy o'qish - bu materialni chuqur tushunish maqsadida o'qish demakdir. Bu matnni o'qish jarayonida tahlil qilish va baholashni talab etadi. Badiiy asarni tanqidiy ravishda o'qiyotganda, yozuvchining aslida nimani nazarda tutishini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, baholash dasturlarni o'qish darslarida o'quvchilarga kichik hikoya va ertaklardan, ikki xil variantda uyga vazifa berilib, berilgan vazifaga ko'ra hikoya yoki ertak haqida savol-javoblar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu tizimli ishni bajarishga yordam beradi. Misol uchun, o'quvchilarga savol-javoblar tashkillashtirilganda, ular aniq va tez javob berishga qodir bo'ladi. Xalqaro baxolash dasturlari tasavvurlarni bildirishda oldingi umumiy ma'lumotlar bilan birgalikda, kreativlik printsiplariga amal qilishi kerak. Bu o'quvchilarning qobiliyatlari, talablari va ta'lim muhiti mavjudligining muvofiqligini ta'minlaydi.

Baholash dasturlari amalga oshirilgandan so'ng ma'lumotlarni to'plamoq va analiz qilish mumkin. Ularning natijalari bo'yicha yonginliklar va imkoniyatlar topishish maqsadida birlamchi natijalarni tuzish mumkin. Xalqaro baxolash

dasturlarini qo'llash davomida, ularning to'g'riligini tekshirish va tahrirlash mumkin. Bu esa, o'quvchilarning matnni o'qiganligi natijasida uni qanday tushunganlik darajasini baholaydi. Bunda o'quvchi matnni o'qish jarayonida o'z fikrini mushohada qilib, fikrini erkin ayta olishi muhim hisoblanadi.

PISA, PIRLS testlari to'rt darajada bo'lib, ko'rinishlari ham turlicha: 1. 1-darajali testlar o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida o'quvchini bilim, malaka va ko'nikmasini aniqlaydi. Aniq belgilangan algortmlar asosida hal qilinadigan testlar;

2. 2-darajali testlar taqqoslash, qiyoslash talab qilinadigan testlar. O'qituvchi bergan ma'lumotlar asosida turlicha javob chiqarilishi mumkin bo'lgan testlar;

3. 3-darajali testlar bir necha manbadan kerakli ma'lumotlarni topib, taqqoslab, qiyoslab eng maqbul yechimi topiladigan testlar;

4-darajali testlar esa proekt ko'rinishidagi topshiriqlar hisoblanadi.

PIRLS testida o'quvchilarning qobiliyatlari ta'riflari operatsion-eng yuqori darajada. Nazariy ramka to'rtta asosiy o'quvchi qobiliyatini ta'kidlaydi:

- matnda aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni toping;

- oddiy xulosalar chiqarishga asoslangan;

- matn g'oyalari va ma'lumotlarini integratsiya qilish va sharhlash;

- matnning mazmuni va shaklini baholash. Ushbu to'rtta o'quvchi qobiliyatlari har bir matn uchun test savollarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi matnning mazmuni baholash qobiliyati o'zgaradi: matnning to'liq, batafsil shakli, chuqur ma'nosini matndan ob'ektiv yoki sub'ektiv nuqtai nazardan qarash kerak. O'quvchi matn muallifi tomonidan chizilgan dunyoning rasmini dunyoning o'z rasmiga bog'laydi, muallifning pozitsiyasiga betaraf qoladi, uni inkor etadi yoki qo'shimcha tasdiqlarni topadi. O'quvchi mualliflik g'oyalarini boshqa manbalardan olingan g'oyalar va ma'lumotlar bilan taqqoslaydi. Matnning rasmiy elementlarini baholash, ya'ni uning tuzilishi, o'quvchi umumiy va janr xususiyatlari, fikrlar, his-tuyg'ular, faktlar haqida yozma xabarlarini taqdim etishning verbal va noverbal usullari haqida o'z bilimiga tayanadi. O'quvchilar muallif uslubining afzalliklari va kamchiliklarini ta'kidlashlari mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilar axborotni tahlil qilishda ularning qobiliyatlarini ishga solish muhim ekanligini yodda tutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Measuring Up: What Educational Testing Really Tells Us" (Даниэл Кори, 2009).
2. "Assessment for Learning: Putting it into Practice" (Куэнтин Уилсон ва другие, 2002).
3. "Classroom Assessment Techniques: A Handbook for College Teachers" (Том П. Андерсон ва другие, 2004).
4. "Designing and Teaching Learning Goals and Objectives" (Роберт Маржан, 2009).
5. "Classroom Assessment: Principles and Practice for Effective Standards-Based Instruction" (Джеймс П. Макмиллан ва другие, 2006).

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA SPORT
TURIZMI UCHUN ZARURIY EKSTRIMAL-IRODAVIY SIFATLARNI
RIVOJLANTIRISH**

G'ofurov Azizbek Umarjonovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sport turizmi uchun zaruriy ekstrimal-irodaviy sifatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati natijasida talabalarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o'rganilib rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'z va iboralar: jismoniy tarbiya, yangi taraqqiyot, sport turizm, innovasion g'oyalar, jismoniy madaniyat, Yevropa mamlakatlarida, barkamol inson, ta'lim standartlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-metodik.

Bugungi kunda jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, unga innovasion yondashuvlarni olib kirish va bu orqali mutaxassislarni tayyorlashning mahsuldor tamoyillari va modellarini yaratishga doir pedagogik faoliyat ustuvor vazifa sifatida baholanmoqda. Mazkur jarayon pedagogik ta'limda muayyan g'oyalar bilan e'tirof etilgan bo'lib, ular zamonaviy jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, kadrlar tayyorlash tizimiga yangicha g'oyalar, nazariyalar va yondashuvlarni olib kirish dolzarflik kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri o'quvchi va talabalarni jismoniy sog'lom bo'lib o'sishi uchun jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga o'rgatishdir. Sog'liqni saqlash degan ibora hozirda juda keng ma'no kasb etmoqda, uning zamonaviy ma'nosini faqat salomatlik

ma'nosidagina tushunib qolmay, balki har tomonlama yetuk rivojlangan va yuksak amaliy hamda jismoniy ishlash sifatiga, o'zgaruvchan iqlimga tezda moslashishga o'rganishdan iborat deb talqin qilish mumkin. Ayni texnik yuksalish asri insondan harakatni tezkorlik bilan mohirona boshqara olishni, puxta jismoniy tayyorgarlikni talab etmoqda. Bu narsalarning barchasiga asos esa kichik yoshdan boshlab qo'yiladi. Shuningdek, «jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi. Shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari yuqori samara beradi. Aks holda ular jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish vazifasini hal qilish borasidagi ahamiyatini yo'qotadi»[1]. Demak, jismoniy ta'lim va tarbiya jarayonida asosiy urg'u jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. "Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashtirishning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashtirish o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar". Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida sport turizmiga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishimiz uchun quyidagi ilmiy izlanishlar metodologik asos bo'lib hizmat qildi:

Ma'lumki, irodaviy sifatlar jismoniy tarbiyada inson harakatlarini psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'luvchi shaxs xususiyatlaridan biridir. Jismoniy ta'limda irodaviy sifatning namoyon bo'lishi nafaqat, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik balki, insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarda irodaviy jihatdan tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni talab etmoqda.

Ilmiy psixologik adabiyotlarga nazar soladigan bo'lsak irodaviy sifatlarini turli talqinda yoritishga harakat qilishgan va quyida ularning psixologik tavsifi to'g'risida mulohaza yuritimiz.

Jasorat - og'ir va xavfli sharoitlarda, g'ayrioddiy qiyinchiliklarga qarshi kurashda yaqqol namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi o'z-o'zini nazorat qilish. Jasorat, chidamlilik va qat'iyat talab qiladi.

Maqsadga intilish. Irodaviy jarayonda odamning maqsadni anglashi eng muhim rol o'ynaydi. Kishining ko'zlagan maqsadi qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, u o'z maqsadini amalga oshirish uchun shunchalik faol kirishadi. Maqsadga intilish – shaxsning o'zidagi barcha kuchquvvatlarini oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay, maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyati.

O'zini tuta bilish. O'zini tuta bilish ham kuchli irodaning sifatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday irodaviy sifatlar odamning o'zini tuta bilishida, o'z xatti-harakatlari, histuyg'ulari, xulq-atvorini boshqara olishida gavdalanadi. O'zini qo'lga ola bilgan, sabrbardoshli kishi ahd qilgan qarorini bajarishga o'zini majbur eta oladi. Lekin bunda uning ahd qilgan qaroriga qarshilik ko'rsatuvchi istak va mayllariga erk bermaydi. U o'z xatti-harakatlarini boshqarishning uddasidan chiqadi, noto'g'ri, o'ylamasdan ish qilishda o'zini to'xtatib qola biladi. O'zini tuta bilish – odamning o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori, faoliyati, muomalasi kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifati hisoblanadi.

Qat'iyatlilik. Insonning qiyinchilik bilan uzoq kurashga o'z imkoniyatlarini safarbar qila olishi. Masalalarning ba'zi birlari o'zining murakkabligiga ko'ra shaxsdan xotirjam, jiddiy va batafsil, atroflicha o'ylab, aql-zakovat amri bilan ish ko'rishni talab qilsa, boshqalari juda tez va odilona qaror qabul qilib, darhol topshiriqni yechish uchun ishga kirishishni taqozo etadi. Qat'iy yoki qat'iyatlik insonlarning ish-amallari va faoliyati mahsulini ko'rganimizda biz ularga havas bilan qaraymiz, qaysidir ma'noda qoyil qolamiz yoki aksincha, mujmal, qat'iyatsiz odamlarning holiahvoliga achinamiz. Yuqoridagi mulohazalar negizidan kelib chiqqanda, ushbu psixologik tushunchaga mana bunday ta'rif berish mumkin: qat'iyatlilik – bu shaxsning ob'yektiv va sub'yektiv vaziyatni tezda fahmlab, oqilona fikran baholab, o'z vaqtida asosli, o'ylangan, mustahkam, pishiq qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz, dadil bajarishga kirishishdan iborat irodaviy sifati (fazilati) hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda yangicha dunyoqarash va tafakkurni tarbiyalash hamda jismoniy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ularning kasbiy kompetetligidan yuqori darajada foydalana olishda motivasion yondashuvdan foydalanish, motivasion favoliyatni yuzaga keltirish va shu asosda ijtimoiy o'zgarishlarga erishish maqsad qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909 сонли Қарори. // <https://lex.uz/docs/3171590>
2. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Тошкент, 2008 йил. –Б. 222-223
3. Хайриев Х. Ирода психологияси Тошкент, 2010 йил. 99-103
4. Жўраев Ў.Т. “Иродавий фаолликнинг вазиятли ва шахслилик детерминантлари” магистрлик диссертацияси Тошкент, 2016 йил.

METAFORANING KOGNITIV XUSUSIYATI

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi

Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Аннотация. Ushbu maqolada kognitiv bilish tamoyillari, metaforik ma'noning lisoniy va kognitiv asosini aniqlash, metaforaning kognitiv xususiyatlari tadqiq qilinadi. Kognitiv jarayondagi asosiy vazifa inson miyasining analogik qobiliyatlarining voqea hodisasi sifatida metaforalar tomonidan amalga oshiriladi. Kognitiv jarayonlarda inson ongining o'xshash imkoniyatlarining namoyon bo'lishi sifatida metaforaning ahamiyati ochib beriladi.

Калит со'злар: Kognitiv bilish, metaforik ma'no, germeneytik tadqiq, lingvoaksiologik yo'nalish.

Inson umri davomida hayotni, borliqdagi mavjudliklarni bilishga, anglashga va o'rganishga intiladi. Bilish inson ongining asosiy vazifasi hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo va o'zbek tilshunosligida katta ahamiyat kasb etayotgan kognitiv tilshunoslik ham til orqali insonni borliqni anglashga xizmat qilishini o'rganadi. Metaforaning kognitiv bilishdagi asosiy roli borliqdagi narsa hodisalarning nomlarini, so'zlarni bir-biriga bog'lagan, o'xshatgan holda tushunishga yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida metaforani “yashirin o'xshatish”, deb ataydilar. Chunki metaforada ham, o'xshatishda ham asosan narsa yoki hodisa nimagadir o'xshatiladi. Bu ikkita bir-biriga bog'liq bo'lmagan narsalarni qiyoslash orqali ma'no chiqarish sifatida ishlatiladi, ammo ularning o'ziga xos ichki o'xshash xususiyatlari bo'ladi. Nutqqa obrazlilik, ekspressivbo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlikka asoslangan bo'lib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforaning xususiyatlaridan biridir.

Metafora bir terminning mujassamlashgan taqqoslanishi bo'lib, o'xshatishlik munosabatiga asoslangandir. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: 1) uslubiy (adabiy) metafora; 2) lingvistik metafora. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi

lingvistik metaforani o'rganadi, chunki lingvistik metaforalar ishlatilishi jihatdan lug'at tarkibining bir qismini tashkil etadi. Lingvistik metafora odatda ko'p qo'llaniladi va tilda sezilmasdan ishlatilaveradi. Lingvistik metaforalarni ishlatganimizda, uning ongimizda tug'dirgan tasviri haqida hech qachon o'ylamaymiz. Shunday qilib, bugungi kunda metafora she'rdagi shoirona go'zallik va kundalik hayotdagi oddiy so'zlardan ko'ra badiiy bo'yoqlarni oshirgan holda ta'sirchanlikni oshirish uchun ishlatilmoqda.

Metaforik ma'noning lisoniy va kognitiv asosini aniqlash, sharhlash germenevtik yondashuvning asosini tashkil etadi. Metaforaning germenevtik tadqiqi masalasi milliy va diniy qadriyatlar tarixi bilan bog'lanib ketadi. Bu masala bilan metaforologiyaning lingvoaksiologik yo'nalishi mashg'ul bo'ladi. Bu borada Dj.Lakoff, M.Djonson, L.Laudov, Rozov, L.B.Alberty, M.Veber, A.N.Baranov, V.I.Karasik, G.N.Sklyarevskaya, I.I.Dubrovina, N.A.Luk'yanova kabilarning olib borgan tadqiqotlari e'tiborga molikdir¹.

Dj.Viko ta'kidlaganidek, «har bir metafora kichkina mifdir»². Shuning o'ziyoq metaforani milliylik bo'yog'idan xoli tasavvur qilib bo'lmasligini ko'rsatadi. «Shu sababli borliqni muayyan va mavhum his qilish amalga oshiriladi va shuning uchun ham u tilda mif ijod qilishning samarali usuli hisoblanadi»³. Shu ma'noda jahon metaforologiyasining atoqli vakillari bo'lgan Dj.Lakoff va M.Jonsonning quyidagi fikrlarini tadqiqotning yo'nalishini belgilaydigan metodologik qiymatli asos sifatida keltirish mumkin: «Biz barcha madaniy qadriyatlar metaforik sistema bilan muvofiqlashgan holatda real hukm suradi deyish fikridan yiroqmiz. Faqat real mavjud bo'lgan va madaniyat qa'riga chuqur singib ketgan qadriyatlarga metaforik tizim bilan muvofiqlashadi»⁴.

Shevalararo leksik farqlarda ham metaforik xoslanishlar shu sheva vakillarining til vositasida shakllangan etnik ongi va qadriyatlari silsilasi bilan belgilanadi. Masalan, shirini metaforik qo'llanishi Shirin qishlog'idan tashqarida ma'lum bir kognitiv va komik funktsiya bajaradi. Ammo shu hududda yashovchilar uchun uning bu vazifasi mutlaqo yuzaga chiqmaydi.

So'nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Ushbu metaforologik bumga turtki

¹ Карасик В. И. Оценочная мотивировка, статус лица и словарная личность // Филология. 1994. № 3; Розов Н. С.

² Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л., 1940. – С. 146.

³ Мусаева Е.М. Миф и метафора // Фразеология в дискурсах разных типов. Вестник ИГЛУ. Сер. Лингвистика. Иркутск: ИГЛУ, 2000. – С. 113.

⁴ Лагута О.Н. Лингвометафорология: основные подходы. [http://www. Balkan Rusistics](http://www.BalkanRusistics.com) | Статьи | Монографии. Метафорология. Теоретические аспекты. Ч.1. Г.2. § 35. – С. 4.

bo‘lib, metaforaning kognitiv nazariyasida o‘z ifodasini topgan metafora mohiyati haqidagi yangi g‘oyalar edi. O‘tgan asr so‘nggida E.S.Kubryakova “Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o‘rganadigan fan”dir deb yozadi⁵.

Kognitiv jarayondagi asosiy vazifa inson miyasining analogik qobiliyatlarining voqea hodisasi sifatida metaforalar tomonidan amalga oshiriladi. Kognitiv jarayonlarda inson ongining o‘xshash imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi sifatida metafora muhim ro‘l o‘ynaydi.

Zamonaviy kognitiv fanda metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, ularning estetik imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora bilan fikr yuritadi, ular yordamida o‘zi yashab turgan olamni o‘rganadi. Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo‘lgan dunyoning linguistik suratini o‘zgartirishga, yaxshi tanish bo‘lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunda metaforaning estetik salohiyati, borliqni emotsional baholash qobiliyati muhim ro‘l o‘ynaydi. Kognitiv metafora nazariyasining tobora yangi modifikatsiyalarining ortib borishi ushbu ilmiy yo‘nalish tarixini, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlantirish istiqbollari har tomonlama tushunishni talab qiladi.

Ma‘lumki, kognitiv metaforani o‘rganish nazariyasi va amaliyotiga oid zamonaviy nashrlar J.Lakoff va M.Johnson ning “Biz yashayotgan metaforalar” (Metaphors by which we live) klassik tadqiqotiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metaforizatsiya ikki bilim tuzilmasi (kontseptual sohalari: manba sohasi va maqsadli soha) o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik jarayoniga asoslanadi. Insonning tevarak-atrofdagi olam bilan bir yo‘nalishli metafora bo‘lishi natijasida sfera-manba elementlari kognitiv qobiliyatning mohiyatini tashkil etuvchi kontseptual maqsad- manbani hosil qiladi. Metaforik barqarorlik nafaqat ikki bilim strukturasining alohida elementlari o‘rtasida balki kontseptual sohalarning butun tuzilmalari o‘rtasida ham sodir bo‘ladi. Kontseptual metafora nazariyasining keyingi rivojlanishi bir nechta yo‘nalishlarda bo‘lib, ularning har biri inson ongini o‘ziga xos g‘oyalar va metodlar bilan boyitdi. Maqsadli sohada metaforik proektsiya paytida manba sohasi tuzilmasi qisman saqlanib qoladi degan taxmin “o‘zgarmaslik gipotezasi” deb nomlanadi. Ushbu xususiyat tufayli metaforada aniq ifodalanmaydigan, lekin tashqi bilimlar natijasida kelib chiqadigan metaforik hodisalar bo‘lishi mumkin.

⁵ Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика—психология—когнитивная наука // *Вопр. языкознания*. 1994. №4. С. 3–15.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, metaforalar faqat tilning hodisasi bo'libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi hisoblanadi. Metaforalar orqali inson borliqni obrazli tasavvur qilishi va ifoda etishi mumkin. Ayni shu jihatlari bilan ham metafora kognitiv tilshunoslikning asosiy ob'ekti bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Карасик В. И. Оценочная мотивировка, статус лица и словарная личность // Филология. 1994. № 3; Розов Н. С.
2. Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л., 1940. – С. 146.
3. Мусаева Е.М. Миф и метафора // Фразеология в дискурсах разных типов. Вестник ИГЛУ. Сер. Лингвистика. Иркутск: ИГЛУ, 2000. – С. 113.
4. Лагута О.Н. Лингвометафорология: основные подходы. [http: www.Balkan Rusistics | Статьи | Монографии. Метафорология. Теоретические аспекты. Ч.1. Г.2. § 35. – С. 4.](http://www.BalkanRusistics.com)
5. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика— психология—когнитивная наука // Вопр. языкознания. 1994. №4. С. 3–15.

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН ДИСКЛИ БОРОНА ТЕКИСЛАГИЧ- ЗИЧЛАГИЧИНИНГ БАЛАНДЛИГИНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ

М. Турдиева

Аннотация. Мақолада комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг баландлигини унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари келтирилган. Тадқиқотларда комбинациялашган дискли борона агротехник талаблар даражасида ишлаши учун у текислагич-зичлагичининг баландлиги камида 14 см бўлиши лозимлиги аниқланган.

Калит сўзлар: комбинациялашган дискли борона, текислагич-зичлагич, унинг баландлиги, дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши, тупроқнинг уваланиш даражаси, тортишга солиштирма қаршилиқ.

Кириш. Ҳозирги кунларда Ўзбекистонда ерларни буғдой ва такрорий экинларни экиш учун тайёрлашда ҳамда серкесак ерларга экиш олдида ишлов беришда дискли бороналардан кенг фойдаланилади. Аммо бунда тупроқни экишга талаб даражасида узил-кесил тайёрлаш учун текислагич ва

тишли тирмалар билан қўшимча ишлов берилади. Бу ерларга ишлов бериш учун сарфланадиган харажатларни, шу жумладан ёнилғи сарфини ортишига олиб келади.

Юқорида таъкидланганлардан келиб чиққан ҳолда Қишлоқ хўжалигини механизациялаш илмий-тадқиқот институтида ерларни буғдой ва такрорий экинларни экиш учун тайёрлашда ҳамда серкесак ерларга экиш олдида ишлов беришда қўлланиладиган осма комбинациялашган диски борона ишлаб чиқилди ва унинг параметрларини асослаш бўйича тадқиқотлар олиб борилди [1-3].

Ишлаб чиқилган комбинациялашган диски борона осми қурилмаси билан жиҳозланган умумий рама ва унга икки қатор ўрнатилган сферик диск қўринишидаги иш органлари (дискли юмшаткичлар), текислагич-зичлагич ва планкали ғалтакмоладан ташкил топган. Иш жараёнида биринчи қаторда жойлашган диски юмшаткичлар тупроқ ва ўсимлик қолдиқларини кесиб, майдалаб ва аралаштириб бир томонга сурса, иккинчи қатордаги диски юмшаткичлар ҳам шу жараёни бажариб, тупроқни иккинчи томонга суради. Натижада ўсимлик қолдиқлари ва тупроқ яхши майдаланиб, майин қатлам ҳосил бўлади. Текислагич ва ғалтакмола диски юмшаткичлар томонидан ишлов берилган қатлам юзасини қўшимча майдалайди, текислайди ва зичлайди [1].


Материаллар ва тадқиқот усуллари. Ушбу мақолада комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагичининг баландлиги H_T ни дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши ($\pm\sigma$), тупроқнинг уваланиш даражаси ($\Phi_{<25}$), яъни ўлчами 25 mm дан кичик бўлган тупроқ фракциялари миқдори ва унинг тортишга солиштирма қаршилиги (R_c)га таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган экспериментал тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.


Тажибалар ишалаб чиқилган махсус лаборатория қурилмасида ўтказилди. Қурилма ТТЗ-812 трактори билан агрегатланди (1-расм).



Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Тажрибаларни ўтказишда назарий тадқиқотларнинг натижаларидан келиб чиқиб, текислагичнинг баландлиги 10 см дан 16 см гача ҳар 2 см ораликда ўзгартирилди. Бунда текислагич-зичлагичнинг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 90° , текислагич-зичлагичнинг тишлари орасидаги кўндаланг масофа 10 см, тишларнинг узунлиги 6 см, текислагич-зичлагичнинг ҳар бир метр камраш кенлигига тўғри келадиган тик юкланиш 400 N/m ва агрегатнинг ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h этиб белгилаб олинди.

Тажрибаларда олинган натижалар 2-расмда келтирилган.





*1 va 2 mos raviihda agregat tezligi 6 va 8 km/h бўлганда
2-расм. Комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагиччининг
баландлигини унинг иш кўрсаткичларига таъсири.*

Уларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, текислагич-зичлагичнинг баландлиги ортиши билан дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши камайиб борган, яъни бунда дала юзасининг текисланиш сифати яхшиланиб борган. Бу баландлик 10 см дан 16 см гача ортганда дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши агрегат ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлганда $\pm 2,10$ см дан $\pm 1,62$ см гача камайган бўлса, агрегат ҳаракат тезлиги 8 km/h бўлганда эса бу кўрсаткич $\pm 2,22$ см дан $\pm 1,74$ см гача камайган. Аммо, бунда дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланишининг камайиш жадаллиги, яъни дала юзасининг текисланиш сифатининг яхшиланиши ушбу баландлик ортиши билан камайиб борган. Буни комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагиччининг баландлиги кичик бўлганда унинг устидан тупроқ бўлакларининг ўтиб кетганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Текислагич-зичлагичнинг баландлигини 10 см дан 16 см гача ортиши ўлчами 25 mm дан кичик тупроқ фракциялари миқдорини олдин тезроқ кейин эса секинроқ ортишига олиб келган. Агрегат ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлганда бу кўрсаткич 79,8 % дан 84,7 % гача ортган. Агрегатнинг 8 km/h ҳаракат тезлигида эса бу кўрсаткич 81,2 % дан 86,1 % гача ортган.

Текислагич-зичлагичнинг баландлигини ортиши лаборатория дала қурилмасининг тортишга қаршилиги ҳар иккала ҳаракат тезлигида ҳам ортишига олиб келган. Баландликнинг 10 см дан 16 см гача ортиши агрегатнинг 6 km/h ҳаракат тезлигида тортишга қаршилиқни 3,77 kN дан 4,33

kN гача ортишига сабаб бўлган бўлса, агрегатнинг 8 km/h ҳаракат тезлигида эса ушбу кўрсаткични 3,97 kN дан 4,52 kN гача ортишига сабаб бўлган.

Текислагич-зичлагичнинг баландлиги ортиши билан ўлчами 25 mm даги фракциялар миқдори ва тортишга қаршилиқнинг ортишини юқорида кўрсатилган ўтилган сабаблар билан изоҳлаш мумкин.

Хулоса. Комбинациялашган дискли борона агротехник талаблар даражасида ишлаши учун у текислагич-зичлагичининг баландлиги камида 14 см бўлиши лозим.

Адабиётлар

1. Эргашев М.М. Комбинациялашган дискли борона // О'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI журнали. – Тошкент, 2017. – №8. – Б.29-30.
2. Tojiev R. J., Tuhtakuziev A., Ergashev M. M. STUDY OF MOVEMENT UNIFORMITY OF MOUNTED DISC HARROWS IN DEPTH OF PROCESSING //Scientific-technical journal. – 2020. – Т. 24. – №. 3. – С. 28-31.
3. Abdusalim Tukhtakuziev and Ergashev Ma'rufjon Mukhammadjonovich. "Determination of the Extension Strength of the Press Spring of the Parallelogram Mechanism of the Combined Disc Harrow." Eurasian Journal of Engineering and Technology 17 (2023): 6-10.

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН ДИСКЛИ БОРОНА ТЕКИСЛАГИЧ- ЗИЧЛАГИЧИНИНГ ГОРИЗОНТГА НИСБАТАН ЎРНАТИЛИШ БУРЧАГИНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ

М. Турдиева

Аннотация. Мақолада Комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибавий тадқиқотларнинг натижалари келтирилган. Ўтказилган тажрибавий тадқиқотларда комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 80-90° оралиғида бўлиши лозимлиги аниқланган.

Калит сўзлар: комбинациялашган дискли борона, текислагич-зичлагич, текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги, дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши, тупроқнинг уваланиш даражаси, тортишга солиштирма қаршилиқ.

Ҳозирги кунларда Ўзбекистонда ерларни буғдой ва такрорий экинларни экиш учун тайёрлашда ҳамда серкесак ерларга экиш олдидан ишлов беришда дискли бороналардан кенг фойдаланилади. Аммо бунда тупроқни экишга

талаб даражасида узил-кесил тайёрлаш учун текислагич ва тишли тирмалар билан қўшимча ишлов берилади. Бу ерларга ишлов бериш учун сарфланадиган харажатларни, шу жумладан ёнилғи сарфини ортишига олиб келади.

Юқорида таъкидланганлардан келиб чиққан ҳолда Қишлоқ хўжалигини механизациялаш илмий-тадқиқот институтида ерларни буғдой ва такрорий экинларни экиш учун тайёрлашда ҳамда серкесак ерларга экиш олдида ишлов беришда қўлланиладиган осма комбинациялашган дискли борона ишлаб чиқилди ва унинг параметрларини асослаш бўйича тадқиқотлар олиб борилди [1-3].

Ишлаб чиқилган комбинациялашган дискли борона осмиш қурилмаси билан жиҳозланган умумий рама ва унга икки қатор ўрнатилган сферик диск кўринишидаги иш органлари (дискли юмшаткичлар), текислагич-зичлагич ва планкали ғалтакмоладан ташкил топган. Иш жараёнида биринчи қаторда жойлашган дискли юмшаткичлар тупроқ ва ўсимлик қолдиқларини кесиб, майдалаб ва аралаштириб бир томонга сурса, иккинчи қатордаги дискли юмшаткичлар ҳам шу жараёни бажариб, тупроқни иккинчи томонга суради. Натижада ўсимлик қолдиқлари ва тупроқ яхши майдаланиб, майин қатлам ҳосил бўлади. Текислагич ва ғалтакмола дискли юмшаткичлар томонидан ишлов берилган қатлам юзасини қўшимча майдалайди, текислайди ва зичлайди [1].

Ушбу мақолада комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги β ни дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши ($\pm\sigma$), тупроқнинг уваланиш даражаси ($\Phi_{<25}$), яъни ўлчами 25 mm дан кичик бўлган тупроқ фракциялари миқдори ва лаборатория дала қурилмасининг тортишга қаршилиги (R_c) га таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган экспериментал тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.




Тажрибавий тадқиқотларни олиб боришда назарий тадқиқотларнинг натижаларидан келиб чиқиб, текислагич-зичлагичнинг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 60° дан 90° гача ҳар 10° ораликда ўзгартирилди. Бунда текислагич-зичлагичнинг баландлиги 14 см, текислагич-зичлагичининг тишлари орасидаги кўндаланг масофа 10 см, у тишларнинг узунлиги 6 см, текислагич-зичлагичнинг ҳар бир метр қамраш кенглигига тўғри келадиган тик юкланиш 400 N/m ва агрегатнинг ҳаракат тезлиги 6 ва 8 km/h этиб белгилаб олинди.

Тажрибаларда олинган натижалар қуйидаги жадвал ва расмда келтирилган.

Уларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги ортиши билан дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши камайиб борган, яъни бунда дала юзасининг текисланиш сифати яхшиланган. Ушбу бурчак 60° дан 90° гача ортганда дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши агрегат ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлганда $\pm 2,30 \text{ cm}$ дан $\pm 1,67 \text{ cm}$ гача камайган бўлса, агрегат ҳаракат тезлиги 8 km/h бўлганда эса бу кўрсаткич $\pm 2,45 \text{ cm}$ дан $\pm 1,79 \text{ cm}$ гача камайган. Бу шу билан изоҳланадики, текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги ортиши билан унинг таъсирида тупроқ бўлақларининг олдига суриш эҳтимоли ортади ва бунинг натижасида нотекисликларининг текисланиш даражаси яхшиланади.

Комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсири

Комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги, $^\circ$	Дала юзасидаги нотекисликлар баландликларининг ўртача квадратик четланиши, cm	Тупроқнинг уваланиш даражаси, яъни ўлчами 25 mm дан кичик тупроқ фракциялари миқдори, %	Лаборатория дала курилмасининг тортишга қаршилиги, kN
$V=6 \text{ km/h}$			
60	2,30	84,3	3,39
70	2,02	82,9	3,62
80	1,81	81,2	3,81
90	1,67	78,8	3,98
$V=8 \text{ km/h}$			
60	2,45	85,7	3,60
70	2,16	84,3	3,83
80	1,94	82,6	4,02
90	1,79	80,2	4,19



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h бўлганда

Комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсири

Комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини 60° дан 90° гача ортиши ўлчами 25 mm дан кичик тупроқ фракциялари миқдорини ортишига олиб келган. Agregat ҳаракат тезлиги 6 km/h бўлганда бу кўрсаткич 78,8 % дан 84,3 % гача ортган бўлса, агрегатнинг 8 km/h ҳаракат тезлигида бу кўрсаткич 80,2 % дан 85,7 % гача ортган.

Бу шу билан изоҳланади β бурчакни ортиши тупроқ бўлақларини текислагич-зичлагич билан таъсирлаш вақтини ортишига ва уларни янада майдаланишига олиб келади. Яна шуни таъкидлаш лозимки β бурчак ортиши текислагич-зичлагич ҳамда унга ўрнатилган тишларни тупроққа ботиш

чуқурлигини ортишига олиб келади ва бу ҳам тупроқни майдаланиши яхшилайдди.

Комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини ортиши ҳар иккала ҳаракат тезлигида ҳам лаборатория дала қурилмасининг тортишга қаршилигини ортишига олиб келган. Бу ҳам юқорида кўрсатилган сабаблар туфайли юз беради.

Хулоса. Ўтказилган тажрибавий тадқиқотлар комбинациялашган диски борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 80-90° оралиғида бўлиши лозимлигини кўрсатди.

Адабиётлар

1. Эргашев М.М. Комбинациялашган диски борона // О'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI журналі. – Тошкент, 2017. – №8. – Б.29-30.
2. Tojiev R. J., Tuhtakuziev A., Ergashev M. M. STUDY OF MOVEMENT UNIFORMITY OF MOUNTED DISC HARROWS IN DEPTH OF PROCESSING //Scientific-technical journal. – 2020. – Т. 24. – №. 3. – С. 28-31.
3. Abdusalim Tukhtakuziev and Ergashev Ma'rufjon Mukhammadjonovich. "Determination of the Extension Strength of the Press Spring of the Parallelogram Mechanism of the Combined Disc Harrow." Eurasian Journal of Engineering and Technology 17 (2023): 6-10.

ИЗМЕНЧИВОСТЬ ПАРАМЕТРОВ ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ УЧАСТКА ЮЖНЫЙ II МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАУЛЬДЫ

Рахмонова Нафиса Бахромовна

Докторант 3 курса ГУ «Институт минеральных ресурсов» (ИМР)

Мухаммедов Жавохиржон Эркин ўгли

*Младший научный сотрудник ГУ «Институт минеральных ресурсов»
(ИМР)*

Характерная особенность месторождений полезных ископаемых – изменчивость в пространстве значений параметров оруденения и других изучаемых свойств (мощность, содержание, рудонасыщенность, площадь рудного тела, элементы залегания, текстура и структура руд и др.), обусловленная геолого-генетическими условиями при влиянии и взаимодействии многих факторов.

В качестве показателя изменчивости золотого оруденения применяются коэффициент вариации содержаний, мощностей, метрограммов. С этой точки

зрения С.А. Денисов дает систематику месторождений по изменчивости ведущего параметра. Однако надо различать коэффициент вариации, рассчитанный по данным разведочных пересечений и проб.

В настоящее время Алмалыкским ГМК интенсивными темпами ведутся геологоразведочные работы на месторождения Каульды участка Южный II с учетом подготовки их к отработке. Отработку участка Южный II планируется производить подземным способом.

Ввиду сложности геологического строения золоторудных месторождений, многообразия геолого-промышленных типов, высокой изменчивости геологоразведочных параметров, выбор оптимальной плотности разведочной сети является чрезвычайно сложной задачей.


В целях более достоверного определения группы геологической сложности участка были определены коэффициенты вариации мощности рудных пересечений и содержания по ним золота. Коэффициенты вариации определены по соответствующим гистограммам с применением программного комплекса Micromine по бортовому содержанию золота 1,5 г/т, 1,0 г/т, 0,5 г/т (рис.1).

Для определения группы сложности участка Южный-II по геологическому строению построены, включая все рудные тела, гистограммы распределения мощности рудных пересечения и содержания золота по пересечениям с определением коэффициентов их вариации. Гистограммы с определением различных показателей построены с использованием программного комплекса Micromine.


Гистограммы распределения мощности рудных пересечений и распределения по пересечениям золота при бортовом его содержании 0,5 г/т 1,0 г/т 1,5 г/т приведены на рис.2.

Гистограмма распределения содержаний золота и мощностей композитов в пределах рудных тел при различных бортовых содержаниях


Бортовой содержания золота 0,5 г/т




Бортовой содержания золота 1,0 г/т




Бортовой содержания золота 1,5 г/т



Мощность 0,5 г/т



Мощность 1,0 г/т



Мощность 1,5 г/т




Рис.1

Как видно из гистограмм, коэффициент вариации мощностей рудных пересечений как по бортовому содержанию золота 0,5 г/т, 1,0 г/т, так и 1,5 г/т менее 100% (соответственно 82,3%, 82.6% и 97,2%). Более неравномерным

является коэффициент вариации по пересечениям золота, составляющий по бортовому содержанию 1,5 г/т – 191,6%, по бортовому содержанию 1,0 г/т – 234,2%, по бортовому содержанию 0,5 г/т – 299,3%. По этому показателю участок Южный- II относится к 4-й группе сложности (коэффициент вариации более 150%) (Рис.2).




Рис. 2. Общий статистический анализ. Гистограммы распределения содержаний золота (а) и мощностей (б) по композитам в пределах рудных тел участка Южный II

Учитывая крайне неравномерную изменчивость содержаний золота по сечениям рудных тел участка Южный-II месторождения Каульды, целесообразно отнести его по сложности геологического строения к 4-й группе. Разведка золоторудных месторождений данной группы, как правило, совмещается при вскрытии рудных тел с эксплуатационной разведкой.

Литература

1. А.Б. Каждан «Разведка месторождений полезных ископаемых»// Москва, 1977 г. Стр.326.
2. Р.Х. Миркамалов, И.М. Голованов и др. «Атлас моделей рудных месторождений Узбекистана» // Ташкент, ГП «НИИМР», 2010, стр.100.
3. Рудные месторождения Узбекистана // Под ред. И.М. Голованова – Т.: ГИДРОИНГЕО, 2001.
4. С.А. Денисов, В.А. Королев и др. «Оптимизация методов разведки с использованием математической характеристики изменчивости оруденения» // Ташкент, Фан, 1982г. стр. 92

**ВЛИЯНИЕ ГУСТОТЫ РАЗВЕДОЧНОЙ СЕТИ НА ДОСТОВЕРНОЕ
ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОДСЧЕТНЫХ ПАРАМЕТРОВ И ЗАПАСОВ (на
примере участка Южный II месторождения Каульды)**

Рахмонова Нафиса Бахромовна

Докторант 3 курса ГУ «Институт минеральных ресурсов» (ИМР)

Мухаммедов Жавохиржон Эркин ўгли

*Младший научный сотрудник ГУ «Институт минеральных ресурсов»
(ИМР)*

Рудопроявление Каульды было обнаружено в 1960 г. Е.Б. Ачкасовой. Промышленная оценка рудопроявлению была дана в 1965-66гг. и оно названо месторождением Каульды. В 1978г в ходе детальных глубинных поисков в 3-х км к югу от разрабатываемого месторождения был выявлен участок Южный-II, на котором в 1991г. была завершена предварительная разведка и утверждены запасы в ТКЗ.

На ранних этапах изучения месторождений широко применяется принцип аналогии, в основе которого – сопоставление разведываемого месторождения с хорошо известными месторождениями, сходными по геологическим особенностям, характеру морфологии рудных тел, минеральному составу руд, особенностям золота и содержанием в рудах. Однако известно, что нет ни одного объекта сходного геологического строения с известными. Поэтому в процессе изучения изменчивости свойств разведываемого месторождения вносятся коррективы в разведочные сети.

Существует три основных способа определения параметров разведочной сети: 1) ее разрежения или сгущения; 2) сравнение данных разведки с результатами эксплуатации (для эксплуатируемых месторождения); 3) аналитический. В практике разведки широко применяется способ разрежения или сгущения разведочной сети. У метода разрежения несколько модификаций: статистический, когда из эталонной выборки исключается каждая вторая, четвертая и т.д. выборки (разрежение через одно пересечение), через 2,3,4 и т.д. пересечений. При каждом варианте плотности рассчитываются средние значения мощности, содержания, метрограмма, запасов. Полученные результаты сравниваются с основным вариантом подсчета запасов по всем разведочным выработкам. Вариант плотности сети, который незначительно отличается по всем параметрам от основного, принимается как оптимальный. Допустимые ошибки не превышают $\pm 30\%$. Аналогично применение метода разрежения по профилям – разрежаются выработки на профиле, либо исключаются.

Категория запасов определялась исходя из степени изученности блоков. К блокам с запасами категории C_1 отнесены блоки с площадной сетью скважин, к блокам с запасами категории C_2 – блоки со скважинами, расположенными по одной линии вдоль простираения блока, что не позволяет достоверно оконтурить его площадь.

Густота сети при разведке месторождения регламентируется «Инструкции по применению классификации запасов к золоторудным месторождениям» должны быть изучены до категории C_1 .

Для выявления оптимальной плотности разведочной сети и наиболее достоверной оценки подсчетных параметров и запасов при буровой разведке на пологозалегающих рудных телах взят участок выброчной детализации по блоку 22. Этот блок разведан пятью профилями 90, 91, 92, 93, 94 по разведочной сетке 40x40. По этим профилями участвуют пять скважин 432,1601,673,1595,1631,426. Разрежение производилось через профилями по разведочной сетке 80x80. При разрежении через одно сечение получены два варианта оконтуривания блока (рис.1). Как видно из рисунки 1 пустой породы и некондиционной руды включены контур подсчетного блока (40x80). Они включают в себя значительную долю пустых пород, разубоживающих руду.

Для каждого варианта разрежения были вычислены подсчетные параметры и запасы горной массы, руды и металла. Изменения основных подсчетных параметров (мощность, среднее содержания, площади блока) по вариантам разведочной сети приведены в табл.1. как видно из таблицы среднее содержание золота составляло 18,7 г/т по разведочной сети 80x80, при разрежении сети до 40x40 оно снизилось до 9,2 г/т. Наиболее изменчивый подсчетный параметр – средние содержания золота. Это объясняется крайне неравномерным распределением содержание золота, которое определило сложность морфологии промышленного оруденения, что значительно влияет на подсчет запасов.

Изменение контуров подсчетного блока №22 при разрежении разведочной сети 40x40 до 80x80 участка Южный II

80x80	40x40
-------	-------




Рис. 1

Таблица 1
Сопоставление запасов руды и металлов по подсчетного блока №22 участка Южный II

№ № п/п.	Номера блоков	Запасы руды, усл.ед.	Среднее содержание золота, г/т	Запасы золота, усл.ед.
<i>Борт 1,0 г/т</i>				
<i>1 вариант (40x40)</i>				
1	Блок 22	134217,0	9,2	1234,8
<i>2 вариант (80x80)</i>				
2	Блок 22	130624,4	18,7	2442,7

Литература

1. М.У. Исоков, В.Я. Зималина, Г.С. Тилляева «Опыт геологического изучения и оценки запасов на примере золоторудного месторождения Кокпатас» // ГП НИИМР, Ташкент 2015г.
2. А.Б. Каждан «Разведка месторождений полезных ископаемых»// Москва, 1977 г. С.326.

3. М.У. Исоков, В.Я. Зималина, С.М. Колоскова «Условия размещения золотого оруденения, методика и достоверность разведки на примере месторождения Гужумсай» // Ташкент 2013, 185 стр.
4. В.Я. Зималина, Л.М. Глейзер «Инструкции по применению классификации запасов к золоторудным месторождениям» // Ташкент 2022г.

YURIDIK TILNING XUSUSIYATLARI

Mamanazarova Gulbahor Yusupovna

Samarqand viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Tayanch so'z va iboralar: huquq, til, faoliyat shakllari, ehtiyoj, ifoda vositalari, nutq, nutqning turlari, og'zaki va yozma nutq, nutqiy madaniyat, nutq sifati, nutq mazmuni, kommunikativ maqsadi, muloqotning xususiy shakllari, muloqotdagi an'anaviylik, dialogik va monologik nutq.

Tabiat va jamiyat mahsuli bo'lgan inson, ayni paytda, ularning oliy namunasi ham sanalib, olamni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda muhim vosita hisoblangan tilning ahamiyati g'oyatda muhimdir. Shuning uchun ham til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. «Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi».

Huquqiy soha va yurisprudensiya amaliyotda tilga katta ehtiyoj sezadigan yo'nalish hisoblanadi. Bu, ayniqsa, keyingi o'n yillikda alohida ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyoti va rivojlanishining yangi bosqichida huquqiy-demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan bormoqda. Ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida qonun ustuvorligini ta'minlanishi asosiy vazifa qilib qo'yilmoqda.

Ustuvorlik ma'lum ma'noda bu qonunlar va ularning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarning mukammal bo'lishini taqozo qiladi. Bu mukammallik esa, o'z navbatida, ularni O'zbekiston xalqi va davlati manfaatini himoya qiluvchi huquqiy asos bilan birga, ularning til jihatdan ham puxta bo'lishni keltirib chiqaradi.

Mana shu ehtiyoj o'zbek tili rasmiy uslubi doirasida alohida bir til – yuridik tilni vujudga keltirdi. Ammo yuridik til qandaydir bir maxsus til emas. U ham o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi sanaladi. Ammo huquqshunoslik sohasida til vositalaridan foydalanishning shunday bir tizimi vujudga keldiki, bu o'z navbatida *yuridik til*, *huquqiy til* atamalarini keltirib chiqardi. *Huquq va til* tushunchalarining o'zaro bog'liq jihatlarini o'rganish masalalarini o'rtaga qo'ydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tili va uning rasmiy uslubi doirasida shakllangan yuridik til garchi umumtil va rasmiy me'yorlariga bo'ysunsa ham, ayni paytda, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlariga ega. Boshqacha aytganda, bu sohaning ko'p yillar davomida shakllangan o'z terminologik tizimi mavjud. Gap qurilishi ham rasmiy hujjatlarning boshqa turlaridan farqlanadi. Rasmiy uslubga xos bo'lgan aniqlik, qisqalik, mantiqiylik singari xususiyatlar unga ham tegishli bo'lsa-da, ularning har biri huquqiy hujjatlarda yana o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qat'iylik, o'ta aniqlik singari talablar til materialini tanlashga o'ta mas'uliyat bilan yondashishni taqozo qiladi.

O'zbek davlatchiligi tarixida huquqning mukammal tizimi yaratilgan. Bu haqda «Avesto», Burhoniddin Marg'inoniyning «Al hidoya» hamda «Temur tuzuklari» kabi manbalardan ko'plab ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, tariximizda musulmon huquqi bo'lgan. Uning asosiy manbalari Qur'on, sunna, ijmo, qiyos bo'lgan. Fiqh – musulmon huquqini, sunna – hadislar ko'rinishidagi huquqiy prinsiplarni, ijmo - qonunshunos olimlarning umumiy fikrlarini, qiyos – Qur'on va sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga qarab taqqos yo'li bilan sharhlashni o'zida mujassam etgan. Binobarin, ularning ham biri umumiy va o'ziga xos til va uslubda shakllangan.

Hozirdagi amalda bo'lgan yuridik til va uslubda ularning an'analari qisman mavjud bo'lsa-da, aslida tubdan farq qiladi. Chunki huquqiy manbalarning asosiy qismi dunyo miqyosida amal qilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, sud presedenti, huquqiy odat, huquqiy doktrina, jamoat va xalqaro tashkilotlarning me'yoriy aktlari va xalqaro shartnomalar ko'rinishidagi zamonaviy andozalarga moslashgan. Shundan kelib chiqib, yuristning huquqiy madaniyati, jumladan huquqiy-nutqiy madaniyati oldiga qo'yiladigan talablarni ham ana shu ikki jihatni mujassam qilgan an'anaviy va zamonaviy tajribalar umumlashmasi doirasida tushunishimiz to'g'ri bo'ladi.

Yuridik til madaniyatining shakllanishiga jamiyat rivoji bilan birgalikda yurisprudensiya va til taraqqiyoti ta'sir o'tkazadi. Chunki huquqiy hayotda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar eng avvalo tilda, binobarin yuridik matnlar tilida o'z aksini topadi. Qonunlar, farmonlar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa shakldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar uchun umumiy me'yorlar bo'lishi bilan birga, tildan foydalanishda o'z me'yorlari ham mavjud. Ularning har biri o'z shakli va mazmuniga ega. Shuning uchun ham o'zbek yuridik tilining amalda bo'lish xususiyatlarini rasmiy uslub doirasida taguslub (podstil) sifatida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xo'sh, huquq tilini qanday o'rganish va uni nimadan boshlash kerak? Bu savolga taniqli huquqshunos olimlar uni Konstitutsiya tilini o'rganishdan boshlash lozim deb, javob berishadi. «Konstitutsiya tili o'zining aniqligi, lo'ndaligi, ravonligi, bir ma'noliligi bilan farqlanib, yuridik til etaloni timsolidir. Konstitutsiya ustuvorligi prinsipidan kelib chiqib, boshqa qonunlarda qo'llash uchun Konstitutsiya matnida foydalangan atamalar tanlanishi kerak».

Ana shu fikrga amal qilinsa, yurisprudensiyada o'zbek tilidan foydalanishning yagona tizimi yaratiladi. Bu esa atamalarni qo'llashda, gap qurilishini shakllantirishda ma'lum darajada bir xillikka olib keladi.

Buning ustiga, yuridik tilga qo'yiladigan g'oyatda muhim bir talab mavjud. U hamma foydalana oladigan, tushunarli, ommaviy til bo'lishi lozim. Masalaning murakkabligi ham ana shunda. Huquqiy-me'yoriy hujjatlar matnidan bir vaqtning o'zida ham mukammallik, ham ommaviylikni da'vo qilishimiz uning yaratuvchilaridan qanchalik bilim va mahorat talab etishini ko'rsatadi.

Nutq madaniyati deyilganda faqat uning og'zaki shaklini tushunish kerak emas. Yozma nutq madaniyati bundan ham mas'uliyatlidir. Tilda barqarorlikni ta'min etadigan yozuvning huquqiy matnlar shakllanishi, an'anaviylik va turg'unlik mazmuni kasb etishida ahamiyati katta. Uning yordamida nafaqat matnlar keyingi davrga yetkaziladi, balki yozma ko'nikmalar ham shakllanadi. Umumxalq tili elementlaridan, yuridik terminologik tizimdan foydalanish yo'llari, fikrni qisqa jumalarda ifodalash usullari aynan ana shu yozma matn tufayli takomillashib boradi. U ma'lum ma'noda keyingi yoziladigan matnlar uchun namuna vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham yuridik yozma nutq madaniyatini takomillashtirish nutq madaniyati tizimida alohida mavqeyega ega.

Og'zaki yuridik nutq ham umumiy og'zaki nutq madaniyati talablariga bo'ysunsa-da, mas'uliyatning jiddiyligi bilan, huquqshunoslar tomonidan ijro etiladigan nutq inson taqdiriga bevosita aloqador bo'lishi bilan ajralib turadi. Nutqning ushbu turi asosan sud jarayonida hamda huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish davomida shakllanadi. Har ikkalasi ham mas'uliyat talab etadigan jarayon. Shu sababli huquqshunosning og'zaki nutqi oldiga ham qator talablar qo'yiladi.

Xullas, huquqshunoslik va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining mustaqillik davri bosqichida huquq va til muammolarini yaxlit holda olib qarab, ularning bir-biriga bog'liq tomonlarini o'rganish g'oyatda muhim vazifa sanaladi. Bu boradagi tadqiqotlar ikki fan o'rtasidagi yangi bir yo'nalishini vujudga keltirishi ham mumkin.

Shunday qilib, nutq madaniyatini puxta egallash, uni muomala jarayonida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish nafaqat huquqshunosga katta mas'uliyat yuklaydi, ayni paytda, unga obro' ham keltiradi. Bunga esa osonlik bilan erishib

bo'lmaydi. Til ilmini yaxshi bilish va uni amaliyotda mahorat bilan qo'llay olishgina ana shu obro'ning zarur sharti bo'lib qoladi.

TENG HUQUQLILIK VA GENDER TENGLIGI

N.Jurayeva

Samarqand viloyati yuridik texnikumi kadrlar bo'limi uslubchisi

Ijtimoiy tenglik - ijtimoiy holatidan qat'i nazar, insonning inson bilan teng huquqliligidir. Konstitutsiya va qonunlar ijtimoiy tenglikni huquqiy ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar", deb belgilangan.

Ushbu modda shaxsning (birinchi navbatda shaxs fuqarodir) mavqeini, tengligini ta'minlovchi asosiy huquqiy normadir. Shaxs tengligi bu erda qonun oldidagi tenglik asosida qaralmoqda. Har bir kishini qonun oldida tengligi adolat prinsipining o'zagidir.

Shaxsning qonun oldida tengligiga hech qanday holat (bu holatlar konstitutsiya normasida sanab o'tilgan) ta'sir qila olmaydi. Qonun oldida tenglik shaxsni huquq, erkinliklardan foydalanishda ham teng ekanligini, shuningdek burchlarni bajarishda ham tenglik bo'lishini nazarda tutadi.

Teng huquqlilik va faktik tenglikni chalkashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Insonlarning ijtimoiy hayotdagi faktik tengligi va tengsizligi ularning moddiy ahvoli, mashg'ulot turi, ongi, psixologiyasi va h.k.larga bog'liq bo'ladi.

Teng huquqlilik fuqarolarning huquq, erkinlik va majburiyatlarga bir xil hajmda ega bo'lishida namoyon bo'ladi; agarda cheklashlar joriy qilinsa, ular barchaga barobardir: huquq, erkinlik va majburiyatlarni bajarish kafolatlari - ham bir xil. Shu bilan birga, qonunchilikning alohida toifadagi shaxslarga: bolalar, nogironlar, faxriylarga nisbatan yuqori darajadagi e'tibori teng huquqlilik tamoyilining buzilishi bo'lmay, balki O'zbekiston davlati ijtimoiy tabiatining namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Inson huquqlari tizimida xotin-qizlar huquqlari alohida o'rin tutadi, ammo ayrim davlatlarda ayollar huquqlari muayyan umum e'tirof etilgan kafolatlarga qaramay, to'liq amalga oshirilmaydi.

Gender - bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir.

Gender tengligi – ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquq, mas'uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalardir. Gender tengligi faqat ayollarga taalluqli masala bo'lmasdan u, erkaklar huquq va majburiyatlarini ham anglatadi. Chunki jamiyat xar ikki jinsdan gender normalari va standartlariga muvofiq harakat qilishni kutadi. Tenglik ayollar va erkaklar bir xil bo'lib qolishini bildirmaydi. Lekin ularning huquqlari, mas'uliyati va tengligi o'zlari qiz yoki o'g'il bola bo'lib tug'ilganlariga bog'liqdir.

Bugungi kunda, xotin-qizlar huquqlari to'g'risida gap ketganda, shuni ta'kidlash kerakki, u ko'plab mamlakatlarda erkaklar va ayollar uchun siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida ularning jinsidan qat'i nazar o'z huquqlaridan bir xil foydalanishda teng sharoit va imkoniyatlar mavjud, qonuniy jihatdan muvozanatlashgan kategoriya hisoblanadi.

Xotin-qizlar huquqlarining universalligi va umume'tirof etilishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya, "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi konvensiya, "Ayollarga qarshi zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi"gi deklaratsiya, "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Evropa konvensiyasi kabi yirik xalqaro aktlar bilan mustahkamlangan. BMT Nizomida asosiy inson huquqlari, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmati, erkak va ayollarning teng huquqliligi belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitilmaslik prinsipini tasdiqlaydi va barcha odamlar erkin va qadr-qimmati va huquqlari bo'yicha teng ravishda tug'ilishlarini va har bir inson unda e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga hech qanday bir farqlarsiz, shu jumladan jinsga nisbatan farqlanmasdan ega ekanligini e'lon qiladi.

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar hayotning barcha sohalarida to'la huquqlarga ega bo'lib, ular Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, deb belgilangan.

Shuningdek, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil sentyabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me'yorda bo'lishiga erishish uchun qonunchilikning gender ekspertizasini o'tkazish majburiyligi belgilandi. Gender-huquqiy ekspertiza – bu normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqli yuzasidan tahlil qilish hisoblanadi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik hisoblanadi.

O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri – barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunni ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish. Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklarini, qattiq intizom bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi.

ILK O'SPIRINLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING AYRIM PSIXOLOGIK MASALALARI

Ismoyilova Nafisa Isroyilovna
Samarqand viloyati yuridik texnikumi, psixolog

Annotatsiya. Maqolada ilk o'spirinlarni kasbga yo'naltirishning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo ekanligi, bu ikki nuqtai nazar har doim bir – birini to'ldirib kelishligi, shuningdek, kasbga yo'naltirishning individual psixologik xususiyatlarining imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit sozlar: kasbga yo'naltirish, ijtimoiy muhit, psixologik ta'sir, "Men" tabiati, kasb tanlash, faoliyat, kasbiy motiv, kasb tasavvurlari, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy qobiliyat.

Kirish. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb – hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Kasbiy yo'nalganlik nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo hamdir. Bugungi kunda kasb tanlashga turli nuqtai nazarlar asosida qarash mumkin bo'lgan jarayondir.

Birinchi, yoshlarning biror-bir kasbga yo'naltirishda ijtimoiy muhitning roli asosiy omil sifatida qaralsa, ikkinchidan esa, individning o'z qiziqishlari va layoqatlari asosiy imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikki nuqtai nazar har doim bir – birini to'ldirib keladi.

Aynan ilk o'spirinlik davri hayotiy kelajagi, rejalarini tuzadigan, o'z kelajagini yaratishga qadam qo'ygan asosiy yosh bosqichi hisoblanadi.

Endigina o'sib kelayotgan o'spirin o'quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan, turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il – qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli, kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab yoki tavakkaliga ish tutadilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga o'z bo'ladilar. Natijada, noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarining ba'zilar kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar va o'zlarida biror bir maqsadga yo'nalgan g'oyalar mavjud emas. Aynan atrofdagi xatti – harakatlarning xuddi shunday ta'siri ularda biror bir kasbni tanlab, shu borada o'quv faoliyatini amalga oshirayotgan davrda o'zi tanlagan kasbkorlikka nisbatan ikkilanishlar, umidsizliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham yoshlarni kasb tanlashda pedagog va ota – onalardan ularning qobiliyatlari, layoqatiga qarab, ya'ni individual xususiyatlaridan kelib chiqib kasbga yo'naltira olishni talab qiladi. Bugungi fan texnika va ijtimoiy taraqqiyot davrida yoshlarni jamiyatni barpo etishda ishtirokini ta'minlash bugungi kun maktabini har qachongidan ham muhim vazifasidir.

Ma'lumki, kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni to'lishga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb – hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda “ Kasbim faxrim”, “Kasbim kelajagim dasturi” kabi mavzularda seminar - trening

mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb – hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish borasida asosan maktab psixologi faoliyat olib borib, o'quvchilarning avvalo, qaysi kasbga nisbatan qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash maqsadida diagnostikani o'tkazish va uning statistik tahlilini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Biz tadqiqotlarimiz davomida yoshlarning iqtidorining yo'nalganligini, faoliyat va kasb – hunar sohalarini aniqlash maqsadida rus psixologi E. A. Klimovning “ Professional – diagnostik so'rovnomasini” 8-9 –sinf o'quvchilardan iborat 60 ta sinaluvchilarda otkazdik. Sinaluvchilar guruhida o'tkazilgan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi.

Professional – diagnostik so'rovnomasi boyicha natijalar tahlilini jadval ko'rinishi

Sinaluvchilar	(T)-tabiat	(T)-texnika	(O)- odam	(B)-belgilar	(I)- ijodiy obraz
8 – 9-sinf	18,2%	23%	18,8%	22%	18%

Metodika bo'yicha natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasblarga nisbatan yo'nalganlik shkalasi ko'proq bizning sinaluvchilarimiz o'g'il bolalarni tashkil etganligi sababli texnika va belgili simvollar bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. O'quvchilarning ma'lum bir kasbni tanlashida ularning individual xususiyatlari ham asosiy o'rinni egallaydi. Xususan, o'quvchilarning xarakter va temperament tiplariga xos xususiyatlari kelesakda ular tanlagan kasbkorliklarida o'zini namoyon qilishlarida muhim rolni taqozo etadi.

Natija. Zero, atrofdagi yaqinlarini ko'magida tanlangan kasbga intilish davomida, o'quv faoliyati jarayonida ko'pchilik yoshlarda tanlangan kasbdan qoniqmaslik xissi paydo bo'ladi. Kasbga yo'naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash – hayot mazmuni haqidagi o'ylari va shaxsiy “Men” tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Katta yoshdagi maktab o'quvchilarida biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqish ham ortadi. Natijada qiziqqan faniga oid ma'lumotlarni o'qish, to'garak mashg'ulotlarida qatnashish tug'iladi. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, bu esa pedagog va ota – onalardan ham mas'uliyatlik bilan yondashish, teranlikni talab qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblarga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'spirinlarni yangi hayotga qadam bosayotgan, kelajagini yaratayotgan davrda ularga alohida e'tibor berishlikni, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbga yo'naltirishni talab etadi. Zero, o'spirinlar tanlagan kasblaridan kelajakda qoniqish hissini hosil qilishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Klimov E. A. Puti v professionalizm. – M.: Filinta, 2003.
2. Karimova V. M. Psixologiya.- T. : 2000.
3. Nishonova Z. T. , Alimbaeva M. V. Psixologik xizmat. –T.: Fan va texnologiya markazi, 2014.
4. G'oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2008

ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ҚУВУРЛАРИДА СУВ БОСИМИНИНГ БЕХУДА САРФИНИ ГИДРАВЛИК ҲИСОБИ

Ишанов Жавлон Хамидуллаевич

*докторант -Ирригация ва сув муаммолари
илмий тадқиқот институти. +998972641117*

Томчилатиб суғориш тизимларининг асосий элементларидан бири суғориладиган эгилувчан қувурлардир. Суғориш қувурлари билан сув кишлоқ хўжалик экинларига тақсимланади. Босимга нисбатан тўғри танланган қувур диаметрлари ишончли миқдорда суғоришда сув сарфини самарали тақсимлайди. Суғориш қувурини гидравлик ҳисоблашда қувур узунлиги бўйлаб босимнинг ўзгаришини ҳисобга олиш зарур. Томчилатиб суғориш тизимларининг суғориш қувурларида сув ҳаракати ўзгарувчан масса гидравликаси назариясига таълуқли. Қувурларда ўзгарувчан массали суюқлик ҳаракатини гидравлик ҳисоблаш соҳасида [4; 21-22-б.] ва бошқалар [11; 210-б] нинг илмий ишлари таҳлил қилинди.

[3; 4-б], [2; 1-б], [5; 24-б.], [4; 260-262-б], ва бошқалар. Бироқ, гидравлик босимни беҳуда сарфини ҳисоблашда суғориш суви концентрациясини ўзгаришини ҳисобга олмаган, ваҳоланки қувурлардаги босимнинг ўзгариши суюқликнинг ҳаракатида унинг гидравлик параметрларига таъсир қилади.

Босимнинг беҳуда сарфини ҳисоблаш Дарси-Вейсбах формуласи ёрдамида амалга оширилади[6; 1-б].

$$h_f = \lambda \frac{l \cdot V_H^2}{D \cdot 2g}, \quad (1.3.1)$$

бунда λ – гидравлик қаршилик коэффиценти:

l –кувур узунлиги, м

D - кувур диаметри, м

Амалиётда босимнинг беҳуда сарфини ҳисоблашда Williams-Hazen формуласидан фойдаланилади [1; 5-б.].

$$h_f = \frac{K \cdot V^{1,852} \cdot l}{C^{1,852} \cdot D^{1,167}}, \quad (1.3.2)$$

бунда K - эмпирик коэффицент $K= 0,0837$;

C - Шези коэффиценти.

Суғориш қувури узунлиги- L бўйича Δh босимнинг беҳуда босим h_f ни ҳисоблаш учун, Гиллепи қуйидаги формулани таклиф этган:

$$h_f = \left[1 - \left(1 - \frac{l}{L} \right)^{2,852} \right] \cdot \Delta h, \quad (1.3.3)$$

Сув оқимининг барқарор текис ҳаракатида босимнинг беҳуда сарфини қуйидаги формула билан аниқланиши мумкин[4; 30-б]:

$$h_f = i_f \cdot L \quad (1.3.4)$$

бунда i_f - гидравлик нишаблик қуйидаги ифода ёрдамида аниқланади:

$$i_f = \frac{Q_H^2}{K_H^2} \quad (1.3.5)$$

бунда Q_H - суғориш тармоғи бошидаги сув сарфи, м³/с;

K_H –сарф модули, м³/с

Суғориш қувурларида босимнинг беҳуда сарфини, қуйидаги формула билан аниқлашни тавсия этган [48; 21-б].

$$h_{bbs} = K_1 \cdot K_2 \cdot N \cdot \frac{L_i \cdot v^{2-m} (n_i \cdot q_K)^m}{g \cdot D^{3+m}}, \quad (1.3.6)$$

бунда K_1 -томизгичлар хусусияти ва уларни суғориш қувурига улаш усулини ҳисобга олган коэффицент (томизгичлари $K_1=1,0$; узлукли томизгичларида $K_1=0,95$);

K_2 -томизгичлари орасидаги масофа ўзгартиришида маҳаллий қаршилиқни инобатга олишда коэффициентни, қуйидаги формула билан ҳисобланади[48; 21-б];

$$K_2 = 1,06 - 0,02 l_k \quad (1.3.7)$$

l_k -томизгичлари орасидаги масофа, м

ν - сувнинг кинематик ёпишқоқлиги коэффициенти м²/с ;

n_i -қаралаётган қувур тармоғи қисмининг охиригача бўлган томизгичлари сони, дона;

q_k – томизгичлар сув сарфи;

m - суғориш қувурининг узунлигини инобатга олувчи параметр.

[8; 22-б] суғориш қувурларида босимнинг беҳуда сарфини аниқлаш учун қуйидаги ифодани таклиф қилган:

$$h_f = a(b - n) \frac{L_i \cdot v^{1,75}}{D^{1,25}}, \quad (1.3.8)$$

бу ерда; a ва b доимий ўлчамсиз коэффициентлар бўлиб, томизгичлар элементларининг қувур тармоғидаги сувнинг ҳаракатига таъсирини инобатга олувчи катталиқлар;

n -томизгичлари сони, дона.

Суғориш қувури узунлиги бўйича гидравлик қаршилиқ коэффициентини аниқлашда Блазиус формуласи [10; 170-б] дан фойдаланилади:

$$\lambda = \frac{0,3164}{Re^{0,25}}, \quad (1.3.9)$$

Ушбу ифода диаметри 16 мм бўлган суғориш қувурлари учун.

Тадқиқотлар [6; 6-б] суғориш эгилувчан қувурлари учун гидравлик қаршлиқ коэффициентини аниқлашда қуйидаги ифодани таклиф этишган:

$$\lambda = \frac{2,017}{Re^{0,20}}, \quad (1.3.11)$$

[7; 31-б.] да томчилатиб суғориш тизими қувурлари диаметри 0,016 м ва 0,020 м бўлганда λ , $Re=4 \cdot 10^3 - 16 \cdot 10^3$ бўлгани учун қуйидаги ифода таклиф қилинган:

$$\lambda = \frac{0,383}{Re^{0,268}}, \quad (1.3.12)$$

[9; 18-б] да томчилатиб суғориш тармоғи қувурлари учун диаметри 16 мм ва 20 мм бўлган боғлиқ равишда гидравлик ишқаланиш коэффициенти учун қуйидаги ифодани таклиф этган;

$$\lambda = \frac{2,08}{\text{Re}_H^{0,268}}, \quad (1.3.13)$$

[4; 69-б] да томизгичлар диаметри 20 мм бўлган томчилатиб суғориш тизимларининг қувурлари томизгичлар учун гидравлик қаршилик коэффициенти қуйидаги ифода билан аниқлашни таклиф этган:

$$\lambda = a \text{Re}^b, \quad (1.3.14)$$

ҳозирги кунда тажрибада кенг жорий этилаётган пластмас қувурлар учун а ва b қийматларини тажрибада аниқлаганлар.

Гидравлик қаршилик коэффициенти Рейнолдс сонига боғлиқлигини қувур диаметри турли бўлгандаги тажрибалари натижалари бошқа олимлар маълумотлари билан таққосланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Chamba, D., Zubelzu, S., & Juana, L. (2019). Determining hydraulic characteristics in laterals and drip irrigation systems. *Agricultural Water Management*, 226, 105791. <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2019.105791>
2. Shiri, J., Karimi, B., Karimi, N., Kazemi, M. H., & Karimi, S. (2020). Simulating wetting front dimensions of drip irrigation systems: Multi criteria assessment of soft computing models. *Journal of Hydrology*, 585, 124792. <https://doi.org/10.1016/j.jhydrol.2020.124792>.
3. Wang, J., Chen, R., Yang, T., Wei, T., & Wang, X. (2021). A computationally-efficient finite element method for the hydraulic analysis and design of subsurface drip irrigation subunits. *Journal of Hydrology*, 595, 125990. <https://doi.org/10.1016/j.jhydrol.2021.125990>.
4. Абдураимова. Д, Отахонов .М, Қорахонов.Ш., Жалилов. С Томчилатиб суғориш тизимининг гидравлик ҳисоби// "AGRO ILM" журнали-Тошкент. 2022 й. 1-сон и [79], 2022.
5. Кузнецов Е.В. Изменение гидравлических характеристик пластиковых трубопроводов систем капельного орошения под воздействием циркулирующей среды Абинского района. Сб. науч. тр. Краснодар. 2002.-415с.
6. Микитюк А. В. Кажаров В. М Шугай П. Ю. Гидравлический расчет поливного полиэтиленового трубопровода системы капельного

- орошения –КибирЛенинка (cyberleninka.ru). Кубанский государственный аграрный университет 2004 г.
7. Новиков А. Е., Ламскова М. И. Гидравлический расчет лент системы капельного орошения. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Волгоградский государственный аграрный университет» 2004. С. 29-33.
 8. Оросительные системы правила проектирования. ТКП 45-3.04-178-2009 Министерство архитектуры и строительства Республики Беларусь Минск 2010, 70 б.
 9. Шевел, В. Ф. А. Таблицы для гидравлического расчета стальных, чугунных, асбестоцементных, пластмассовых и стеклянных водопроводных труб. – 5-е изд. перераб. и доп. – М: Стройиздат, 1984. – 117 с
 10. Latipov K.Sh. , Arifjanov O.M. gidravlika va gidravlik mashinalar darslik., Toshkent - 2011., 332b.
 11. Хамидов А.А., Худайкулов С.И., Махмудов И.Э. «Гидромеханика» Тошкент. “ФАН” -2008, 436 б.

ТАУМ-MENEJMENT: O‘QISH VA ISHDA VAQTNI SAMARALI BOSHQARISH USULLARI

Safarova Umida

Samarqand viloyati yuridik texnikumi xodimi

Vaqt bu – pul. Bu ibora hech kim uchun yangilik emas va hammaga bolalikdan tanish. To‘g‘risi, vaqt puldan qimmatliroq va muhimroqdir.

Hozirgi davrga kelib vaqtni boshqarish yoki vaqtdan unumli foydalanishga e‘tibor kuchaydi. Zamonaviy huquqshunos timsolida uning oliy ma‘lumoti, kompyuter va Internet saytlaridan foydalana olishi, keng qamrovli bilimi yetarli emas. Bularga qo‘shimcha ravishda huquqshunos teran fikrli, uzoqni ko‘ra oladigan va qimmatli vaqtini tejay biladigan bo‘lishi zarur.

Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, vaqtni to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha shu soha mutaxassislari tomonidan yagona to‘xtamga kelgan yechim mavjud emas. Lekin umumiy tavsiya va qoidalar tizimi ishlab chiqilganki, ularni qo‘llash orqali yuristlar vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Zamonaviy dunyoda vaqtning qadriga yetish, o‘z maqsadi yo‘lida uni to‘g‘ri taqsimlash va asosiysi – vaqtni bo‘yicha belgilangan ishlar rejasini amalga oshirish

dolzarb masala hisoblanadi. Jamiyatda hamma kishilar ham vaqtni boshqarish ko'nikmasini o'zlashtirisha olmaydi. Shunday ko'nikmaga ega bo'lib, undan foydalanganlar esa muvaffaqiyatga erishadilar. Boshqacha qilib aytganda, vaqtni unumli boshqarish uchun aniq bir maqsad va o'z ustida ishlash lozim bo'ladi.

Ko'pgina kishilarda rejalashtirilgan ishlarga ulgurmaslik ishlarni keyinga surish bilan izohlanadi. Kerakli ishni orqaga surib, ya'ni hamma uchun zarur bo'lgan ishni bajarmasdan Telegram, WhatsApp, Facebook yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlarda behuda ishlash, televizor ko'rish va hokazo kishini chalg'itadigan narsalarga o'z vaqtini sarflash odatiy holga aylanib ulgurmoqda.

2. Vaqtni boshqarish ko'nikmasi va undan foydalanishning afzalliklari

Endi vaqtni boshqarish ko'nikmasining siz – bo'lg'usi huquqshunos uchun afzalliklari haqida to'xtalsak. Vaqtni boshqarish orqali, avvalo, ish samaradorligining o'sishiga erishiladi. Natijada, sizda boshqa shaxsiy ishlar, intellektual rivojlanish yoki hordiq uchun qo'shimcha vaqt paydo bo'ladi. Vaqtni doimiy boshqarish erishilayotgan samaradorlik oqibati sifatida muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Huquqshunos ish faoliyati va hayotida muvaffaqiyatga erishishi uchun, avvalo, o'zining hayotiy maqsadini belgilab olishi lozim. Chunki vaqtni boshqarish va undan foydalanishda maqsadga erishish mo'ljaliga qaratilgan e'tibor barcha harakatlarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda boshqaruv sohasida mashhur mutaxassis Stiven Kovining mashg'ulotlaridan birini eslash joiz. Bu mashg'ulotda u stol tagidan 5 litrli shaffof idishni oladi va mushtdek keladigan bir necha toshlarni oldiga qo'yib: «Nima deb o'ylaysiz, shu toshlardan nechitasi bu idishga sig'arkan?», deb so'raydi. Turli fikrlar aytilgach, idishga bir nechta toshni solib to'ldiradi. Keyin: «Endi idish to'ldimi?», deb so'raydi. Hamma unga tikilib: «Albatta», deyishadi. Shundan keyin idishga shag'al soladi. Stiven yana: «Endi idish to'ldimi?», deb so'raydi. Bu safar ham ular «Endi, shubhasiz, to'ldi», deb javob berishadi. «Yaxshi», deydi u va idishga qum to'kadi, tabiiyki, qum ham tezda tosh va shag'al oralariga singib ketadi. Stiven yana so'raydi: «Endi idish to'ldimi?» «Bu safar aniq to'ldi, endi unga hech narsa solib bo'lmaydi», deyishadi auditoriyada o'tirganlar. Instruktor idishga bir litr suvni ham quyadi. «Xo'sh, bularning hammasi nimani bildiradi?», deb so'raydi u nihoyat. Turli fikrlar aytiladi. «To'g'ri, hayotda doimo bo'shliq mavjud, uni to'ldirish uchun ishlash lozim bo'ladi, — deydi Kovi. — Bu tajribaning boshqa muhim jihati ham borki, agar men birinchi bo'lib katta toshlarni solmasam, idishda ularga joy qolmasdi». Hikoyada aytilgan mushtdek katta toshlar bizning katta hayotiy maqsadlarimiz. Biz avval ularni idishga joylamasak ko'zlagan maqsadimizga yeta olmay qolamiz.

3. Taym-menejment bo'yicha muhim tavsiyalar

1. Vaqtni doimiy ravishda rejalashtiring!

Rejalashtirish vaqtni qutqaradi. O'z hayotida muvaffaqiyatga erishganlar muayyan vaqtlarini rejalashtirishga sarflaydilar. Har kunlik reja tuzish samaradorlikni oshirish va vaqtni unumli boshqarishda zarur. Qoidaga ko'ra, oldindan to'g'ri tuzilgan reja past ko'rsatkichlarning oldini oladi. Hamma vaqt qog'oz qarshisida o'ylash va rejalashtirish lozim. Agar maqsad qog'ozga tushmasa, demak, u mavjud emas. Vazifalar ro'yxati – o'ziga xos xarita bo'lib, u sizning ko'zlangan maqsad sari yo'ldan adashib ketishingizga yo'l qo'ymaydi.

2. Rejalashtirgan ishlarni klassifikatsiyalang!

Eng muhimi – asosiysini aniqlash. Taym-menejmentning vazifasi – vaqtida eng asosiy ishni aniqlab olish. Ishlarni muhimligiga qarab joylashtirib olish mo'ljaldagi vazifalarni yanada yaxshiroq boshqarishga ko'maklashadi. Muhim vazifalarni aniqlab olganingizdan so'ng uning natijasini – bajarilgan yo bajarilmaganini baholang. Agar muhim vazifa o'z muddatida bajarilmasa, jiddiy oqibatni keltirib chiqaradi. Ishlarni joylashtirish uchun "ABVGD" usuli yaxshi yordam beradi. Bu rejalashtirishning eng oddiy yo'li bo'lib, o'zida ro'yxatdagi har bir vazifaning muhimligiga qarab darajalaydi.

3. Ishlarni belgilangan vaqtida amalga oshiring!

Bu majburiy samaradorlik qonuni. Vaqtni boshqarishning asosiy siri diqqatni jamlash va quvvatni aniq maqsadga yo'naltirish va ishlarni bajarishga muddat qo'yib, unga amal qilishdadir. Buning uchun eng birinchi navbatdagi masalani yeching va qolgan barchasini izchillik bilan amalga oshiring, ya'ni vazifalarni aniq bir davrda bajaring. Ishni o'lda-jo'lda tashlab ketib, unga yana va yana qaytish unumdorlikni 5 marta kamaytiradi.

4. "Yo'q" degan so'zni ishlating!

"Yo'q" degan so'z ko'p vaqt tejaydi. Shaxsiy vaqtni boshqarishda eng asosiy so'z – baodob aytilgan "yo'q" so'zidir. Bajarishingiz shart bo'lmagan talablarga nisbatan "yo'q" deyishni o'rganing. Xushmuomala bo'ling va shunday rad etingki, buyurgan kishi sizning uni emas, topshiriqni rad qilayotganingizni tushunsin.

Ish vaqtingiz va bo'sh vaqtni nimaga sarflayotganingizni nazorat qiling. Vaqtingizni yeb yuboradigan mashg'ulotlarni belgilang (masalan, hamkasblar bilan yangiliklar muhokamasi, televizor kanallarini maqsadsiz o'zgartirish yoki ijtimoiy tarmoq va Internet saytlaridagi behuda sayrlar). "Men endi hech qachon buni qilmayman" degan nom ostida shunday foydasiz mashg'ulotlarning reytingini tuzing va maqsadingizga yaqinlashtirmaydigan, biror naf keltirmaydigan ishlarni ular safiga qo'shing.

5. Oraliq vaqtdan foydalaning!

Har bir kishida har kuni oraliq vaqt bo'ladi. Undan o'z maqsadingiz yo'lida to'g'ri foydalanib ham sezilarli darajada ishlarni bajarishingiz mumkin. Shu vaqtda ham rejadagi ma'lum ishlarni amalga oshirib, vaqtdan anchagina yutish imkoniyatingiz bor. Buning uchun kunlik reja tuzayotganingizda oraliq vaqtda qanday ishlar qilishingizni belgilab oling. Shunda sizda asosiy strategik ahamiyatli vazifalaringizga ko'proq vaqt qoladi.

6. O'z vaqtida dam oling!

Yaxshi dam – mehnatga hamdam. Kech soat 23 dan so'ng uyquga ketishga odatlaning va 6-7 soat uyqudan so'ng tonggi 5-6 dan kechikmasdan uyg'onishga harakat qiling. Ertalabki badantarbiya bilan shug'ullaning. Bu sizga kun davomida kuch bag'ishlaydi va harakatlaringizning samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

7. Harakatlaringizni monitoring qiling!

Kun yakunida vaqtingizni qanday o'tkazganingizni tahlil qiling. Bu tahlil sizga bajargan ishlaringizdan ruhlanib motivatsiya olishingizga va harakatlaringizni baholashga yordam beradi. Shu bilan birga, qaerda va qanday xatolarga yo'l qo'yganligingizni aniqlab olishingiz mumkin. Oxir oqibat siz kelajak uchun yaxshi yordam beradigan shaxsiy xulosa va ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA AXBOROT KOMUNIKATSIYON TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Madjitova Jadra Abdumalikovna
Sergeli tumani 6-IDUM geografiya o'qituvchisi*

O'quv-tarbiya jarayonida bilim berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta'lim tajribalaridan maqsadli foydalanish – ta'limning sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o'rinli foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini yuqori darajada bo'lishiga imkon beradi.

Ta'limni rivojlantirishda pedagogik jamoa va o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining talab darajasida bo'lishi, mazmunan boyitishni ta'minlaydi. Xususan, ta'lim tizimida o'qitish jarayoni texnik vositalar, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish, ta'lim jarayoniga moslashtirish – bugungi kun talab laridan biridir. Bu esa o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishga, shuningdek o'rgatishda kam kuch, kam vaqt sarflab, o'qitish

vositalaridan samarali foydalanishga yo‘l ochadi. Ma’lumki, an’anaviy o‘qitish tizimida o‘qituvchi o‘quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya’ni yangi bilim olishda: axborotlarni uzatish va qayta ishlanmagan holatda o‘quvchidan qabul qilib olish kuzatilgan. Ya’ni dars jarayonida olingan bilim faollashuv pog‘onasiga ko‘tarilmagan.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qituvchi tomonidan bajariladigan muhim vazifa o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kelajak hayotida amalda qo‘llash yani kompetensiyaviy talim-tarbiya berishdan iborat. Biz pedagoglar har bir o‘quvchiga shaxs sifatida qarashimiz kerak. Sababi, maktab ostonasidan kirgan har bir o‘quvchi – ertangi kundagi jamiyat a’zosi, kelajak egasidir. Yosh avlodga sifatli talim-tarbiya berish uchun hozirgi taraqqiyot bosqichida olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va yangi texnologik o‘zgarishlar, talim tizimini yangi pog‘onaga ko‘tarish uchun talim sohasida eng maqbul usullarni qo‘llash ko‘zda tutilmoqda.

Talim tizimida geografiya fanining o‘rni beqiyosdir. Geografiya yer yuzasining tabiati, aholisi va xojalik faoliyatini o‘rganuvchi mukammal hamda navqiron fandır. Fanlar ichida geografiya fanidagidek ko‘plab malumotlarga va qo‘shimcha manbalarga boy fanni uchratish qiyin. Bugungi kunda xborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish geografiya ta’limida ham izchil amalga oshirilmoqda. Chunki, bu soha o‘quvchilarga murakkab ilmiy tushunchalarni izohlashda, biron-bir hududning aniq tasvirini ko‘rsatishda, turli interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazishda yengillik tug‘dirmoqda. O‘qituvchilar uchun dars otish jarayonida asosiy ko‘makchiga aylanganligini aytib o‘tish joizdir.

Geografiya darslarida maruza, og‘zaki bayon, tushuntirish orqali ko‘p samaraga erishib bo‘lmaydi. Biz oqituvchilar har bir darsda o‘quvchilarga yangi bilimlarni berishda lol qoldirishni unutmashimiz kerak. Zero, "donolikga intilish lol qolishdan boshlanadi". Har bir geografiya o‘qituvchisining o‘z darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni avvalo Microsoft - Word, Excel, Power Point dasturlaridan boshlashi zarur.

- Word dasturida o‘qituvchi kundalik dars rejasi va darsga taluqli bo‘lgan yozuv ishlarini bajarsa boladi.
- Excel dasturi murakkab hisoblanib, geografiya uchun ko‘p hizmat qilishi mumkin. Ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslaridagi jadval, chizma va diagrammalarni tayyorlashda ko‘p qulayliklarga ega.
- Power Point dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin.

Geografiya talimida "Google Earth" dasturi oqituvchining eng yaqin komakchisiga aylanishi zarur. Bu dastur sayyoramizning landshaftini va relyefini

asl hoida korsatish imkoniyatiga ega. Hatto kichik hududlarni ham yuqoridan ko'rish imkoniyati mavjud. Bunda albatta kompyuter internet tarmog'iga ulangan bolishi zarur.

"Pinnacle studio" videorolik tayyorlovchi dastur hisoblanadi. Malumki, geografiyaga taluqli videoroliklar ko'plab topiladi. Ammo u videoroliklarning barcha qismlari dars mavzusiga mos kelmaydi. Bunda biz ushbu dasturning imkoniyatlaridan foydalanib, kerakli, mavzuga mos joylarini olib va mikrofon orqali ovozlashtirgan holda o'quvchilarga namoyish etishimiz mumkin.

O'qituvchi darsga puxta tayyorgalik ko'rishi uchun wikipedia.org, ziyonet.uz, geografiya.uz kabi internet resurslarining o'rni katta. Bu saytlar orqali maktab geografiya talimining barcha mavzulariga mos qiziqarli va qimmatli malumotlarni topish mumkin. Shuningdek, google.com qidiruv tarmogidan foydalangan holda foto va videomanbalardn foydalanish yaxshi samara beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda har bir geografiya oqituvchisida...

- mavzuli xaritalar;

- mavzuli fotojamlanmalar;

- mavzuli videoroliklar bo'lsa va bu ma'lumotlarni interfaol dars o'tish usullari orqali hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirsa darslarda yuqori samaradorlikka erishadi.

Maktab geografiya talimini oqitishda har bir oqituvchi dars avvalida oz oldiga maqsad qoyib – darsdan song oz oldiga qoygan maqsadiga erishaolgan dars, eng yaxshi darsdir. O'qituvchi bo'lish katta masuliyatni, tinimsiz mehnatni, izlanish, ijodkorlikni va zamonaviy texnologiyalarni ozlashtirishni talab qiladi. Buyuk qomusiy bilimlar sohibi Aristotel «Sharaf va obro'ying yana ham oshishini istasang, ilmi hikmat o'rganishdan or-nomus qilma» degan edi. Maktab geografiya ta'limida mashaqqat va sharaf bilan yosh avlodlarga talim-tarbiya berishda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim muassasalarida kompyuterlardan samarali foydalanish qator tashkiliy-pedagogik ishlarni yechish bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baranskiy N.N. Metodika prepodavaniya ekonomicheskoy geografii /N.N. Baranskiy. – Moskva: Prosveshchenie, 1998.
2. Ishmuxammedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda inavvatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T. Iste'dod, 2008

3. M.E.Musayeva . G.T.Boymurodova “Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol metodlar”. Toshkent-2016
4. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat // Darslik. – Toshkent, 2012.
5. Narzullayevna A. D. Mechanisms of creating and using video lessons in geography //INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. – 2020. – T. 1. – С. 132-138.
6. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:roLk4NBRz8UC
7. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:eQOLeE2rZwMC
8. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:qjMakFHDy7sC
9. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
10. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
11. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА АДАБИЁТНИНГ АЛОҚАДОРЛИК ҚОНУНИЯТЛАРИ ТАЪЛИМ АМАЛИЁТИДАГИ ҲОЛАТИ

Шоймуротов Умиджон Қахрамон ўгли
Тошкент давлат педагогика университети
Кечки таълим бўлими ўқув ишлар бўйича декан муовини
+99897 262 70 06
umidshoh05@gmail.com

Таълим муассасалари фаолиятини самарали ташкил этиш, жамиятда ўқитувчи нифузини кўтариш, унинг сифатли амалий фаолият кўрсатиши учун шароит яратиш, моддий ва маънавий рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Санъат воқеликнинг ўзида ифодалаш услуби ва характери, мазмунига кўра ҳар хил турларга бўлинади. Санъатнинг энг ижобий ва муҳим хусусияти шундаки, у фандан фарқли ўлароқ воқеа ва ҳодисаларни тушунчаларда эмас, балки сезги ва ҳис билан идрок қилинадиган шаклларда, типик–бадий образларда ифодалайди. Тасвирий санъат жаҳон халқларининг ўтмиши, ҳозирги куни ва келажакдаги ҳаётини

ифода этувчи, шунингдек, табиат ва жамиятни тасвир этувчи ҳақиқий кўзгу бўлиб қолади. Биз ундан ўтмишни, бугунни ва келажакни кўрамиз.

Республикамиз маориф тизимида қилинаётган янги ислохотлар таълимтарбия жараёнининг ижтимоий-сиёсий, илмий-назарий, иқтисодий ҳамда ташкилий асоси бўлмиш “Таълим тўғрисидаги Қонун” [1] ва у билан боғлиқ меъёрий ҳужжатларни қайта кўриб чиқишни талаб қилмоқда. Таълим муассасалари фаолиятини самарали ташкил этиш, жамиятда ўқитувчи нифузини кўтариш, унинг сифатли амалий фаолият кўрсатиши учун шароит яратиш, моддий ва маънавий рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу ҳаракатларнинг барчаси кундалик таълим амалиётини аввало мазмун, шунингдек, шаклий жиҳатдан мукамаллаштириб, охир оқибат ўқувчиларнинг ахлоқий тарбияси, билим ва савиясида акс этмоғи керак. Мазкур вазифани адо этиш учун эса ҳар бир фан, предметнинг ўқитилишидаги жорий ҳолатни таҳлил қилиб, ютуқ ва камчиликларни аниқлаб олиш муҳим. Ана шу нуқтаи назардан мактабларимизда мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг айна пайтдаги ҳолатини ўрганиш, таҳлил қилиш муаммони ҳал этишнинг омили саналади десак, хато бўлмайди.

Жаҳонда ижтимоий тараққиёт парадигмасининг мафкурадан маданиятга ўзгариши, умуминсоний ва маданий кадриятлар тизимини қайта баҳолаш, шахснинг ўзини ўзи кадрлаши бугунги кунда маънавиятга, маънавий маданиятга, шахс тафаккурининг айнан, мантиқий ва бадий шакллариининг ривожланишига олиб келди. Натижада, кўпинча маълум бир қолипга солинган билимлар, тор ихтисослик кўникмалари ва қобилиятлари бугунги куннинг глобал муаммолари олдида етарли эмас, баъзан эса кучсиз бўлиб чиқди. Таълим ва амалиёт назариясида “қолган ҳамма нарса (ижодкорлик, ҳиссий-кадрият муносабатлари), ахлоқий ва бошқа эҳтиёжлар ҳамда қизиқишлар ўз-ўзидан пайдо бўлади, ривожланади” деб ҳисобланган. Бироқ, таълимнинг ижодий фаолиятга ва бадий тафаккур усулларига ўргатиш каби таркибий қисмларига эътибор бермаслик “Ҳаддан ташқари интеллектуалликка ва натижада-воситаларнинг мақсаддан, шахсий мақсаднинг устуворлиги билан тавсифланган технократик тафаккурнинг ҳукмронлигига олиб келади маъно ва инсон манфаатлари, технология инсоний кадриятлардан устундир”[5].

Бугунги кунда таълим ва тарбия жараёнида тафаккур, хусусан, бадий тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари иккинчи даражали эмас, балки асосий ўринлардан бирини эгаллаши кераклиги алоҳида эърибор қаратилмоқда [5].

Ижтимоий онг шаклларида бири–санъат–табиат ва жамиятда бўлган, бўлаётган ва бўладиган воқеа–ҳодисаларни бадиий тасвирларда ифодаданишидир. Санъат ўзида моддий оламнинг умумий ҳолатини ва ривожланишини акс эттириб, одамларга уни билдириришда муҳим восита бўлади ва уларни сиёсий, ахлоқий ва бадиий жиҳатдан тарбиялашнинг кудратли омили бўлиб хизмат қилади. Санъат воқеликнинг ўзида ифодалаш услуби ва характери, мазмунига кўра ҳар хил турларга бўлинади. Санъатнинг энг ижобий ва муҳим хусусияти шундаки, у фандан фарқли ўлароқ воқеа ва ҳодисаларни тушунчаларда эмас, балки сезги ва ҳис билан идрок қилинадиган шаклларда, типик–бадиий образларда ифодалади [3].

Адабиётлар

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.
2. Бекмиров Ч.Ж. Манзара жанрини тасвирий санъатдаги ўрни ва тарбиявий аҳамияти. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021
3. Орипов Б.Н. Тасвирий санъат ва уни уқитиш методикаси. // Тошкент – 2004й.
4. Норматов У., Каримов Б. Адабиётимиз фахри. // «Ўзбекистон» нашриёт, 2007. —328 б.+ 8 б.
5. Шоймуротов У.Қ. Талабаларда бадиий тафаккурни ривожлантириш долзарб муаммо сифатида. // “ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР:” 2022/1
6. Шоймуротов У.Қ. INFLUENCE OF ARTISTIC LITERATURE ON ARTISTIC THINKING ПРИКЛАДНЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА Институт управления и социально-экономического развития (Россия) Центр профессионального менеджмента" Академия бизнеса" (Россия) Центр поддержки научных исследований WORLDLY KNOWLEDGE (Узбекистан) 3 мая 2023
7. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:qjMakFHDy7sC
8. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:ufrVoPGSRksC
9. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
10. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ogr7wPkAAAAAJ&citation_for_view=Ogr7wPkAAAAAJ:WF5omc3nYNoC

**BIOLOGIYA TA'LIMIDA ELEKTRON AXBOROT TA'LIM
VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING HUQUQIY-
NAZARIY ASOSLARI***O'X.Asallayev**Termiz davlat universiteti**“Zoologiya” kafedrası o'qituvchisi*

Jahonda tabiiy fanlar ta'limi jarayonlariga kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligini zamonaviy pedagogik va elektron axborot ta'lim resurslari imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tabiiy fanlarni, jumladan biologiya fanini o'qitishda kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari, elektron axborot ta'lim muhitidan samarali foydalanish orqali talabalarning kreativ, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish hamda ta'limning nazariy-metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda biologiya ta'limining sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablariga moslashtirish va yuqori samaradorlikka erishish maqsadida bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni [1] ning Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo'nalishida “Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish” vazifasi alohida belgilab berilgan.

Shuningdek, Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; o'qitish usullarini takomillashtirish, o'qituvchilar hamda maktab ma'muriyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari bilan ta'minlash; ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatdbiq etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish» [2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarorida [3] “elektron o‘qitish bazasini yaratish, ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish; umumta’lim maktablarining barcha talabalarini kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko‘lamda o‘qitishni ta’minlash” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. Mazkur qarorda belgilab qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun zamonaviy texnika vositalariga asoslangan holda kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiiq etish davr talabiga aylangan. Biologiya ta’limida talabalarning o‘zlashtirish darajasini elektron axborot ta’lim vositalari asosida rivojlantirish uchun fan yuzasidan zamonaviy elektron ta’lim resurslarini yaratish zarur bo‘ladi. Buning uchun esa yaratishning quyidagi pedagogik va psixologik talablariga amal qilish lozim [4]:

1. Elektron ta’lim resurslarini taqdim etish nafaqat og‘zaki-mantiqiy, balki hissiy-idrok va kognitiv jarayonning vakillik darajalariga ham mos kelishi talab etiladi.
2. Elektron ta’lim resurslarining mazmuni ma’lum yoshdagi kontingentning tezkor va lingvistik tarkibiga, talabalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga yo‘naltirilishi kerak, ya’ni, ta’limni axborotlashtirish vositalari talabalarning bilim tizimi va uning til uslublarini hisobga olgan holda yaratilishi lozim. O‘quv materialining taqdimoti tinglovchilarning ma’lum yoshiga qarab aniq bo‘lishi, ammo bu juda oddiy bo‘lmasligi lozim. Chunki, e’tiborning pasayishiga olib kelishi mumkin.
3. Elektron ta’lim resurslari talabalarning tasviriy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi. Shuningdek, ma’lumot darajasiga qarab, axborotlashtirish vositalariga bo‘lgan aniq talablar oliy kasb-hunar ta’limi, yoshlar va kattalar uchun qo‘shimcha ta’lim hamda imkoniyati cheklangan talaba-yoshlarni o‘qitishning axborotlashtirish xususiyatlariga asoslanib, belgilanadi.

Pedagog-olim M.H.Lutfillayevning ta’kidlashicha elektron axborot ta’lim resurslari (EATR) keng ma’noda ob’ekt, jarayon, hodisalar to‘g‘risida ma’lumotlarni olish, to‘plash, qayta ishlash, uzatish vositalari va usullarining kombinatsiyasidan foydalanadigan jarayonni anglatadi. Bunda ta’lim oluvchiga vizual axborotli ma’lumotlarni qiziqarli ravishda taqdim etishga keng imkoniyatlar yaratadi [6].

Demak, biologiya ta’limini axborotlashtirish uchun yaratilgan elektron axborot ta’lim resurslari quyidagi bir nechta talablarga javob berishi kerak:

1. Tegishli axborotlashtirish vositalarining mazmuni va ishlash usullari ta’lim standartlari talablariga mos bo‘lishi.
2. Elektron axborot ta’lim resurslarining muammoli va tadqiqot vazifalari, intellektual o‘quv quyi tizimlaridan foydalanish imkoniyati.
3. Elektron axborot ta’lim resurslarni tegishli ma’lumotlarni qidirish, to‘plash, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish kabi ta’lim faoliyatining

avtomatlashtirilishini o'z ichiga olishi. 4. Nazorat vazifalarini bajarishda ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish. 5. Murakkab ob'ektlarning ishlashini taqlid qilish va modellashtirish vositalari, turli hodisalar va jarayonlarning real, tezlashtirilgan yoki sekinlashgan vaqt shkalalarida bo'lishi. 6. Elektron ta'lim resurslari talabalarni kelajakdagi virtual muhitda keyingi o'quv faoliyatiga tayyorlashi. 7. O'rganilayotgan ob'ektlar yoki jarayonlarning o'zgaruvchan qiymatlarini, ularning xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligini namoyish etish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda axborotlarning hajmi oshishi hamda globallashtirish jarayonlari kuchaygan bir davrda talabalarning biologiya fanidan bilim darajasini oshirishda elektron axborot ta'lim vositalaridan foydalanishi zamon talabi hisoblanadi. Bunda, biologiya fanidan beriladigan axborotlarni tizimlashtirish, masalaga majmualiy yondashgan holda inson va tabiat o'rtasidagi aloqalarni ochib berish amalga oshiriladi. Zero, ta'lim muassasasi o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo: "Nima uchun o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topishi, shuningdek, ta'lim-tarbiya xususiyatlari e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim [5].

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
3. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 fevraldagi 161-sonli Qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09/19/161/2600-son 25.02.2019 y.
4. Musataeva I. S. Metodika razrabotki i ispolzovaniya sredstv informatsionno-kommunikatsionnykh texnologiy dlya formirovaniya geometricheskoy kompetentnosti uchashixsya osnovnoy shkoly // Dissertatsiya. – Alma-Aty, 2008. –227 s.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod – 2008. 87 b.

SHARQ ALLOMALARINING FARZAD TARBIYASIDAGI QARASHLARI

Bobojonov Ulug`bek Yuldashboyevich

Urganch tuman "Sholikor" jom`e masjidi imom hatibi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq allomalarining farzand tarbiyasiga e`tibor qaratish lozim bo`lgan sifatlar yoritilgan. Shuningdek farzand tarbiyasida ota-onaning mas`uliyati haqida fikr boradi.

Kalit so`zlar: Tarbiya, ilm, ta`lim, ma`rifat, taraqqiyot, qobiliyat, yoshlik, bola.

Аннотация. В данной статье выделены качества, на которые следует обращать внимание в воспитании детей ученых Востока. Также обсуждается ответственность родителей в воспитании детей.

Ключевые слова: Образование, наука, образование, просвещение, развитие, способности, молодежь, ребенок.

Abstract. In this article, the qualities that should be paid attention to in the upbringing of children of the scholars of the East are highlighted. Also, the responsibility of parents in raising children is discussed.

Key words: Education, science, education, enlightenment, development, ability, youth, child.

Qadimdan solih insonlar farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratishgan. Chunki millatning taraqqiyoti yoki zavoli yoshlarning tarbiyasiga bog'liq deb qarashgan. Farzandni chiroyli tarbiyalash insonga berilgan eng katta baxt desak xato qilmagan bo`lamiz. Marifatparvar olimlar farzand tarbiyasi haqida ko`plab fikrlarni bildirishgan. Xususan, Abu Nasr Farobiy bilimidan ma`rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o`rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog` – salomatligi yaxshi bo`lsin, yaxshi ahloq va odobi bo`lsin, so`zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo`lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo`lsin, ilimli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to`g`risida bilimga ega bo`lsin». Bu fikrlardan Farobiyning ta`lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e`tibor berganligi ko`rinib turibdi, uning e`tiqodicha, bilim, ma`rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog`i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo`lib yetishmaydi.

Abu Ali Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro`zg`or tutish masalalari xususida ham so`z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O`z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo`lgan ota – ona tarbiyachi bo`lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muxim

vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir. Abu Ali Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning uqtirishicha insonni ta'lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni o'stirish mumkin. Koshifiy o'zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga aloxida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga aloxida axamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muxit muxim o'rin tutadi. Bola to'g'ri so'zli, vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota – onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to'xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashishi ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo'lmishoziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko'rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridanbiri Muslixiddin Sadi Sheroziy Sheroz shaxrida 1184 yilda tug'ildi. Sadining fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma'suliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak. Sadining pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'lishi mumkin. Qobiliyat o'z – o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga,

ya'ni oilaviy tarbiyaga kata e'tibor beradi. Sadi ota – onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta'sir etmaydi.

XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy xayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazimiy o'z asarlarida ma'rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalarini olg'a surdi. U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolatida tutgan o'rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini xam bayon etadi.

Komil Xorazimiyning fikricha ilm-xunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy xayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi. Shoir tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko'p erk bermaslikni maslaxat beradi. Uning ta'kidlashicha, ortqcha so'zmonlik kishi boshiga olin o'rniga qattiq tosh bo'lib tegishi mumkin. Shoir yomon so'zli, ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilarni jumladan yoshlarni ular bilan xamsuxbat bo'lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o'z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo'lishga, jaxolatdan yiroq turishga da'vat etadi, uning fikricha, adolat sharaf ko'rki, osoyishtali, xushnutlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo'lishga, ularni hurmat qilib e'zozlashga chorlaydi.

Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta'lim – tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir. Mohlar oyim Nodiraning inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an'analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari-adolat, insof, xalq manfaati muxim o'rinni egallaydi. Nodira xayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'ladi, o'zining bu ezgu ishlari bilan o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'laydi. Ta'lim – tarbiyaga oid ko'p foydali o'g'itlarni bayon etdi. Muxammad Rizo Ogahiy o'z ijodiy faoliyatini pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasi ham yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an'analimiz mexmondo'stlikni go'zal fazilatlardan biri hisoblaydi. Mehmonga chuqur xurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodidan o'z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallashga da'vat etdi. Ogahiyning ta'kidlashicha, insonga do'st va dushmani ajratib olish xayotda o'z o'rnini topib olishda g'oyat muximdir. Uning fikricha to'g'ri so'z kishilar xayotda qiyinchilik bilan yashasalarda, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar. Ogahiy

ta'lim-tarbiya ilmlarni egallash va tilni bilishda xam muxim axamiyatga molik ekanligini ta'kidlaydi. Muxammad Rizo Ogaxiy o'z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishga da'vat etdi. U do'stlikni mehmondo'stlikni axloqiy go'zallikni ulug'ladi. Insonlarni ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga chorlaydi. Ogahiyning bu fikr o'g'itlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir.

Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jaxon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan ulug' siymolardan biri Mirzo Ulug'bek. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da'vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta'minlashga ishondi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi Mirzo Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy xunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga aloxida axamiyat beradi. Ulug'bekning fikricha odam sog'lom va baquvvat bo'lishi uchun yoshlik chog'idayoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, ta'lim – tarbiyada poraxo'rlik, qalloblik bo'lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasi muhum hisoblanib, bunda ota-onaga katta mas'uliyat yuklaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining xaqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Petrov, V. D. „Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist.“ Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981
2. Xayrullayev M. M., Forobiy va uning falsafiy risolalari, T., 1963;
3. Mo'minov I. M., O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999;
4. Yakubova Sh. E “Pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga oid ma'naviy pedagogik merosning mazmun-mohiyati” ISSN 2181-6883. “Pedagogik mahorat” ilmiy nazariy metodik jurnal. 5 son. Oktabr. Buxoro – 2022

**INTERNATIONAL EXPERIENCE OF FINANCIAL LITERACY-THEMED
TELEVISION PROGRAMS**

Xushnoza MAHMUDOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi,
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqarma boshlig'i.
E-mail: xushnozamahmudova8@gmail.com
Tel: (99) 877 67 87

Annotation. This article analyzes various programs in the financial literacy and economic direction of foreign countries broadcast on television, TV shows on the topic of financial literacy on foreign TV channels, information boards, TV shows. The article also explores the television projects of international organizations, the role and influence of television programs in the process of increasing the financial literacy rate of the population, and the requirements for it.

Keywords: financial literacy, media, television, television programs, financial literacy shows and talk shows, financial product, TV audience, financial skills, financial skills, financial instruments, financial messages, financial knowledge.

Аннотация. В данной статье анализируются различные программы по финансовой грамотности и экономическому направлению зарубежных стран, транслируемые по телевидению, телепередачи на тему финансовой грамотности на зарубежных телеканалах, информационные щиты, телешоу. В статье также исследуются телевизионные проекты международных организаций, роль и влияние телевизионных программ в процессе повышения уровня финансовой грамотности населения, а также требования, предъявляемые к ней.

Ключевые слова: финансовая грамотность, СМИ, телевидение, телепрограммы, шоу и ток-шоу о финансовой грамотности, финансовый продукт, телеаудитория, финансовые навыки, financial skills, финансовые инструменты, финансовые сообщения, финансовые знания.

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning televideniye orqali efirga uzatilgan moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy yo'nalishdagi turli dasturlar, xorijiy telekanallardagi moliyaviy savodxonlik mazusidagi teleko'rsatuvlar, axborot lavhalari, teledasturlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada xalqaro tashkilotlarning televizion loyihalari, aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish jarayonida television dasturlarning o'rni va ta'siri, unga qo'yiladigan talablar ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, ommaviy axborot vositalari, televidenie, televizion dasturlar, moliyaviy savodxonlikka oid ko'rsatuvlar va tok-shoular, moliyaviy mahsulot, telekanallar auditoriyasi, moliyaviy ko'nikma, moliyaviy mahorat, moliyaviy instrumentlar, moliyaviy xabarlar, moliyaviy bilimlar.

Kirish. Mutaxassislar shaxs moliyaviy savodxonligini oshirishning eng oson yo'li bu - kerakli mavzudagi kitobni o'qish ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq bu mashg'ulot zamonaviy trendlar tobora o'zgarib borayotgan hozirgi davrda zerikarli bo'lib, unga ko'p vaqt ajratish talab etiladi. Bu borada ko'ngiochar, qiziqarli formatdagi hamda ta'lim berish funksiyasini o'zida birlashtirgan televidenie dasturlari yaxshi echim sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy savodxonlik teledarslari universitet talabalari va maktab o'quvchilari orasidan bir paytning o'zida millionlab tomoshabinni jalb qilish, davlatlarning ilmiy va moliyaviy ta'lim markazlarining bu zaminda yaqindan hamkorlik qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Millionlab tomoshabinlar iqtisodiy fanlardan chuqur bilim olish, moliyaviy bilimlar bo'yicha savodxonliklari darajasini oshirish va hatto moliyaviy yoki biznes yo'nalishlarida kasb o'rganishlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan bahramand bo'lishmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ushbu mavzudagi dastlabki tadqiqotlar materiallari 1998 yildan e'tiboran chop etila boshlandi. Iqtisodiyot jurnalistikasi, OAV va televizion loyihalarda moliyaviy savodxonlik masalalarining yoritilishi bilan bog'liq mavzular A. Levitt, R. Islam, U. Dankerli, B. O. Nelli, E. Zamvolt, M. Gatter, Dj. Bechmanb, O. Vixrova, A. V. Zelentsova, E. A. Bliskavka, D. Demidov tomonidan tadqiq etilgan.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining ommaviy axborot vositalari orqali amaliyotga joriy qilinishi kambag'allikni qisqartirish va unga qarshi kurashishning muhim mezonini ekanligi haqida mahalliy olimlar N.Jumayev, O.Do'stmuxammedov, A.Vaxobov, M.Obilov, D.Tajiboyeva kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'limni yaxshilash borasidagi televizion dasturlarni amalga oshirishning milliy va xalqaro tajribasini tahlil qilish orqali televideniyaning moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonidagi rolini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tanlab tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xalqaro tajribada moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lim dasturlarining televidenie orqali efirga uzatilishi turli mamlakatlarda turli vaqtlarda, aniqrog'i o'tgan asrning 60-70 yillaridan

boshlanganligini ko'rish mumkin. Xususan, bu borada 1967 yil AQShda "Bloomberg Television" telekanali tomonidan efirga uzatilgan "Wall Street Week" teledasturi tomonidan dastlabki qadam tashlangan⁶.

"Bloomberg Television" bu Amerika tijorat telekanali hisoblanib, asosiy shtab kvartirasi Nyu-Yorkda, Evropa bo'yicha esa Londonda va Osiyo bo'yicha Gonkongda joylashgan. Auditoriyasiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 310 million xonadonni qamrab oladi⁷.

"Bloomberg Wall Street Week" (WSW) - bu investisiya yangiliklari va axborot dasturi bo'lib, haftaning har juma kuni kechqurun efirga uzatilgan. Lui Rukeyzer boshlovchiligidagi ushbu haftalik shou Amerika Qo'shma Shtatlarida PBS kanali orqali har juma 1970 yilning 20 noyabridan boshlab 2005 yilgacha namoyish etildi. Dasturda boshlovchi yoki bir nechta boshlovchilar va moliyaviy bozorlar bilan bog'liq munozaralarda ishtirok etish uchun taklif qilingan mutaxassislar va ekspertlar ishtirok etadi.



Dastavval shouning rasmiy nomi "Wall Street Week Lui Rukeyzer bilan" deb nomlanib, (W\$W) u 32 yil davomida 1970 - 2002 yilgacha namoyish etilgan. 2002 yil iyun oyida esa dastur tubdan o'zgartirilib, "Wall Street Week Fortune bilan" deb nomlandi va unda Rukeyzer mezbonlik qilishda davom etdi. Ushbu investisiya dasturi "CNBC" da toki boshlovchi Lui Rukeyzer sog'ligi yomonlashgani tufayli ko'rsatuv boshlovchiligidan voz kechmagunga qadar ya'ni, 2004 yil 31 dekabrgacha davom etdi.

Aytish kerakki, moliyaviy savodxonlik dasturlarini qabul qiladigan va amalga oshiradigan mamlakatlar soni yil sayin ortib bormoqda. Xususan, 2007 yildayoq Evropada aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun 180 dan ortiq dasturlar mavjud edi⁸. E'tiborli jihati ushbu ta'lim dasturlarining aksariyati ommaviy axborot vositalari, jumladan televidenie bilan hamkorlikda tashkil etilib, amalga tadbiiq etilgan. Tajribada muvaffaqiyatli deya e'tirof etilgan milliy dasturlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstriyada, bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar orasida esa – Bolgariya, Sloveniya va Polshada ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilmoqda.

⁶ https://ru.wikibrief.org/wiki/Wall_Street_Week

⁷ https://ru.wikibrief.org/wiki/Bloomberg_Television

⁸ Habschick, Seidl, and Evers, 2007: Survey of Financial Literacy Schemes in the EU27 (EI ning 27 mamlakatida moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini ۇrganiш), VT Market Final Report, Evers Jung (EI Komissiyasi uchun tayёрlangan ۇisobot).

Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarining "Uproxx Studios" raqamli media kompaniyasining bosh muharriri va ijodiy strategi Dina Zipin tomonidan 2019 yil 25 iyun sanasida e'lon qilingan tomoshabinning biznes va moliya sohasidagi bilimlarini oshirishda eng yaxshi teledasturlar va televizion tok shoular ajratib ko'rsatilganligi e'tiborlidir⁹. Unga ko'ra auditoriyaning moliyaviy savodxonlik va moliyaviy bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu mintaqadagi eng ommabop va yuqori reytinga ega teleko'rsatuvlar qayd etilgan.

Dastur nomi va telekanali	Ko'rsatuvning moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonidagi o'ziga xosligi	Formati va Internet manzili
"Mad Money with Jim Cramer", "CNBC" telekanali	Ko'rsatuvning asosiy maqsadi odamlarga yaxshi investor bo'lishga yordam berishdir. Dastur boshlovchisi jim Kremer bo'lib, u tomoshabin uchun moliyaviy bilimlar borasidagi qimmatli ma'lumotlar bilan bo'lishadi.	Tok-shou https://www.nbc.com/mad-money
"Squawk Box" "CNBC" telekanali	Ertalabki yangiliklar dasturi bo'lib, asosan investisiya qilishni o'rgatishga qaratilgan. Biznes va siyosatdagi yirik nomlar haqidagi hikoyalari bilan o'rtoqlashadi va tushuncha beradi.	Suhbat https://www.cnbc.com/squawk-box-us/
"Your Money", CNN telekanali	CNN telekanali har shanba kuni erfazir esterga uzatiladi. Kristin Romantica Janob Boslovchilik Kildi va bir haftalik moliyaviy Yangiliklar Xoxidova tanlovda ishtirok etish Saxarija aholisiga ta'sir qilishi mumkinligi haqida fikr bildirdi. Tomoshabin bu orkali kaisi xarajatlari oshganligini, kaisilari kamaishin bilib oladi.	Tok-shou https://www.cnbc.com/primetime-shows/
"Shark Tank" ABC telekanali	Hammasi tadbirkorlik haqida. Ko'rsatuvda biznes vakillari va tadbirkorlar o'z mahsulotlarini haqiqiy hayotdagi investorlarga, ya'ni "akulalar"ga sotishlari kerak. Agar "akulalar" mahsulotga ishonsa, ular o'z pullarini sarmoya sifatida kiritadilar.	Tok-shou https://abc.com/shows/shark-tank
"Money Matters", "RLTV" kabel tarmog'i	Dastur boshlovchisi Djin Chaski bo'lib, u "NBC" ning "Today shows" televizion dasturi, "Dayli Beast" va "Newsweek" kabi nufuzli jurnallardagi moliyaviy mavzulardagi maqolalar muallifi hisoblanadi. Ko'rsatuv asosan 50 yoshdan yuqori bo'lgan auditoriya uchun mo'ljallangan.	Tok-shou www.rl.tv .
"Charlie Rose", "PBS" telekanali	Bir qarashda an'anaviy moliyaviy shouga o'xshamaydi, balki iqtisodiyot va dunyo moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot olish uchun ajoyib manbadir. Charli Rouzning mashhur shousida usta suhbatdosh kino yulduzlari, davlat rahbarlari, mualliflar va moliya ekspertlari bilan suhbatlashadi.	Tok-shou https://charlierose.com/
"Suze Orman",	Ko'rsatuvga Syuz Orman boshlovchilik qiladi. Bu	Tok-shou

⁹ <https://www.investopedia.com/articles/investing/083115/8-best-business-and-finance-tv-shows.asp>

"CNBC" telekanali	dastur 14 yildan so'ng 2015 yil yozida o'z yakuniga etib, CNBC telekanalida "pullar uchun jang" nomi ostida qayta efirga qaytgan. Bu dastur do'st va yaqinlar, oilalar va qarindoshlarga pul bilan bog'liq nizolarni hal qilishda yordam beradigan yangi kundalik shoudir.	https://www.cnbc.com/suze-orman-show-full-show/
"The Profit", "CNBC" telekanali	Ko'rsatuvni multimillioner Markus Lemonis olib boradi. Biznesni endigina boshlash niyatida bo'lgan yoki pullarini ko'paytirish payida bo'lgan tomoshabin uchun ushbu dastur ayni muddao.	Tok-shou https://www.cnbc.com/primetime-shows/

AQSh dagi top-8 talikka kiruvchi moliyaviy savodxonlikka oid teleko'rsatuvlar.

Amerika Qo'shma Shtatlarida moliyaviy savodxonlik mavzusidagi teledasturlar va tok shoularning muayyan bir sonini keltirish qiyin, lekin bu ko'rsatuvlar asosan davr va tomoshabinlar talabiga ko'ra faoliyatiga yakun yasashi yoki ommaviylik va muntazamlilik kasb etishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik teledasturlari orasida eng ko'p auditoriyaga ega ko'rsatuvlardan "Mad Money with Jim Cramer" ("jim Kremer bilan aqlbovar qilmas pul"), "The Suze Orman Show" ("Syuz Orman shousi"), "Shark Tank" ("akulalar"), "The Dave Ramsey Show" ("dev Ramsey shousi"), "Money Talks News" ("gapiruvchi pullar xabarlar") kabilarni misol tarzida keltirish mumkin. Bundan tashqari "CNBC", "Bloomberg TV" va "Fox Business Network" kabi ko'plab telekanallar muntazam ravishda moliyaviy savodxonlikka oid tok-shou va ko'rsatuvlarni namoyish etishadi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan teledasturlar va telekanallar misolini Evropa mintaqasida ham ko'plab keltirish mumkin. Masalan, "CNBC Europe" telekanali moliya va iqtisod haqidagi yangiliklar va tahlillarni taqdim etadi¹⁰. Jumladan telekanaldagi "Business Day", "Marketing. Media. Money", "Viewer connect" ruknlari orqali namoyish etiladigan "Capital connection", "Squawk Box", "Street Signs", "CNBC Meets", "Worldwide Exchange", "Squawkon the street", "Power lunch", "Closing Bell" kabi tok shou va dasturlari moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy bilimlarni oshirishda g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

"Bloomberg TV Europe" esa dunyoda yuz berayotgan moliya, biznes va iqtisodiyot haqidagi so'ngi yangiliklar va tahlillarni taqdim etadi. Ushbu xalqaro biznes va moliyaga ixtisoslashgan telekanal orqali "Europe BTv - Live TV", "Bloomberg Businessweek", "U.S. Live Event - Live TV", "Justice", "Small Business", "Bloomberg Technology - Live TV" kabi tarmoqlari orqali namoyish

¹⁰ <https://www.cnbc.com/europe-television/>

etiladigan jonli efirlar orqali to'g'ridan to'g'ri reportaj va ekspertlar bilan suhbatlar efirga uzatiladi.

So'ngi yillarda Afrika mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligi va moliyaviy ta'limini yaxshilashga yordam beradigan televizion dasturlarga qiziqish ortib bormoqda. Ta'kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasi ushbu qit'a aholisi uchun juda dolzarb va muhim bo'lgani xolda moliyaviy savodxonlik darajasi Afrikaning hamma davlatlarida birdek shakllanmagan. Ushbu mavzuga bag'ishlangan eng mashhur televizion dasturlardan "Money Matters with Nimi"¹¹, "My Money and Me"¹², "Personal Finance with Samke Mhlongo"¹³, "CNBC Africa"¹⁴, "Bloomberg TV Africa"¹⁵ kabilarni eng ommaviy ko'rsatuvlar sifatida qayd etish mumkin. Ushbu televizion dasturlarning umumiy xarakteri shundaki, ular afrikalik tomoshabinlarga moliyani qanday boshqarish, byudjetni rejalashtirish, aksiyalarga va boshqa moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish, shuningdek, moliyaviy firibgarlik va aldanish xavfidan o'zini himoya qilish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Shu orqali televizion dasturlar aholiga moliyaviy savodxonlikning muhimligini tushunishga va ko'proq to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishni o'rganishga yordam beradi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ta'lim va televizion dasturlarning xalqaro tajribasini tahlil qilish natijasida aytish mumkinki, turli mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga yordam beradigan har xil formatdagi televizion dasturlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular investisiya asoslari, qarz va kreditlarni boshqarish, moliyaviy iste'mol bozori va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, fond bozorlarida to'g'ri harakat qila olish, sarmoya kiritish va uni ko'paytirish kabi mavzularga qaratilgan. Bundan tashqari, Amerika va Evropa mintaqalarida ba'zi televizion dasturlar bolalar, o'spirinlar, talabalar yoki qariyalar kabi aholining ayrim guruhlariga qaratilgan bo'lib, ularni aholining yoshiga va auditoriyasiga qarab tasniflash mumkin. Umuman olganda, televizion dasturlar moliyaviy savodxonlikni oshirish va odamlarga moliyaviy maqsadlariga tezroq va to'g'ri usulda erishishda yordam berish uchun foydali vositadir.

Televideniada moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilishga asoslangan xulosalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

¹¹ <https://www.moneymatterswithnimi.com/?fbclid=IwAR3505DN5fnifMribdU9UAcrclCHMhCXx5r1iGrCXqPv4Whf vP98hjdJmU>

¹² <https://tvfinternational.com/programme/24023/my-money-and-me?trailer=1>

¹³ <https://sheleadsafrica.org/masterclasswithsamke/>

¹⁴ <https://www.cnbcfricaf.com/live/>

¹⁵ <https://www.bloombergmmedia.com/press/bloomberg-expands-local-tv-coverage-in-africa/>

1. Televizion moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lim dasturlari aholining, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

2. Dasturlarning sifati yuqori bo'lishi va ular samarali bo'lishi uchun auditoriya ehtiyojlarini inobatga olishi maqsadga muvofiq.

3. Teledasturlar keng auditoriyaga, shu jumladan turli darajadagi ma'lumot va daromadga ega odamlarga ham birdek tushunarli, oson tilda efirga uzatilishi kerak.

4. Telekanallar, davlat tashkilotlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik yanada samarali dasturlarni yaratishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. https://ru.wikibrief.org/wiki/Wall_Street_Week
2. https://ru.wikibrief.org/wiki/Bloomberg_Television
3. Habschick, Seidl, and Evers, 2007: Survey of Financial Literacy Schemes in the EU27 (EI ning 27 mamlakatida moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini yurganish), VT Market Final Report, Evers Jung (EI Komissiyasi uchun tayyorlangan hisobot).
4. <https://www.investopedia.com/articles/investing/083115/8-best-business-and-finance-tv-shows.asp>
5. <https://www.cnbc.com/europe-television/>
6. <https://www.moneymatterswithnini.com/?fbclid=IwAR3505DN5fnifMribdU9UAcreLCHMhCXxj5r1iGrCXqPv4WhfvP98hjdJmU>
7. <https://tvfinternational.com/programme/24023/my-money-and-me?trailer=1>
8. <https://sheleadsafrica.org/masterclasswithsamke/>
9. <https://www.cnbc africa.com/live/>
10. <https://www.bloombergmedia.com/press/bloomberg-expands-local-tv-coverage-in-africa/>

**ФУТУВВАТ ВА ТАСАВВУФ: ШАХСНИНГ РУҲИЙ ҲАЁТДАГИ
ЖАРАЁНЛАР**

Раббимова Феруза Шамсиддиновна

Самарқанд давлат чет тиллар институти

мустақил тадқиқотчиси

rabbimovaferuza75@gmail.com

Аннотация. Мақолада футувват ва тасаввуф таълимотининг моҳияти, хусусиятлари ва умумий сифатлари, инсондаги шахснинг руҳий ҳаётдаги жараёнлар масалалари баён қилинган.

Калит сўзлар: ислом, тасаввуф, футувват, инсонийлик, маънавий-руҳий восита, Илоҳий ҳақиқат.

XI асрга келиб тасаввуф ва тариқатнинг бу даврида ўзига хос фалсафаси юзага келди. Мазкур жараён, ўз навбатида, турли ижтимоий гуруҳларга ҳам таъсир кўрсатди. Фалсафий монизм нуқтаи назаридан туриб, оламни бирлиги эътироф этиладиган бўлса (сўфийлар идеалист бўлган ҳолда шу нуқтаи назарда туришган), равшан бўладикки, табиат ва жамиятдаги, шунингдек, умумий диалектик қонунларга бўйсунди. Футувват вакиллари ушбу руҳий ҳолат, яъни микрокосмос сифатида ўз-ўзини билиш билан шуғулланганлар ва шу билан баробар бутун оламни, яъни макрокосмосмосни ҳам англай оламиз деб ўйлаганлар.

Футувват вакиллари юракни ақлдан устун қўядилар, сўфийлар ўз-ўзини англаб кузатиш асосида ишлаб чиққан “қалб фани”дан футувват вакиллари анча орқада бўлган. Бироқ юракдан англаш завқи табиийликка суянар эди, унинг замирида рамзга, мажозийликка мойиллик бор, мажозийлик эса санъат иқлими. Тариқат бир мафкуравий оқим сифатида бошиданок шеърят билан ажралмас бўлиб бирикиб яшади. Бунинг натижаси улароқ, Ансорий, Санойй, Фаридиддин Атторнинг мажозий йўналишдаги панд-насиҳат дostonлари юзага келди[1]. Ҳунарга, ерга, ватанга муҳаббат футувват учун ишқ йўлидаги босқичлар эди. Жавонмардлар инсонга муҳаббат қўйиш билан ўз моҳиятига, умуман инсонийлик моҳиятига етишга интиланлар.

Ўз-ўзини идрок этиш ва камолга етказиш йўлининг биринчи шарт - шариат, яъни Қуръон ва Муҳаммад пайғамбар ривоятларида акс этган қонун-қоидаларни бажариш даври, тайёргарлик босқичи, ислом қонун - қоидаларини ўзлаштирган тақдирдагина тариқатга ўтиш мумкин. Шариат сўфийларнинг мантикий билимларига тўғри келади. Сўфийлар мантикий билимларни рад этмаган ҳолда, уни маҳдуд-чекланган деб қарашади ва у фақат аломатлар, хоссалар, хусусиятларни илғайди деб билишади, жавҳари

зотга эмас, сифатга боқадди, бинобарин, унинг маҳсули ҳақиқат эмас. Мантиқий билим бутунни бўлақларга бўлиш билан, таҳлил билан рўёбга чиқади. Илоҳий ҳақиқат эса ўз моҳиятининг мутлоқ бўлиши билан таҳлилга йўл қўймайди, уни мантиқий йўсинда идрок этиш мумкин эмас.

Тариқат вакиллари ақлий мушоҳада ортида тағин бир мушоҳада бор, деб ҳисоблаб, уни илми ғайб деб аташади. Фақат илми ғайб воситасида асрор очилади. Ташқи туйғулар воситасида мантиқий қонунларни билиб бўлмаганидек, илми ғайб очадиган нарсаларни мантиқ очолмайди деб билганлар. Таниқли олим Э.Е.Бертельснинг таъкидлашича, сўфий - шайхлар аслида экстериментал психология билан шуғулланишган. Ўз-ўзини қатъий чеклаш-муракаба ва ўз-ўзини кузатиш-муҳосаба йўли билан мақсадга муттасил интилиш орқали улар ўзларида букилмас ирода, ўлимга ҳам тик кулиб боқувчи сифатларни, бошқаларнинг “ўй-хаёлини ўқий олиш”, ўзида ва ўзгаларда руҳий ҳолатларни юзага келтириш малакасини тарбиялашган, [2] деб баҳолайди. Ҳақиқат сари элтувчи йўл тўхтамақом тимсолини келтириб чиқарган, уларнинг ҳар бири йўлнинг шу босқичида йўловчига хос бўлган барқарор бир руҳий ҳолатни акс этиради.

Йўл бошида биринчи мақом-“тавба” саналиб, руҳий ҳолат йўналишини тамом ўзгартиради, йўлга кирувчини энди бутун фикри фақат ҳақиқатга, мутлоққа қаратилади.

“Тавба” мақомидан сўнг “вара” - ҳушёрлик мақоми келиб, у ҳаром билан ҳалолни қатъиян ажрата билишда намоён бўлган. Ҳушёрликдан ўзини тийиш, яъни “зуҳуд” га ўтилади. “Зухуд” йўлчини “фақир” мақомига етаклайди. Фақирлик ва ўзини тия билишдан сўнг “сабр” мақоми келади. Бу ерда сўфий машаққатларга чидашга ўрганади. „Сабр” мақомидан “таваккул” мақомига қараб йўл олади. Сўнгги икки мақом тариқатнинг охириги манзили “ризо” га бошлайди, бу “толе олдида хотиржамлик” деб ҳам аталади. Бу шундай руҳий ҳолатки, “ҳар нечук зарба ва ҳар қандай зафар хотиржамлик билан қарши олинади.”

Бинобарин, Устани ўз ҳунарининг яширин асрорини англашга ундади, бинобарин, у ишлов беришнинг усул ва воситаларини эгаллаб олиши лозим бўлди, яъни модданинг яширин асрорини эгаллаш жараёни уста учун ўз-ўзини англаш жараёни билан уйғунлашиб кетди.

Маҳорат чўққисини эгаллаш тушунчаси каби воҳид ва мутлоқ ҳақиқатни билиш ҳам нисбийдир. Зиддиятларни орадан кўтаришга, яъни мутлоқ ҳақиқатни билишга интилиш, ўз моҳиятига кўра, кузатувчини кузатиш билан, англовчини англонувчи билан битта деб қараш футувватнинг ўзига хос хусусиятларидандир.

Мажозий тафаккур тизимининг моддий олам қонуниятларини билишга интилиши ақл бовар қилмас натижаларга олиб келади.

Тасаввуф олимларининг фикрича, шу ерда тариқат тугаб, камолга этишишнинг сўнгги босқичи-“ҳақиқат”, яъни ҳақиқий ҳаёт бошланади. Шунга етган сўфий “ориф”деб аталади.Аслини олганда, сўфийлар ҳақиқат босқичида ўз руҳий ҳолатларини шундай даражага етказадик, уларнинг онги мушоҳада объекти билан қоришиб кетади.

Футувват вакиллари қарашларида илм билан ахлоқ, ақл билан туйғу, ҳақ-ҳақиқат, ҳақ-адолат ўртасида алоқадорликнинг таҳлилини кўриш мумкин.

“Тариқатга ўтиш махсус кенг билимларга эга бўлишни талаб этарди. Ғайришуурий ҳодисаларни ўрганишда ҳиссий ҳаёт ва тариқат йўлини ҳамма ҳам охирига етиб бормаган. Сўфийлар “Насиба ҳаммага баробар берилади, аммо ҳар ким қурби етганича олади”, – деганлар.

Ягона йўл- тариқатга ўтиш оқибатида турлича табиатлар юзага чиқади. Бу ўринда, албатта, давр, муҳит, сўфий ва унинг устозига хос хусусиятлар, интилишлар ҳам акс этади.

Тасаввуф таълимотига биноан, Илоҳнинг ўзи ғайб, киши кўзига кўринмайди, зотнинг асл жавҳарларини билишга ҳеч ким муяссар бўлган эмас, аммо унинг “дийдор”-юзи, кўриниши, яъни қандай бўлиб жилоланиши, аёнлашуви орқали Унинг сирларидан воқиф бўлиш мумкин.

Жомийнинг “Нафоҳат ул-унс” асарида келтирилган Шайх Абдураззоқ Кошаний ва Шайх Рукниддин Аловиддин орасидаги баҳсда Кошаний борликдаги ҳар бир ашё-нақш, шу ашёни яратганнинг нақши-сурати:денгиз тўлқини янги бўлиб туйилгани билан аслида эски денгизни ўзидир, деган маънода тавҳид назариясини ҳимоя этса, Рукниддин унга эътироз билдириб, Ибнал Арабийнинг таблари зарарли экани, шайхларнинг ҳол маҳоли беҳудлигида айтган хатларини жиддий фикр сифатида қабул қилмаслик тўғрисида гапиради” [3].

Инсон ўзини таниш йўлида руҳий покланиши ва ўзликни англаш футувватнинг асосий хусусиятларидандир. Тасаввуфдаги ҳаққа эришиш учун олиб борувчи 4 босқич: шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат футувватда битта сўз тариқат билан ифодаланади. Иккаласини бир маънога боғлаб турган нарса инсоннинг ўз-ўзини англаши ва камолотга эришишга бўлган интилиши ҳисобланади. Шу ўринда футувват устозлари ва тасаввуф шайхларининг фикрларини келтириш ўринли. Имом Динор айтади: “Амолларнинг энг севимлиси ихлосдир”... “Қалбдан чиққан сўз қалбга таъсир этади” [4].

Фузайл Аваз айтади: “Футувват қардошларни авф этмоқдир”, “Ҳақиқий маънодаги таваккул улуғ Оллоҳдан бошқасидан кўркмаслик ва умид қилмасликдир”.

Зуну Мисрий айтади: “Баданни сиҳати оз емакда, руҳнинг сиҳати оз гуноҳ этмактадур”. “Хужжат ва баёнга оид маърифатда ҳақимлар ва уламолар туради”. “Вахдат сифатига оид маърифат Оллоҳнинг валиларига оид маърифатдир”.

Жаҳл Абдуллай айтади: “Футувват суннатга тобе бўлмоқдир”.

Аҳмад Ҳадравардий айтади: “Фуқарога ҳизмат этмоқ уч шаклда икром этилур: тавозе, гўзал одоб ва жавонмардлик”.

Жаҳл Абдуллоҳ айтади: “Нафси ўлмаган қалб асло тирилмас”. (Фаруддин Аттор “Тазкиратул фавлиё”)

References

1. Ислом энциклопедия. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2017. - Б.504-505.
2. Бертельс Е.Э. - Избранные труды.Том 3.Суфизм и суфийская литература.-1965 // https://vk.com/doc-123642573_444424713
3. Комилов Н. Инсон ҳақида тўрт рисола.-Тошкент: Маънавият,1997. - Б.177.
4. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний, Ахлоқий муҳсиний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – 376 б.
5. Фаруддин Аттор.Тазкиратул фавлиё / нашрга тайёр. ва сўзбоши муаллифи А.Мадраимов, ўзбек тилига айлантирувчилар М.Ҳасаний, Ҳ.Аминов, А.Ҳасаний, А.Мадраимов. — Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 464 б.
6. Шодиев Р. Т. Суфизм в духовной жизни Средней Азии (IX-XII вв)[Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries)] //Автореф. Докторской диссертации. – 1993.
7. Шодиев Р. Т. Критический анализ нравственных норм среднеазиатского суфизма. – 1983.
8. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.
9. Alikulov X., Naqqulov N. Q. Духовная зрелость и философское мышление зависимость развития //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 164-167.

MASOFAVIY TA'LIMDA MILLIY PLATFORMALAR YARATISHNING DOLZARBLIGI

Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada jahon masofaviy ta'lim tajribasini o'rganish, shuningdek, masofaviy ta'limda milliy platformani yaratish imkoniyatlari, masofaviy ta'lim doirasida mukammal dars o'ta olish ko'nikmasiga ega pedagoglar jamoasining imkoniyatlaridan masofaviy ta'limda ham foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim islohatlari, ta'lim oluvchi, masofaviy va an'anaviy ta'lim, masofaviy milliy ta'lim platformasi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida masofaviy ta'limning ulushi sezilarli hisoblanib, bu jarayonda elektron platformalarning o'рни va ahamiyatini alohida e'tirof etib o'tishimiz o'rinli hisoblanadi. Albatta, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, amalda foydalanilayotgan elektron platformalarning maqsad va foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib farqlanishi tabiiy. Masofaviy ta'lim platformasini yaratish uchun shu davrga qadar masofaviy ta'limda til o'rgatish metodologiyasiga oid erishilgan ilmiy pedagogik va ilmiy texnologik yutuqlar umumiy tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitida dastlabki tajriba-sinov bosqichlaridan o'tkazilishi hamda yagona milliy platforma shakliga keltirilishi lozim.

Masofaviy ta'lim platformalarini yaratishda quyidagi ilmiy xulosa va mulohozalarga tayanish mumkin bo'ladi:

Dunyodagi globalashuv, axborot-kommunikatsion va kompyuter texnologiyalari sohasidagi yutuqlar masofadan ta'lim olish uchun katta qulayliklarni yaratmoqda. Covid-19 pandemiyasiga qadar bir maromda rivojlanib kelgan masofaviy ta'lim ayni shu omil sabab yanada jadallashib ketdi. Innovatsion texnologiyalar yordamida virtual ta'limda yuqori samaraga erishish masalasi dunyo pedagog olimlari va axborot texnologiyalari mutaxassislari oldidagi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Bu esa MTni rivojlantirish uchun jahon ilm-fani bilan hamohang tarzda taraqqiy etish, ular bilan tajriba almashshinuv dunyo aholisi uchun asosiy mumomala tiliga aylangan ingliz tili singari xorijiy tillarni qulay, tez va samarali tarzda o'zlashtirib, uni amaliyotda qo'llash vazifasi kabi zaruriyatni keltirib chiqardi;

Masofaviy ta'lim ilmiy-texnika taraqqiyotining pedagogika sohasidagi ko'rinishi bo'lib, rivojlanayotgan va zamon bilan hamnafaslikda taraqqiy etishni maqsad qilgan davlat borki, Masofaviy ta'lim bilan hisoblashishga, bu borada o'z

milliy-ana'naviy ta'lim tajribasini unga moslashga to'g'ri keladi. Bir so'z bilan aytganda, ta'limning masofaviy shakliga bugun bo'lmasa, ertaga, albatta o'tishimiz shart. Mazkur jihatni teran anglab, masofaviy ta'lim borasidagi tajribalarni jadallashtirish, ushbu sohaning samardorlik ko'rsatkichlarini ilmiy tahlilga olish, an'anaviy ta'limda erishilgan ilmiy yutuqlarimizni masofaviy ta'lim ga joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqishimiz bugunning zarurati ekanligi ayon bo'ldi;

Masofaviy ta'limni tashkil etayotgan ta'lim muassasalari o'zida an'anaviy ta'limning ko'plab xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uni telekommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirmoqda. Ya'ni oldingi ma'ruzalar endi texnologiyalar yordamida o'quvchilarga taqdim etilmoqda. Bu yerda ham oldingidek auditoriya bor, biroq uning ishtirokchilari vizual emas, balki virtual holda ta'lim olishadi. Mazkur virtuallikni saqlagan holda ta'lim berish masofaviy ta'lim ning asosini tashkil etadi. Yuqoridagi vositalar vaqt va makon, o'qitiladigan fan va mavzuning mazmuni, dars mashg'ulotlarini tashkil etishda qatnashgan telekommunikatsiya texnologiyalarining turi va ishtirokiga qarab qator tur va turkumlarga bo'linadi. Bularning hammasi masofaviy ta'limning obektini tashkil qiladi.

Bugungi kunda ta'lim berishga ixtisoslashgan platformalarning soni 200 dan ortiq ekanligi ma'lum. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha katta tajribaga ega mamlakatlarda foydalanalinaldigan ta'lim platformalarini tadqiq etib, turli ijtimoiy so'rovlarni o'rganib chiqib, platformalarni o'rganish obyektiga jalb qildik. Ushbu platformalarning o'z mohiyatiga quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) maxsus kurslarni o'zida jamlagan masofaviy ta'lim platformalar (MKO'JMTP);
- b) muayyan ta'lim muassasi bazasidagi masofaviy ta'lim platformalari (MTMBMTP);
- c) yordamchi masofaviy ta'lim platformalar (YMTM). Ushbu bo'linish, MT platformalariga qo'yiladigan talablarning oydin-lashtirish imkonini beradi.

Ma'lumki, masofaviy ta'lim olish jarayonidagi tinglovchilar oldida auditoriya muhiti bo'lmasligi, u shakllantirilgan hollarda ham, an'anaviy ta'limning barcha komponentlari – raqobitbardoshlilik, faol muloqot, psixo-pedagogik ta'sir va boshqa shu kabi pedagogik ta'sir vositalari to'la his etilmasligi mumkin. Bu esa ta'lim manbalari yaratuvchilari zimmasiga qator mas'uliyatlarni yuklaydi. Ana'naviy ta'limdagi darsliklarda aksariyat ko'p o'rinlarda ilmiy axborot berilishiga urg'u beriladi. Hozirgi kunda masofaviy va an'anaviy ta'lim jarayonida darsliklar masalasi unifikatsiya qilinmagan. Asosan, har ikki ta'lim shaklida ham bir xil adabiyotlardan foydalanilib, aksar hollarda ularni farqlovchi jihat masofa, ta'lim texnologiyasi muayyan platforma va masofaviy aloqani ta'minlab beruvchi

axborot-kommunikatsiyalari bilan bog'liq bo'lmoqda. Mazkur jihat masofadan ta'lim oluvchilar uchun maxsus adabiyotlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatib berdi.

Bugungi kunda jahon miqyosida masofadan ta'lim berishga ixtisoslashgan 200 dan ortiq ta'lim platformalari bor. Ular masofaviy ta'lim borasidagi rivojlanish XX asr o'rtalaridan boshlab muayyan tipda shakllana boshlagan. Ya'ni bizning oldimizda yarim asrlik tajriba bor. Undan unumli foydalanish, masofaviy ta'limda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik, e'tirof etilgan yutuqlarni qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda yaratilayotgan milliy platformamizga belgilangan tartib-me'zonlar asosida tadbiiq eta olishimiz vaqtdan yutishga, qo'yilgan marraga deysinshlarsiz yetib olishning imkonini beradi. Bu esa eksperimental tadqiqotlarni jadallashtirish muhimligini ko'rsatib berdi;

Ta'limning masofaviy shaklida kitoblar va kutubxona bilan ishlash ham katta qulaylikni yuzaga keltiradi. Bilamizki, katta kutubxona kitoblari barmoqdekkin xotira saqlagichga joy bo'lmoqda. Ma'lumotlarni izlash, kataloglashtirish oldingidek kitob javonlari oldida soatlab vaqt o'tkazishning oldini olmoqda. Kompyuterdagi birgina "izlash" buyrug'ining o'zi kutubxonadagi soatlab besamar ketgan vaqtni iqtisod qilish imkonini bermoqda.

Masofaviy ta'limda tahsil olish ta'lim oluvchining nafaqat til va fanning boshqa tarmoqlaridagi bilimi oshishiga hissa qo'shishi barobarida, ularning zamonaviy axborot texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirmoqda. Elektron darsliklar yordamida tahsil olgan o'quvchi o'z bilimlarini elektron tarzda yetkazib bera olish malakasiga ham ega bo'la boradi, bu esa uning kelgusi hayotdagi bilimlarini elektron tarzda namoyish etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Natijada erishilgan bilimlarning ommalashuv jarayoni ham soddalashadi. Mazkur jihatlar ham masofaviy ta'lim keltiradigan zarur ilmiy jihatlardan biri ekanligi oydinlashmoqda.

O'zbekistonda mavjud masofaviy ta'lim platformalarning aksariyati xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda tadbiiq etilganligi, xorijiy tillarni masofaviy tarzda o'rgatadigan maxsus milliy platforma shu kunga qadar mavjud emasligi, bu nafaqat ilmiy, balki milliy jihatdan ham bizni yana bir pog'ona yuksaltirishi, Vatanimiz nomini masofaviy ta'lim bo'yicha ham jahonga tanitishi mumkin. Masalaning ushbu tomoniga e'tibor berilib, jahon masofaviy ta'lim tajribasi o'rganilganligi holda masofaviy ta'lim bilan faol muloqot qila oladigan, masofaviy ta'lim doirasida mukammal dars o'ta olish ko'nikmasiga ega pedagoglar jamoasining imkoniyatlaridan masofaviy ta'limda ham foydalanish ta'limning ushbu shakli taraqqiyotini tezlashtirishi aniqlandi.

Ma'lumki, har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining masofaviy ta'lim tizimidagi e-learning va m-learning tizimiga ega bo'lib, aynan yagona, milliy platforma yaratish zarurati bugungi kun oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunday platforma sodda va foydalanish interfeys bilan birgalikda, milliylik ham ko'zga tashlanishi, xavfsizlik choralari ko'rilganligiga katta e'tibor qaratilishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, platformaning milliy ko'rinishdagi sodda interfeysi va jahon miqyosida o'zini oqlagan xavfsizlik tizimlari hisobga olingan holda yaratilishi, shaxsiy ma'lumotlar himoya qilinishi asosiy o'rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида НИЗОМ” ВМ- 559-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/6221502#6224216>
2. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА В ОБЩЕСТВЕ // Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
3. Yuldasheva S. The Main Directions of the Organization of Production Processes at Industrial Enterprises in the Digital Economy // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-194.
4. Karimova N. M. et al. Pedagogical Conditions for Students to use Critical Thinking in the Development of Interethnic Communication // Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – Т. 10. – №. 2S. – С. 4211-4219.
5. Yuldasheva S. Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher // International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET). – 2021.
6. Makhmudovna M. M., Saloyevich J. S., Tashkulovna Y. S. Fostering tolerance among future primary school teachers through pedagogical communication. – 2021.
7. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари // Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2017. – Т. 2. – №. 3. – С. 64.
8. Махмудова М. ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ // УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал. – 2017.
9. KARIMOVA N. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛАН ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА

- ТЕМПЕРАМЕНТ ХУСУСИЯТЛАРИ //Хорижий тилларни ўрганишнинг психологик-педагогик омиллари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – 2018.
10. KARIMOVA N. PRINCIPLES TO DEVELOP THE LITERACY OF INTERNATIONAL COMMUNICATION CULTURE IN STUDENTS //ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ ВЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUZ. – 2022.
 11. Utkirovna J. N. POSSIBILITIES OF USE OF FOLK PEDAGOGY IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND PERSONAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 10. – С. 66-69.
 12. JAMALOVA N. Pedagogical Conditions for the Development of Individual-Personal Characteristics of Students of a Higher Educational Institution //PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT (PJCLE). – 2022.
 13. UTKIROVNA J. N. Pedagogical Innovation and Integration in the Educational Process of Primary Education //JournalNX. – Т. 6. – №. 09. – С. 250-253.
 14. Нурмуратов А. Я. МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИМКОНИЯТ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2023. – Т. 6. – №. 1.
 15. Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich. (2022). MASOFAVIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(1), 219–222. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5910183>
 16. Аллаярова С. Н., Сайитова У. Ҳ. Қ. МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ: МАЗМУНИ, ИМКОНИЯТЛАРИ ВА КАМЧИЛИКЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 930-936.
 17. Bekbutaevna V. M. IMPROVEMENT OF INNOVATIVE MECHANISMS OF THE ORGANIZATION OF SOCIAL EDUCATION IN FAMILIES //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 36-39.
 18. Аликулов С. А., Ризаев И. И. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.

**КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК КАЧЕСТВЕННАЯ
И ЭФФЕКТИВНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ КОНЦЕПЦИЯ**

Арысланбаева Анора Бердаховна

Нукусский государственный педагогический институт

им. Аженияза ассистент преподаватель кафедры

Общей педагогики и психологии

В основе современного образовательного процесса лежат новейшие достижения и разработки в сфере социологии, педагогики, психологии, философии, культурологи и многих других научных дисциплин. Очевидно, что качественная и эффективная образовательная концепция должна учитывать текущий уровень развития национального образования, культурные и духовные особенности нации, а также классические образовательные традиции и инновационные технологии в сфере обучения.

По мнению И.Ю.Гац, предпосылками скорейшей модернизации существующих сегодня методик преподавания русского языка, применяемых на всех образовательных уровнях, являются:

интенсивное влияние частных, глобальных, социальных, экономических и политических факторов на существующие психологопедагогические образовательные концепции;

возникновение принципиально новой медиальной культуры, инновационных форм передачи, хранения, обработки и восприятия больших массивов данных, возросшая роль коммуникаций в современном обществе;

формирование у носителей языка новейших социальных потребностей, реализация которых предусматривает скорейшую адаптацию личности в современном коммуникативно-информационном пространстве .

В последние годы все большую актуальность приобретает такое направление лингвистического образования учащихся 1-4 классов, как над предметная ориентация курса родного языка, что в свою очередь позволяет исследователям говорить о существовании необходимости в скорейшем обновлении и модернизации содержания лингвистического образования, повышения его качества и эффективности.

В целом, мы можем говорить о том, что в настоящее время в полном и кардинальном обновлении нуждается абсолютно вся методическая система подготовки учителей начальных классов. На наш взгляд она должна выстраиваться в соответствии с новейшими образовательными технологиями, приемами, методами и ориентирами не только в обучении младших школьников, но и в целом, на всех этапах образования.

Концепция коммуникативной подготовки будущих учителей начальных классов начального образования в виде теоретической и методической целостной системы, направленной на формирование у них высокого уровня коммуникативной компетентности, отвечающей реалиям и потребностям инновационного образовательного пространства. Использование данной концепции требует изучения, анализа, полного и всестороннего осмысления таких базовых понятий, как: профессиональная компетентность, коммуникативной компетентность, лингвистическая компетенция, методическая деятельность, структура коммуникативной компетентности.

Литература

1. Давлетшин М.Г. Модульная технология обучения. - Т: ТГПУ, 2000.
2. Дейкина, А.Д. Методические и организационные основы вузовских форм обучения на современном этапе развития высшей школы / А.Д. Дейкина // Вузовские фо
3. Гац, И.Ю. Модернизация обучения школьников русскому языку: лингвометодическая стратегия в современной языковой ситуации: автореф. дис д-ра пед. наук: 13.00.02 / И.Ю. Гац. - М., 2011. - 43 с.

CONTROVERSIAL POINTS RELATING TO THE CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Gaybullayeva Dildora Fayzulla kizi
PhD student of UzSWLU

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologizmlarni ta'riflash va tasniflashga oid yondoshuvlar hamda ularga berilgan ayrim mulohazali fikrlar yoritilgan. Shuningdek, unda olimlarning nazariyalari misollar asosida tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, semantik, funksional, kontekstual yondoshuv.

Annotation. This article devoted to some disputable points concerning with the approaches of classifying phraseological units and defining the term. Furthermore, it presents some examples to help understand the given ideas of scholars.

Key words: phraseology, phraseologism, semantic, functional, contextual approach.

Аннотация. В данной статье описаны подходы к определению и классификации фразеологизмов и некоторые критические мысли, высказанные по этому поводу. Также на примерах объясняются теории учёных.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, семантический, функциональный, контекстуальный подход.

Phraseological units (idioms) are the elements of the phraseological layer of the language that is constantly enriched with new phraseological units and reflects the cultural-historical experience of the people, as well as the laws of historical development of a specific language. It has been repeatedly pointed out that word-groups viewed as functionally and semantically inseparable units are traditionally regarded as the subject matter of phraseology. It should be noted, however, that no proper scientific investigation of English phraseology has been attempted until quite recently. As it is known, the classification of phraseological units based on three approaches: semantic, functional and contextual.

According to the semantic classification, “phraseological units are habitually defined as non-motivated word-groups that cannot be freely made up in speech but are reproduced as ready-made units.” [4]. This definition proceeds from the assumption that the essential features of phraseological units are stability of the lexical components and lack of motivation. He divided phraseologies of Russian into three groups: phraseological fusions, phraseological unities and phraseological collocations. [3] Many linguists from various schools of thought have harshly criticized the existing concept of phraseological units as highly idiomatic word groups that are replicated as ready-made units rather than being freely formed up in speech.

Firstly, the definition sounds inadequate as the concept ready-made units seems to be a bit unclear. Actually, this term can be applied to a variety of diverse linguistic phenomena ranging from word-groups to sentences (e.g. proverbs, sayings) and also quotations from poems, novels or scientific treatises all of which can be described as ready-made units. [1]

Secondly, as the criteria of identity is proven to be a poor indicator for separating phraseological units from other word-groups, frequent discussions have also led to questions about this approach to phraseology from a strictly semantic point of view. It can be difficult to distinguish between idiomatic and non-idiomatic word groups. This is demonstrated by the fact that different linguists regard the same word groups differently, with some treating them as free word groups and others as idiomatic phrases. Let’s observe the examples using the dictionaries “The Advanced Learner’s Dictionary” by A. Hornby, E. Gatenby, H. Wakefield and “The Universal English Dictionary” by H. Wyld According to these sources, word-groups such as “take the chair” (preside at a meeting), “take one’s chance” (trust to luck or fortune), take trouble (to make efforts) and others are marked as free word-groups illustrating one of the meanings of the verb “to take”

or the nouns combined with this verb. However, in some of the English dictionaries they are found as idioms or phrases.

The functional approach is another viewpoint on the phraseology issue which can pose many questions. According to this method, “phraseological units can be described as specific word groups that serve as word equivalents. Thusly interpreted, the primary characteristics of phraseological units are their semantic and grammatical inseparability, which are seen as characteristics that set them apart from isolated words”. [2]

As one might recall, when we contrast a free word group, “heavy weight” with a phraseological unit, “heavy father” we find that each member word in the free word group has a distinct denotational meaning. The combined lexical meaning of the word-group's constituents can thus be used to accurately characterize the word-group's lexical meaning. However, in the case of the phraseological unit, the denotational meaning is a single, semantically integral part of the word group. The individual member-words don't appear to have any additional lexical meanings beyond the group's meaning. When considered separately, the meanings of the component “heavy” and “father” have nothing to do with the meaning of the phrase "heavy father" (serious or solemn part in a theatrical play).

The debatable point in this approach is given as follows “The criterion of function is regarded as not quite reliable when used with a view to singling out phraseological units from among other more or less idiomatic word-groups. The same word-groups may function in some utterances as an inseparable group and in others as a separable group with each component performing its own syntactic function”. [1]

In Modern English, phraseological units are also conducted from a contextual approach by the scholar N.N.Amosova. It is proposed that phraseological units should be defined through particular forms of context, working under the premise that individual meanings of polysemantic terms can be observed in particular contexts and may be viewed as depending on those contexts. Free word-groups make up variable contexts, whereas phraseological units must have a fixed or non-variable context as their main characteristics. [5]

However, the critical perspective to this approach is “non-variability of context does not necessarily imply specialized meaning of the component or the components of the word-group. In some cases, complete stability of the lexical components is found in word-groups including words of a narrow or specific range of lexical valency”. [1]

To sum up, phraseology is a newly-formed, independent branch of linguistics and its object, phraseological units are being defined according to several approaches which are being criticized by many scholars. We assume that these controversial points can be summed up with the exact criteria of classifying phraseologies.

The list of used literature

1. R.S.Ginzburg et el. A Course in Modern English Lexicology. Second Edition. Revised And Enlarged. Moscow Vysšaja Škola. 1979. C 269.
2. A.I.Smirnitskiy. English lexicology. Moscow: MSU., 1998. p 260.
3. V.V. Vinogradov. Lexicology and lexicography. Selected works. Moscow: Nauka, 1977
4. V.V. Vinogradov. Russian language. The grammatical doctrine of the word. Uchpedgiz. L., 1947
5. N.N. Amosova. Fundamentals of English phraseology. Publishing house of the Leningrad University., 1963. - 208 p.

QURILISHGA OID TRMINLARNING YASALISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gafurova Nozima Ikramovna
Farg'ona davlat universiteti ingliz tili
o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamoning kundan kunga rivojlanishi qurilish sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayabti. Qurilish sohasi ham rivojlanar ekan terminlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu maqola terminlarga va ularning komponentlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: qurilish, termin, tarkib, komponent, matn, instruktsiya, terminosistema.

Terminlar yasalishida ingliz, rus va o'zbek tillarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ma'lumki, har qaysi tilning so'z yasalish tizimi ajralib turadi. Masalan, ingliz tilida aksariyat so'zlar konversiya usulida yasaladi: earth – to earth. Ingliz tilida konversiya usulida vujudga kelgan so'zlar talaygina, chunki so'z yasalishning bu turi ingliz tilida unumdor hisoblanadi. Odatda konversiya usuli orqali ot so'z turkumiga taalluqli so'zlar fe'l so'z turkumiga, fe'l turkumli so'zlar ot turkumli so'zlarga aylanishi mumkin. Hozirgi davrda konversiya so'z yasalish turi keng miqyosda ifodalanadi, ya'ni nafaqat ot fe'lga yoki fe'l otga, balki sifat, bog'lovchi, predloglar ham ot so'z turkumiga o'tishi kuzatiladi, masalan: cool – to cool (salqin –sovutmoq). Rus va o'zbek tillarida konversiya so'z yasalish usuli orqali shakllangan so'zlar qurilish sohasida uchramadi. Bularni rus va o'zbek

tillariga tarjima qilishida odatda biz affiksatsiya soʻz yasash usulidan keng foydalandik.

Aralashma soʻzlar (blending) ingliz tilida koʻp uchraydi. Lekin rus tili ham aralashma soʻzlardan xoli emas, masalan: элеткроснабжение – электрическое снабжение. Aralashma soʻzlarda ikkita soʻz birlashganda ikki yoki bitta soʻzdan yarim boʻgʻini olib tashlanadi. Qolgan boʻgʻinlar esa bir biri biriga qoʻshilib bitta yangi soʻz hosil qiladi. Oʻzbek tilida qurilish sohasida bunday soʻzlarni uchratish mumkin, lekin ushbu soʻzlar rus tilidan kalka yoki transliteratsiya usuli orqali kiritiladi. Ushbu misol orqali biz kalka tarjima usulidan foydalanib электроснабжение soʻzini oʻzbek tiliga elektr taʼminoti deb bermoqdamiz. Rus tilida aralashma soʻzi oʻzbek tilida ikkita soʻz orqali ifoda etilmoqda. Kalka tarjima usuli doimo ham bir hil soʻz yasash turi orqali berilmaydi.

Kompozitsiya usuli yordamida uchta tilda ham termin yasash mumkin: loydevor, гипсокартон, ohaktosh, oynaband, fireplace, limestone, glassed-in.

Qurilishga oid terminlarning yasashiga eʼtibor qaratar ekanmiz kompozitsiya usuli orqali defis bogʻlovchisi yordamida yasalgan terminlar ham rus va oʻzbek tillarida uchraydi.

A) Atoq otlaridan defis yordamida birikib yasalgan terminlar: Khrushchev-erahouse / Xrushev uylari;

B) Sondan defis yordamida birikib yasalgan terminlar: three-deckers/трёхэтажный/uch qavatli;

C) Xarflardan defis yordamida birikib yasalgan terminlar: A-frame/ A-shaklda yopilgan tom; L-shaped.

D) Soʻzlarni qisqarishi yordamida bir necha morfemalar birikib yasalgan morfemalar: Walk - up apartment / Liftsiz qurilgan koʻp qavatli uylar.

Yasama terminlar tahlilida terminlarning affiksatsiya orqali shullanishiga eʼtibor qaratamiz. Ingliz tilida prefikslar ishtirokida yasalgan terminlar soni kam: over-, semi-, dis-: overhead, a semiconductor, disconnect. Suffikslar ishtiroki talaygina, ulardan eng unumlisi: -er, -ion, -tion, -ing,-ment, -ness, -le, -ity, -ed, -able, -te, -ive, -or, -ed, -ing, -eon, -on, -y, -ant, -el, -le, -up, -oir, -al, -age, -less, -cy, -able, -ar, -ous, -ence, -ance, ure: resistance, reliability, rechargeable, transmission, integrated, generator, energetical, electromotive, electroacoustics, charge carrier, alternating, active, structure, sanitary, artificial, stringer, construction, packing, backfilling, heater.

Oʻzbek va rus tillari misolida yasama terminlar tahliliga nazar solar ekanmiz, izlanishlarimmiz jarayonida bu tillarda suffikslar yordamida yasalgan terminlar soni talaygina ekanligi taʼkidlab oʻtish joiz deb bildik. Masalan, 1) rus tilida -ость, -альн-, -анн-, -ция: проводимость, индустриальный, изолированный,

эвакуация. 2) O‘zbek tilida -cha, -chi, -dor, -gor, -gar, -ish, -ash, -li, -lik, -kor, -kash, -siz, -ich, -in: ishsiz, ishlash, sinchkor, duradgor, paxsakash, duradgor, ko‘rsatkich, chiziq, to‘sin.

Ushbu tahlillardan ko‘rinib turibiki, ingliz tilida bino ta'mirlanishi bo‘yicha so‘zlarning aksariyati suffikslar yordamida shakllanib, yasama terminlar qatoriga kiritiladi.

Umuman olganda ingliz, rus va o‘zbek tillarning so‘z yasash tizimi farqlanib kelinmoqda. Shunga ko‘ra biz quyidagi jadvalda qurilish sohasi, xususan bino ta'mirlash bo‘yicha uchta tilda so‘z yasash turlarini qaysi biri qaysi tilda unumdorligini va ularning nisbatini ko‘rsatdik. Ushbu jadvalda bino ta'mirlash bo‘yicha tahlil jarayoniga tortilgan 500 terminning qaysi so‘z yasash turida vujudga kelganligi foizda berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Абдурахманова А.З. Лингвистическое моделирование строительной терминологии (на материале английского языка) тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.21
2. Авербух К.Я. 1986. Терминологическая вариантность: теоретический и прикладной аспекты, Вопросы языкознания, № 6
3. Авербух К.Я. Общая теория термина / К.Я. Авербух. - Иваново, 2004
4. Аврорин, В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка: (К вопросу о предмете социолингвистики) Текст. / В.А. Аврорин. Д.: Наука (ЛО), 1975.-276 с
5. Алексеев Л. Проблемы термина и терминообразования. — Пермь:Перм.гос.ун, 1998

QURILISHGA OID MATNLARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Gafurova Nozima Ikramovna
Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili
o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Zamoning kundan kunga rivojlanishi qurilish sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayabti. Qurilish sohasi ham rivojlanar ekan terminlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu maqola terminlarga va ularning komponentlariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: qurilish, termin, tarkib, komponent, matn, instruktsiya, terminosistema.

Ayrim tilshunos olimlar termin kontekstning ichida o‘rganilishi shart deb bilishsa, ba’zi olimlar termini kontekstdan ajralgan holatda o‘rganilishi kerak, deb hisoblaydilar. Bu qarashlarning har ikkalasida ham mantiq bor.

Ushbu maqolada asosiy vazifamiz terminlarning matnda qo'llanishiga e'tibor qaratish, qurilish sohasiga oid turli matnlarni tahlil qilish va terminlarning xususiyatini ochib berishdir.

Qurilish sohasi matnlari ilmiy-texnika uslubiga kiradi. Bunday matnlarning xususiyatlari kasbiy terminologiya yoki ma'lum sohaga taalluqli so'z-termin va termin-birikmalarning mavjudligi. Kasbiy terminlar ilmiy-texnika matnlarining asosi bo'lib, kontekst ushbu terminlar miqyosida shakllanadi. Termin ilmiy-texnik matnlarda asosiy vazifa bajaradi. Ilmiy-texnik matnlar strukturasi o'ziga xos bo'lib, boshqa turli matnlardan keskin ajralib turadi. Ilm-fan sohalarining har birisi o'zining metatiligiga ega bo'lib, bu metatil yuzlab terminlardan iborat bo'ladi.

Qurilish sohasi matnlarini tarjima qilish ham alohida diqqatga sazovor bo'lib kelmoqda. Kasbga taalluqli matnlar amaliy tilshunoslik ob'ekti bo'lib, hozirgi davr amaliy tilshunoslikda qurilish diskursi keng tadqiq qilinmoqda. Qurilish diskursining turli janrlari mavjud bo'lib, bularga yo'riqnoma va ko'rsatmalar, ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, monografiyalarni kiritish mumkin. Qurilish sohasi matnlarining tarjima masalalari, elektron tarjima dasturlari va tarjimaning pragmatik jihati atroflicha talqin etiladi.

Ilmiy tadqiqotda biz termini noto'g'ri tarjima qilingan termin yoki matnga nosozliklar degan so'zni ishlatishga qaror qildik. Chunki termin tarjimasida kamchiliklar yoki noto'g'ri talqinlar deb ta'riflasak, ko'proq inson tomonidan tarjima qilingan matnlarga taalluqligini ko'rsatadi. Onlayn mashina tarjimalarida xato va kamchiliklarni biz nosozlik sifatida ko'rib, aynan mashina tomonidan texnik xatoni namoyish maqsadida ushbu so'zni ham terminning noto'g'ri tajimasiga nisbatan qo'lladik.

Dunyo bo'yicha texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Terminologik matnlar tarjimasida onlayn tarjima saytlaridan foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga onlayn tarjimonlarning kamchiliklarini ham ko'rsatish mumkin.

Avvalom bor, mashina yordamida tarjima usuliga e'tiborimini qaratamiz. N.A.Muxiyev tarjimaning turlarini alohida ko'rsatib o'tgan, Jumladan, badiiy va informativ tarjima turi, psixolingvistik tasnifi bo'yicha yozma va og'zaki tarjima, inson ishtiroki bo'yicha an'anaviy va mashina yordamida tarjima turlarini ajratgan. Albatta, mashina yordamida, ya'ni internet tarjima orqali qisqa muddatda matn tarjimasini tayyor bo'ladi. Lekin onlayn tarjima orqali o'girilgan matnlarning bir nechasini ko'rib chiqqach, amin bo'ldikki, bunday tarjima turi doimo ham to'g'ri va aniq tarjimini ta'minlab bera olmaydi. Quyida biz bir necha matnlarning tarjimasini tahlil qilib chiqdik. Ingliz tilida berilgan matnlar elektron onlayn dasturlari orqali tarjima qilingan. Ushbu elektron dasturlar orqali amalga oshirilgan

tarjimani ko‘rib chiqish va tahlil qilish bilan birga o‘z tarjimamizni ham taklif qilmoqdamiz.

Ingliz tilida *‘lumber’* and *‘timber’* so‘zlari o‘zbek tilida bitta “*yog’och*” so‘zi bilan tarjima qilinmoqda. Shuning uchun tarjimon ingliz tilida berilgan ikkita so‘zning farqini ko‘rsatish uchun o‘zbek tilida muvofiq ekvivalentlarini izlash kerak. Rus tilida ushbu ikkita so‘zga “*пиломатериалы и древесина*” ekvivalentlari taklif qilinmoqda. Ushbu matnda rus tilida berilgan tarjimasi aniq izohlanib, ingliz tilida berilgan qurilish materiallari terminlariga muvofiq ekvivalent topilgan va rus tili sohibi matnni bimalol tushunishi mumkin. *As a rule of thumb* iborasi ingliz tilida frazeologik birlik sifatida qo‘llanadi. Onlayn tarjimalari frazeologik birliklar, idioma va metaforalar ma‘nosini aniq ko‘rsata olmaydi. Ingliz tilida ushbu frazeologik birlik *odatda, ma‘lum qoidalarga asosan, yozilgan qoidalarga asosan* degan ma‘noni beradi. Rus tili tarjimasida ushbu frazeologik birlik keltirilgan gapda aniq va tushunarli berilmoqda: *kak pravilo*. Lekin o‘zbek tilida so‘zma so‘z *qoida tariqasida* degan jumla orqali tarjimaga noaniqlik kiritmoqda. O‘ylaymizki, bu gapda ko‘proy odatda so‘zi ma‘qul bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Абдурахманова А.З. Лингвистическое моделирование строительной терминологии (на материале английского языка) тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.21
2. Авербух К.Я. 1986. Терминологическая вариантность: теоретический и прикладной аспекты, Вопросы языкознания, № 6
3. Авербух К.Я. Общая теория термина / К.Я. Авербух. - Иваново, 2004
4. Аврорин, В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка: (К вопросу о предмете социолингвистики) Текст. / В.А. Аврорин. Д.: Наука (ЛЮ), 1975.-276 с
5. Алексеев Л. Проблемы термина и терминообразования. — Пермь:Перм.гос.ун, 1998

KOREYS TILIDA NOTO‘G‘RI FE‘LLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI*Melikova Uljon Burxonovna*

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilini o‘rganishda to‘g‘ri va noto‘g‘ri fe‘llarning ishlatilishi va ularning turlari batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: til, to‘g‘ri fe‘l, noto‘g‘ri fe‘l, mustaqil fe‘l, ko‘makchi fe‘l, o‘zak, negiz.

Til inson uchun eng muhim jihatdir . Til bo‘lmasa jamiyat bo‘lmaydi. Insonlararo aloqa o‘rnatilish , muomala qilish uchun til muhim vositadir. Hozirgi kunda tilning ahamiyati juda muhimdir. Shu sababli bugungi kunda chet tillarini o‘rganish uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda . Hozirgi kun uchun til bilish eng muhim xususiyatlardan biridir. “Til bilgan el biladi “, degan maqol ham bejiz emas. Chunki inson tilni qanchalik ko‘p mukammal bilsa, u dunyo yuzini ko‘rish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Til jamiyatni ma‘naviy jihatdan yuksalishini ta‘minlaydi. Shu tufayli ham tili rivojlangan mamlakat har jihatdan rivoj topib jahonga yuz tutadi. Bu haqda yurtboshimizning juda dono fikrlari mavjud: „ Jahon hamjamiyatining mustaqil O‘zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o‘zbek xalqining ma‘naviy qadriyatlarini va imkoniyatlarini tiklanishiga, o‘zini boshqa xalqlar oilasidagi to‘la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etadi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o‘zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste‘dodi rivojlanishiga , uning tadbirkorlik va kirishimlilik , bir necha chet tillarni tez o‘rganib olish kabi noyob fazilatlarni to‘la to‘kis ro‘yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va sahovat an‘analari yanada rivojlandi.

Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo‘lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli ma‘rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma‘qul ko‘rishini hayotning o‘zi ishonarli tarzda isbotlamoqda“

Yuqorida ta‘kidlanganidek bilimli, ma‘rifatli, til bilgan insonlar yuqori cho‘qqilarga erishmoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda til markazlari ham ko‘paymoqda . Til bilishga intilgan inson hozirgi kunda to‘liq bunga erisha olishi mumkin. Koreys tili ham oltoy tillariga mansub bo‘lib, grammatik jihatdan bir-biriga o‘xshash tomonlari ko‘p uchraydi. Shuning uchun koreys tili grammatikasi boshqa tillarga qaraganda, o‘zbek tili bilan gramatik jihatdan yaqin turadi. O‘xshash tomonlari ko‘p bo‘lib, farqli tomonlari ham uchrab turadi. Fe‘l so‘z

turkumi gapning oxirida keladi. Rus, ingliz, nemis tillarida bo'lsa, aksincha gapning boshida egadan keyin keladi. Bu biz uchun koreys tili grammatikasini osonroq o'rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga bir qancha farqli tomonlari ham mavjud. To'g'ri va noto'g'ri fe'llar haqida ma'lumot berildi. O'zbek tili bilan qiyoslasak, o'zbek tilida to'g'ri va noto'g'ri fe'llar mavjud emas. Koreys tilida esa fe'llar tushlanganda noto'g'ri fe'llarni shakli o'zgaradi. Shu bilan birga Sharq mamlakatlari ayniqsa, koreys xalqlari so'zlash odobi muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Fe'ning oddiy shakl ko'rinishi bilan birga, hurmat shakl ko'rinishi mavjud. O'zbek tilida hurmat shakli "lar" qo'shimchasini fe'lga qo'shish yordamida yasaladi.

Noto'g'ri fe'llarning tuslanishi jadval asosida ko'rsatib o'tiladi. Hamda fe'llarning tugallovchi qo'shimchalari haqida ma'lumot beriladi. Koreys tilida ham o'zbek tilidagi kabi gapning darak, so'roq, buyruq, taklif va his-hayajon turlari mavjud bo'lib, gapning turiga qarab tuslanadi.

Harakat tushunchasini anglatuvchi so'zlar fe'l deyiladi. Harakat ma'nosi juda keng tushuncha bo'lib, o'ylamoq, xayol surmoq fikrlamoq singari tafakkur; yugurmoq, sakramoq, ishlamoq kabi jismoniy faoliyat; so'zlam, demoq, aytm, kabi nutq; uxlam, mudram, kutmoq, kulmoq kabi holat; qurmoq, chizmoq, yasamoq, yaratmoq kabi natijali faoliyat bilan bog'liq ma'noviy guruhlariga mansub fe'llarni o'z ichiga oladi. Fe'llar bir umumiy so'roqqa-nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi. Fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

1. Mustaqil fe'llar lug'aviy ma'noga ega bo'lib, nutqiy jarayonda biror gap bo'lagi vazifasida ishlatiladigan fe'llardir. Mustaqil fe'llar turli grammatik kategoriyalarga birlashadigan sof fe'l va vazifadosh shakllardan tashkil topadi. Masalan: keldim — aniq nisbat, bo'lishli, xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs, birlik kabilar muayyan grammatik kategoriyalarni ifodalovchi sof fe'llar hisoblansa; kelgan - sifatdos, kelgach - ravishdos, kelish -harakat nomi shaklida ekanligi esa fe'ning vazifadosh shakllaridir.

2. Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmay, turli grammatik ma'no va vazifalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan fe'llardir. Yordamchi fe'llar o'z xususiyatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar. Masalan: xabar qilmoq, xursand bo'lmoq, tasdiq etmoq kabi; 2) kesim tarkibida bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar. Bu vazifadagi yordamchi fe'llarga; a) leksik ma'nosini mutlaqo yo'qotgan sof bog'lama lar ya'ni, edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llari kiradi; b) leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan bo'ladi, bo'lmaydi, deyiladi, hisoblanadi kabi bog'lama lar kiradi; 3) fe'llarga birikib,

turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar: chiq-o'qib chiq, qol-uxlab qol kabi.

Fe'llarning bosh shakli uning o'zak-negiziga –moq affiksini qo'shish orqali yasaladi: o'qimoq, ishlamoq, yozmoq, o'tirmoq, o'qib chiqmoq, bilib olmoq. Ular lug'atlarda ham shu shaklda beriladi.

O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llar undan anglashilgan ish-harakatning narsaga munosabatiga ko'ra o'timli yoki o'timsiz bo'ladi.

1. Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan narsaga o'tishini bildiruvchi fe'llar o'timli fe'l deyiladi. Masalan: ol, o'qi, saqla, tozala fe'llari o'timlidir.

2. Narsaga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'llardir. Masalan: bor, kel, o'tir kabi fe'llar o'timsizdir.

Fellardagi o'timli yoki o'timsizlik leksik-semantik va morfologik vositalar orqali ifodalanishi mumkin: a) o'timli yoki o'timsizlik fe'llarning leksik ma'nosidan anglashilib turadi. Ya'ni ular affikssiz qo'llanganda ham o'timli yoki o'timsizlikka daxldor bo'ladi. Masalan: yech, qo'y, saqla, so'ra, ko'r kabi fe'llar o'timli; bor, o'tir, uxla, ko'kar, tur kabi fe'llar esa o'timsizdir. Fe'l ko'p ma'noli bo'lganda o'z va ko'chma ma'nosi bilan o'timli yoki o'timsiz bo'lishi mumkin: kitob o'qiydi- o'timli, kitobdan yoki maktada o'qiydi – o'timsizdir; b) fe'lning o'timli yoki o'timsizligi unga qo'shib keladigan morfologik vositalar orqali belgilanadi. Bunda nisbat yasovchi affikslar muhim ahamiyatga ega bo'ladi: 1) ortirma nisbat affikslari o'timsiz fe'lni o'timliga aylantirishi mumkin: oq-oqiz, yur-yurgiz, kel-keltir, ishla-ishlat; 2) o'zlik va majhullik nisbat affikslari esa o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: och-ochil, ko'r-ko'rin, tara-taran, tort-tortin. Ba'zan mustaqil fe'l tarkibida nisbat qo'shimchalari ketma-ket qo'shib kelishi mumkin. Bunday holda fe'lning o'timli yoki o'timsizligi oxirgi nisbat yasovchi qo'shimchaga qarab belgilanadi: kel-o'timsiz, keltir-o'timli, keltiril-o'timsizdir.

Koreys tilida to'g'ri fe'llarning ishlatilishi.

규칙동사도 간주되는 활용

Tuslanish paytida fe'lning o'zagi yoki qo'shimchasi o'zgaradi: lekin fe'llarda bo'lgan o'zgarishlarni ya'ni 'ㄷ' tushib qolishi, '으' tushib qolishi '으' kiritilishini umumiy qoidalar bilan tushuntirish mumkin. Koreys gramatikasida bu fe'llar qatoriga kiritilmaydi.

1. 'ㄷ' Tushib qolishi: -ㄷ 탈락

Fe'lining o'zagi 'ㄹ' bilan tugasa va undan keyin 'ㄴ, ㅂ, ㅅ' undoshlari kelsa 'ㄹ' tushib qoladi.

1-jadval 'ㄹ' tushib qolishi

Fe'l (동사)	-ㅂ니다	-세요	-는
알다	압니다	아세요	아는
놓다	놓니다	노세요	노는
만들다	만듭니다	만드세요	만드는
팔다	팝니다	파세요	파드는는
들다	듭니다	드세요	드는
살다	삽니다	사세요	사는
열다	엽니다	여세요	여는
울다	웁니다	우세요	우는
쓸다	씁니다	쓰세요	쓰는

Yuqoridagi tushib qolish holati talaffuzni ravonlashtiradi va so'zni ifodali o'qilishini ta'minlaydi. Buni quyidagi misollar orqali ifodalaymiz.

Misollar:

-선생님의 전화번호를 아는 사람이 있습니까?

O'qituvchini telefon raqamini biladigan inson bormi?

-아이들이 놀이터에서 놉다.

Bolalar maydonchada o'ynayapdi

-시계를 파는 사라—이 저희 형 입니다.

Soat sotadigan kishi – mening akam.

-집에서 케익 만드는 것을 좋아합니다.

Uyda tort pishirishni yaxshi ko'raman

-(저는) 돈을 많이 벌니다.

(Men) ko'p pul ishlayapman.

2)'으' Tushib qolishi. –으 탈락

Fe'llar o'zagida turadigan '으' '-어/아' dan oldin turgan holda tushib qoladi.

2-jadval. Fe'lning o'zagida turgan '으' ning tushishi

Fe'l (동사)	-어/아
쓰다	써
뜨다	떠
치르다	치러
들르다	들러
크다	커
끄다	꺼

Misollar

-어제는 친구에게 엽서를 썼어요.

Kecha do'stinga otkiritka yozdim.

-초저녁에 별이 떠 있는 것을 봤어요.

Men shomda yulduz chiqqanini ko'rdim

-상점에서 나오면서 물건의 값을 치뤘어요

Magazindan chiqayotganimda narsalarni pulini to'ladim

-언제 저희 집에 한번 들러주세요.

Biron-bir vaqt biznikiga bir kiring

-우리 조카 유두스가 이만큼 컸습니다.

Bizning jiyanimiz Yulduz shuncha o'sdi

-불을 꺼 주세요.

Svetni o'chirib yuboring

1) '으' unlini kiritilishi: '으' 삽입

Undov bilan tugaydigan o'zakdan keyin 'ㄹ' bilan tugaydigan o'zak esa bundan istisno, '-ㄴ, -ㄹ, -오, -며, -시, -ㅁ' qo'shimchalar qo'shilsa, qoidalarga asosan '으' unli qo'shiladi.

3-jadval '으' unlini qo'shlishi

Fe'l (동사)	-ㄴ	-ㄹ	-며	-시
-----------	----	----	----	----

먹다	먹은	먹을	먹으며	먹으시며
잡다	잡은	잡을	잡으며	잡으시며
받다	받은	받을	받으며	받으시며
박다	박는	박을	박으며	박으시며
들다	들는	들을	들으며	들으시며
적다	적는	적을	적으며	적으시며

Misollar

어제 먹은 고기가 상했는지 배가 아파요.

Kecha yegan go'sht sal aynigan ekan-mi qornim og'riyapdi.

Koreys tilida noto'g'ri fe'llarning ishlatilishi.

불규칙동사

Noto'g'ri fe'llarning tuslanishida fe'lning o'zagi o'zgarmaydi, lekin ba'zi hollarda fe'l o'zaginging biron-bir qismi o'zgaradi yoki butunlay o'z\agi tushib qoladi. Koreys tilining umumiy qoidalariga rioya qiladigan fe'llar to'g'ri fe'llar deb ataladi. Umumiy fonologik qoidalar bilan tushuntira olmaydiga fe'llar noto'g'ri fe'llar deb ataladi.

Noto'g'ri fe'llar 불규칙동사

Noto'g'ri fe'llar turlari (종류)	O'zgarish turlari (바뀔의 양상)	Noto'g'ri fe'llar (불규칙동사)	To'g'ri fe'llar (규칙동사)
'ㅅ' bilan tugagan noto'g'ri fe'llar	Unlilarni oldida 'ㅅ' tushib qoladi	낮다, 붓다, 젓다, 굶다, 밋다.	빠앗다, 벗다, 옷다, 씻다, 솟다, 빗다
'ㅂ' bilan tugagan noto'g'ri fe'llar	Unlilarni oldida 'ㅂ', '-오/우' ga almashadi	반갑다, 고맙다, 아릅답다, 돕다, 곱다, 맵다, 줍다, 눅다, 킵다, 덥다,	눅다, 줍다, 썩다, 뽑다, 입다, 붙잡다, 집다, 잡다, 엮다
'ㄷ' bilan tugagan noto'g'ri fe'llar	Unlilarni oldida 'ㄷ' 'ㄹ' ga almashadi	걷다, 묻다, 듣다, 싣다, 킵다, 깨닫다	받다, 얻다, 무다, 닫다, 쏟다, 믿다 듣다
'ㄹ' bilan tugagan noto'g'ri fe'llar	'아' yoki '어' unlilar oldida 'ㄹ' '르' ga	나르다, 다르다, 빠르다, 고르다, 오르다, 서두르다,	

	almashadi	부르다, 누르다, 기르다, 흐르다, 타오르다, 가르다	치르다, 들르다
‘여’ bilan tugagan noto‘g‘ri fe’llar	‘어’ ‘여’ ga almashadi	‘-하다’ 로 끝나는 동사전부	사다, நா다, 차다, 파다
‘러’ bilan tugagan noto‘g‘ri fe’llar	‘어’ ‘러’ ga almashadi	이르다, 푸르다, 누르다	
‘거라’ bilan tugagan noto‘g‘ri fe’llar	Buyruq mayli ‘어라’ '거라' ga almashadi	‘거라’, ‘-하다’ 로 끝나는 동사	타다, 사다, 치다, 막다, 팔다
‘너라’ bilan tugagan noto‘g‘ri fe’llar	Buyruq mayli ‘어라’ '너라' ga almashadi	‘오다’로 끝나는 동사	보다 쏘다 고다
‘ㅎ’ bilan tugagan noto‘g‘ri fe’llar	‘ㅎ’ tushib qolidi va qo‘shimcha o‘zgaradi	어떻다, 이렇다, 그렇다, 저렇다	밧다, 낱다, 놓다, 놓다, 싫다

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Choi Mi Ok “Koreys tili gramatikasi” Samarqand – 2006
2. Koreys tili grammatikasi Kim Chun 한국어 문법 강의안 2007y Tosh.
3. Koreys tili grammatikasi Orfoepiya. 한국어 문법 및 축법 발음법
4. Nurmonov, A Sobirov, H. Qosimov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tosh. 2001
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili abiturentlar uchun universal qo‘llanma. 2005y Tosh.
6. Tursunov, Muxtorov Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
7. www.Google.com
8. Koreyscha-o‘zbekcha lug‘at 30000 도서출판문예림 2009y
9. Koreyscha-o‘zbekcha lug‘at 40000 so‘z

IMPROVING ECOTOURISM IN UZBEKISTAN: ISSUES OF ORGANIZATION

Shermamatova Nilufar

*A student of a master's degree at 'Silk Road' International
University of Tourism and Cultural Heritage*

Annotation. This article considers the improvement of ecotourism in Uzbekistan. The purpose of this article is to find out ways to develop ecotourism and sustainable development by offering ways to improve current ecotourism practices. Specifically organized and controlled ecotourism sites, essentially if they are village-based and include local participation, can provide direct benefits that can offset pressure from other less sustainable activities that use natural and cultural resources. Eco-tourism, natural resources, cultural heritage, rural lifestyle and integrated tourism are one of the local economic activities. Nevertheless, achieving ecotourism aims depends on whether they are environmentally sustainable and economically feasible.

Keywords: tourism industry, ecotourism, recreational tourism, modern models ecotourism, ecotourism, development, sustainable, efficient, economic, ecological, activity.

Introduction. Tourism is one of the most rapidly increasing and highly profitable industries in the world, which helps to the strengthening of international socio-economic, cultural and spiritual ties. Uzbekistan pays more attention to the improvement of tourism as one of the directing countries in the world, which has a rich cultural and historical potential. Ecotourism, as an alternative tourism, includes visits to natural areas in order to study or conduct environmentally friendly activities supply with economic and social development of local communities. In this type of tourism, healthy people are more engaged in tourism activities. Therefore, in the development of ecotourism, tourism offices, entrepreneurs, tour operators and travel companies achieve more than one aim – making profit. Also, until 2020, ecotourism will be one of the main new strategic directions of the world tourism, and these areas will also be developed stay in the Republic of Uzbekistan.

Results. Uzbekistan has a number of chance types of ecotourism. This ought to contain spectrum of activities - from long-term scientific expeditions to a short rest outdoors. The most common types ecotourism are hiking and horseback riding, travel on rowing and motor boats. According to the Decree of the Head of State “On measures to ensure the accelerated development of the tourism industry of the Republic of Uzbekistan” dated December 2, 2016, tourism is defined as a strategic

sector of the economy of Uzbekistan. The program of priority measures for the development of tourism for 2018-2019 was approved by the Decree of the President of August 16, 2017. Four important documents related to this area, adopted by the President only in February 2017, are the embodiment of the high attention paid by the state to the development of tourism. These documents define priority tasks for measuring the issues accumulated in the industry, growing the tourism potential, supplying a number of benefits and preferences for the further development of domestic tourism.

Methodology. Essential components of the further improvement ecotourism in Uzbekistan are developments and detailed descriptions of tourist routes and their official registration in the relevant structures responsible for the development of tourism. In this regard, the resolutions of the President Republic of Uzbekistan dated August 16, 2017 “On priority measures for the development of the industry tourism for 2018–2019”, “Development of tourism and related infrastructure in all regions of the Republic of Uzbekistan, diversification tourism products and the creation of new tourism objects”, as well as the Program of Priority specific measures for the development of tourism for 2018–2019, which are aimed at actively advertising national tourism products on the domestic and foreign markets [3].

Discussion. When implementing this program, it is important to study issues of improvement of ecotourism in our country. On this side, it is essential first of all to study advanced technologies and experience of foreign countries in the field of ecotourism. In the development of ecotourism, the concept of International Park Reserve models are fundamentally different: financial support these national parks - not under- support of the government, and support of the state. The main principle of these national parks is a reliance on its own power and self-defense. This model was formed in the middle of the 20th century. Society was educated by transferring knowledge from eco-tourists as realization of principle to offer benefits to local communities and mutual relationship between eco-tourists and visitors. Sustainable ecotourism was supported by interrelated aspects consisting of economy, social, and environmental aspects. Environmental education was associated with sustainable development in Indonesia so that society had awareness of natural resources conservation and its problems having knowledge, attitude, expertise, motivation, and commitment to seek solution alternatives specifically for tourism location.

Conclusion. Based on the goals and objectives set out in the "Concept for the development of ecotourism in Uzbekistan" and the demands of the "Modern concept and practice international ecotourism", we ought to begin research on the

development of organizational structures and mechanisms for the development of ecotourism in our country. Additionally, it is necessary to establish legal standards darts of application of modern technologies and experience and foreign countries with ecotourism in the organization and improvement of ecotourism in Uzbekistan. Also, it is important to start the testing section national models of ecotourism created in cooperation with European countries, for organization and development of ecotourism in Uzbekistan, in the national parks of our country. Tourism location management integrated with environmental education is done in order that natural resources usage activities and environmental sources services are done comprehensively directing to achieve optimal and sustainable development result.

References

1. Александрова, А. Ю. География туризма / А. Ю. Александрова. — М. : КноРус, 2010. — 592 с.
2. Григорьянц, А. А. К вопросу развития экотуризма в Узбекистане / А. А. Григорьянц // Экологическое движение Узбекистана. — URL: <http://eco.uz/ru/biblioteka/publikatsii-v-smi/7480-k-voprosu-razvitiya-ekoturizma-v-uzbekistane>
3. Musaev H.H. Tourism in Uzbekistan: opportunities and new challenges // European science review, 2017. № 1- [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-in-uzbekistan-pportunities-and-new-challenges/> (дата обращения: 13.11.2019).
4. Khusenova M.G., Rakhmonov Sh.Sh. The development of ecologic tourism // European science, 2018. № 2 (34). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-development-of-ecologic-tourism/> (дата обращения: 13.11.2019).

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IMKONIYATI
CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

*Qodirova Naimaxon Abdiqodirovna,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi,
tel: 998902192582*

Annotasiya. Maqolada o'quvchilarni individual tushunchalari, zarur muhokama va tahlil qilishni o'z ichiga olgan darslarni tashkil etishning muhimligi ham taqdim etilgan. Mavzu inklyuziv ta'limning, ya'ni har bir o'quvchining o'zining maxsus xususiyatlari va qobiliyatlariga qarab ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan yondashuvni anglatadi. Maqola, pedagogik usullarni cheklab qo'ymagan holda, turli imkoniyat va qobiliyatlariga ega bo'lgan barcha o'quvchilarning ta'lim olishiga imkoniyat yaratishning ahamiyatini ko'rsatadi. Maqolada inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan pedagogik usullar, maslahatchilar va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish, ota-ona va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, maxsus ta'minotlar va qo'llanmalar ishlatish, individual dasturlar tuzish va boshqalar kabi muhim masalalar haqida muloqot qilinadi. Maqola inklyuziv ta'limning barcha o'quvchilarga qanday yordam berishning zaruriyati va ularga qanday yordam bera olishning muhimligini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasasi, imkoniyat cheklangan bolalar, inklyuziv ta'lim, rivojlanish muammolari, istiqbollari.

Maktabgacha ta'lim tizimi, har bir bolaga ta'lim olish imkonini ta'minlash va uning istiqbolini ta'minlashdagi katta muhim muassasa sifatida o'rnini egallaydi. Lekin, imkoniyati cheklangan bolalar - masalan, engal so'roqlangan yoki engal so'ramaydiganlar - uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish va joriy etish jarayonida muammo va muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu maqolada, maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonidagi muammolarni va ularning kelajakdagi istiqbollari bilan bog'liq muhim masalalarni o'rgangan holda ko'rib chiqamiz.

Muammo 1: Ishonch va ma'lumot eksikligi: Imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida, ulardagi ishonch va ma'lumot eksikligi ko'p bo'lgan. Bu ularga ta'lim tizimida qadam qo'yimoq va o'zlashtirilgan ta'lim dasturlari tayyorlashda muammo yuzaga keltirishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarining mutaxassis o'qituvchilari bu bolalarning o'zaro aloqalarini qo'lda tutish va ularga yordam bera olish uchun yaxshi tayyor bo'lishlari kerak.

Muammo 2: Individual ta'lim dasturlari va qo'llab-quvvatlash tadbirlari: Imkoniyati cheklangan bolalar har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi

uchun, ular uchun maxsus ta'lim dasturlari va qo'llab-quvvatlash tadbirlari tayyorlash zarur. Bu dasturlar bolaning ma'lumiyat va tajriba darajasini hisobga oladi va uning o'zlashtirilishini rag'batlantiradi.

Muammo 3: Ota-ona va o'qituvchilar bilan hamkorlik: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ota-ona va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati juda katta. O'qituvchilar ota-onalar bilan birgalikda ishlay oladigan maqsadga erishish uchun ularga to'liq qo'llab-quvvatlash va tayyorlash kerak. Ota-onalar esa, maktab hayotidagi har bir qadamni o'z vaqtida tushuntirish va o'rganish jarayonida qatnashishlari lozim.

Muammo 4: Infrastruktur va vositalar: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim olish muassasalarining infratuzilmasi va kerakli ta'lim vositalari xususiyatlari hisobiga aylandirilishi kerak. Eng muhim manba - masofaviy ta'lim, asbob-uskunalar va eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish imkonini ta'minlash.

Istiqbollar: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun bir qancha muhim istiqbollar yaratilishi kerak. Bu istiqbollar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Mutaxassislik va tayyorlik: O'qituvchilar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar inklyuziv ta'lim tizimining talablariga javob berish va imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim olishga tayyor bo'lishlari kerak.

2. Individual yakunlash va baholash: Har bir bolaning yutuqlarini va rivojlanishini baholash uchun individual yakunlash tizimi tuzish va buni amalga oshirish uchun vositalarni tashkil etish zarur.

3. Hamkorlik va kommunikatsiya: Ota-ona, o'qituvchilar, psixologlar, logopedlar, kasb-hunar o'qituvchilari va boshqa tajribali mutaxassislar o'rtasidagi samarali hamkorlik va ochiq kommunikatsiya ta'minlash.

4. Texnologiyalardan foydalanish: So'nggi texnologiyalardan foydalanib, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayonida qiziquvchan va samarali usullar bilan qamrab olish.

5. Iqtidorlarni rag'batlantirish: Har bir bolaning o'zining iqtidorlarini aniqlab olish va ularni rag'batlantirish yollari topilishi.

Maqola oxirgi qismida ko'rib chiqilgan muammolar va istiqbollar, maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muhim masalalardir. Bu muammolar, samarali tahlil va hamkorlik orqali hal qilinishi mumkin va uning natijasida bu bolalar o'zlarining potentsialini to'liq ravishda ishlab chiqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avramidis, E., Bayat, M., & Pryor, J. (2003). The influence of school physical environment on students' sense of belonging. *Eurasian Journal of Educational Research*, 13, 31-42.
2. Florian, L. (2008). Inclusive pedagogy: Considerations for policy and practice. *International Journal of Inclusive Education*, 12(5-6), 441-455.
3. Forlin, C., & Chambers, D. (2011). Teacher preparation for inclusive education: Increasing knowledge but raising concerns. *Asia-Pacific Journal of Teacher Education*, 39(1), 17-32.
4. Mardell-Czudnowski, C., & Goldenberg, D. (2002). *Learning in and out of school in diverse environments: Life in classrooms and communities*. Westport, CT: Praeger.
5. Mastropieri, M. A., & Scruggs, T. E. (2000). *The inclusive classroom: Strategies for effective instruction*. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
6. Rouse, M., & Florian, L. (2017). Including pupils with special educational needs and disabilities in national assessment: Lessons from England. *European Journal of Special Needs Education*, 32(3), 364-378.

DYNAMICS OF EPIDEMIOLOGICAL INDICATORS OF DIABETES MELLITUS IN CHILDREN AND ADOLESCENTS.

Xudoyorova Dilnoza Rizoyevna

Department of Internal Medicine and Endocrinology Bukhara State Medical Institute

Key words: diabetes mellitus, children, adolescents, epidemiology, prevalence, incidence, registry.

Target: to analyze and assess the dynamics of the main epidemiological indicators of diabetes mellitus in children and adolescents.

Materials and methods: to assess the epidemiological indicators of diabetes mellitus (prevalence, incidence) in children and adolescents, methods of analytical and statistical epidemiology with elements of descriptive epidemiological research were used. The data analysis was carried out on the basis of a depersonalized database of the state register of diabetes mellitus (GRSD) and annual statistical reports (F12) "Information on the number of diseases registered in patients living in the service area of the medical institution."

Results: according to statistical reporting, 710 children and adolescents from 0 to 17 years old were registered with a diagnosis of diabetes mellitus: type 1 diabetes - 651 cases (91.6%), type 2 diabetes and other types of diabetes - 59 cases (8.4%). The prevalence of diabetes mellitus in the children's age group was 168.7 per 100 thousand children's population (children), type 1 diabetes - 152.3 per 100

thousand children. The prevalence of diabetes mellitus in the age group under 14 years is 141.2 per 100 thousand. and type 1 diabetes – 131.86 per 100 thousand days. The incidence of type 1 diabetes in the age group 0-17 years was 89 cases, 21.1 per 100 thousand children, the incidence of type 1 diabetes in children under 14 years was 63 cases, 17.3 per 100 thousand. In dynamics over three years, a moderate increase in the prevalence of diabetes was obtained (2016 – 147.3; 2017 – 158.2; 2018 – 168.7 per 100 thousand years of age), in the absence of this trend in the incidence of diabetes mellitus: 2016 – 23.91; 2017 – 26.9; 2018 – 21.1 per 100 thousand. The average level of glycated hemoglobin (HbA1c) in children 0-17 years old was 8.74%, with no significant differences between boys (8.76%) and girls (8.72%). HbA1c in the age group 1-7 years – 7.74%, 7-12 years – 8.65% and 12-18 years – 9.03%. According to the GRSD, 67.9% of children and adolescents had no complications of diabetes. The structure of complications was dominated by diabetic peripheral polyneuropathy, which accounted for 21.0% of cases in the total cohort of patients.

Conclusions: dynamics 2016–2018 There was a moderate increase in the prevalence of diabetes. According to the state register and F12, in the last three years there has been a tendency towards some stabilization in the incidence rate of type 1 diabetes in children and adolescents

EFFECTIVENESS OF CONTINUOUS GLYCEMIC MONITORING FOR EARLY DIAGNOSIS OF GESTATIONAL DIABETES MELLITUS

Xudoyorova Dilnoza Rizoyevna

Department of Internal Medicine and Endocrinology Bukhara State Medical Institute

Key words: Gestational diabetes mellitus, metabolic diseases, glycemic.

Gestational diabetes mellitus (GDM) is a significant risk factor for the development of perinatal complications, type 2 diabetes mellitus, and cardiovascular diseases. Early diagnosis of GDM, timely and adequate treatment can improve the course and outcome of pregnancy.

Relevance: A number of studies have shown that maternal hyperglycemia is associated with the development of type 2 diabetes mellitus and obesity in the offspring. However, the mechanisms by which maternal GDM influences the development of these diseases in the offspring are not fully understood. It is known that gene expression changes under the influence of intrauterine factors. In this study, we analyzed the expression levels of candidate genes involved in the pathogenesis of metabolic diseases and compared them with birth outcomes.

Objective: To evaluate the effectiveness of continuous glycemic monitoring for early diagnosis of GDM.

Material and methods: for the period 2015-2017. A study was conducted in 42 pregnant women aged from 20 to 35 years, at gestational ages from 6 to 32 weeks, who were registered at the antenatal clinic No. 1 of City Clinical Hospital No. 2 of Novokuznetsk. At the first stage, all women underwent fasting plasma glucose (FPG) testing and assessment of GDM risk factors. In pregnant women with FPG less than 5.1 mmol/l and risk factors for GDM before 24 weeks of gestation; in the absence of risk factors for GDM and FPG more than 5.1 mmol/l; when refusing PGT; in controversial cases, continuous monitoring of glycemia was carried out using the Medtronic MiniMed CGMS System Gold device (USA).

Results: GDM was diagnosed in 24 (57%) pregnant women, manifest DM was detected in 3 (7%). Of significant interest is that GDM was diagnosed in 9 (37.5%) patients up to 24 weeks of gestation and PG less than 5.1 mmol/l with risk factors for GDM. In pregnant women in the early stages, i.e. from 6 to 14 weeks, GDM was diagnosed in 10 (41%). All patients with GDM were compensated by diet therapy, all pregnant women with manifest diabetes were compensated by insulin therapy.

Conclusions: the use of the method of continuous glycemic monitoring is relevant, highly effective for the early diagnosis of GDM, and can be recommended for wider implementation in practice.

ZAMONAVIY DIDAKTIK TA'MINOT VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI, VOSITASI VA TAMOYILLARI

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
abdullayeva_adu@umail.uz
+998902024585

Annotatsiya. Bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishda o'quv jarayonidagi metodlarning ahamiyati katta. Mutaxassislik fanlarini tarixiylik tamoyiliga asosan o'rganishi ularda ilmiy asoslangan o'rganish strategiyasini rivojlanishiga asos bo'ladi. Tarixiy tafakkur bo'lajak o'qituvchilarda ko'plab ma'lumotlar ichidan konstruktsiya va dekonstruktsiya qila olish ko'nikmasini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, didaktik ta'minot, tashabbuskorlik, konstruktsiya, kreativ va yangicha fikrlash.

Аннотация. Методы в учебном процессе имеют большое значение в развитии исторического мышления будущих учителей. Изучение профильных предметов на основе принципа историчности является основой

для разработки научно обоснованной стратегии обучения. Историческое мышление посвящено проблемам развития у будущих учителей умения конструировать и деконструировать из большого количества информации.

Ключевые слова: историческое мышление, историческая память, дидактическая поддержка, инициатива, лидерство, креативно-инновационное мышление.

Annotatsiya. Methods in the educational process are of great importance in the development of the historical thinking of future teachers. The study of specialized subjects based on the principle of historicity is the basis for the development of a scientifically based teaching strategy. Historical thinking is devoted to the problems of developing the ability of future teachers to construct and deconstruct from a large amount of information.

Key words: historical thinking, historical memory, didactic support, initiative, leadership, creative and innovative thinking.

Hozirgi davrda ilm-fanning jadal taraqqiy etishi va texnologiyaning kun sayin o'zgarib borishi, axborotning tez kirib kelishi tahlil jarayonini didaktik vositalardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlarini zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalar asosida samarali o'quv-didaktik vositalardan foydalanib texnologiya mashg'ulotlarini tashkil etishdir. Bugungi kunda mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar fanlarini multimedia va media vositalar hamda elektron resurslardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Zamonaviy didaktik ta'minot ta'limning jamiyatdagi axborot sivilizatsiyasiga moslanuvchanligining zaruriy shartidir. Zamonaviy texnologiyalar va telekommunikatsiyalar o'quv jarayonini tashkillashtirish xususiyatini o'zgartirishi, talabani axborot va ta'lim muhitiga to'liq singdirishi, ta'lim sifatini yaxshilashi, ma'lumot va bilimlarni idrok etish jarayonlarini rag'batlantirishi mumkin [1]. Yangi axborot texnologiyalari faoliyatning turli sohalarida, shu jumladan ta'limda tashkil etish va boshqarish uchun kompyuter va telekommunikatsiya ta'minoti muhitini yaratadi.

“Pedagogika va psixologiya” ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatini tadqiqi bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanishini ko'rsatadi:

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy- boshqaruv.

Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining kasbiy faoliyatini tahlil qilish orqali talabalarning tarixiy tafakkurni rivojlantirish quyidagi kasbiy vazifalarni hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishni yakunlagan talabalar umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlarida pedagog-psixolog, ijtimoiy pedagog, shuningdek pedagogika va psixologiya o'qituvchisi, tarbiyachilik kasbiy faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Shuningdek bu yo'nalishni yakunlagan talabalar o'quv-metodik faoliyat sohasida faoliyat ko'rsatib, ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash xuquqiga ega bo'ladi.

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darjasiga qo'yiladigan umumiy talablarda ham bevosita va bilvosita tarixiy tafakkurning rivojlanish zarurati, uning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning majburiy talablaridan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilar dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi; Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish; jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish; insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huqukiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisooga olib bilish; axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi; yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi.

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonida ta'lim dasturiga kiritilgan gumanitar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari orqali tarixiy tafakkuri rivojlantiriladi va bu jarayon kasbiy-pedagogik faoliyatga bog'lagan hamda integrativ ravishda o'qitiladi.

Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda ularning yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda differentsial pedagogik-psixologik dasturning qo'llanilishi zarur bo'ladi. O'z navbatida talaba-yoshlarning tarixiy tafakkurni rivojlantirish davlat va jamiyatning tarbiya maqsadlari va ta'lim jarayonining ob'ektiv qonuniyatlarini taqozo etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda amalga

oshiriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi mutaxassislik fanlarini, mavzuni o'rganish talabalarga nima berishini, uning mohiyatini, mavzuga doir ma'lumotlarni qidirish va ulardan foydalanishni o'rgatmasa, mavzuni aniq, tushunarli, izchil, ilmiy, nazariya va amaliyot birligiga qurilmasa talaba fanni va mavzuni yuzaki o'rganadi. Pedagog olim I.G.Pestalotstsi: "Tushunmaslik fanning qiyinligidan emas, tushuntirishning mavhumligidandir" deb ta'kidlab o'tgan. Pedagog olimning fikridan kelib chiqqan holda, tarixiy tafakkur tushunchasi mavhumlik va murakkablik tug'dirsada, zamonaviy didaktik ta'minot vositasida uning aynan mavhum va murakkab jihatlariga e'tibor qaratgan holda aniq va sodda tushuntirish imkoniyati mavjud.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarning tubdan o'zgarishini taqozo etmoqda. Shu ma'noda, davrning o'zi pedagoglarning oldiga yangi asr standartlarini yaratishni muhim vazifa sifatida belgilamoqda. Hozirgi vaqtda yaratilgan Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilishiga erishish shart sanalmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida gumanitar fanlarni o'qitishdan maqsadlardan biri sifatida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'quv jarayonlarini loyihalashtirishda o'qitishni individuallashtirish, intensivlashtirish va optimallashtirishga erishish malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy o'quv-didaktik materiallar, multimedia va media vositalar hamda elektron resurslardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy didaktik ta'minotning o'quv jarayonida qo'llanilishi natijasida elektron o'quv qo'llanmalar, virtual stendlar orkali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqtda mukammal o'zlashtirib, masofadan turib o'qitishga imkoniyat yaratiladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llashni o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun ularning kelajak faoliyatida katta yordam beradi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni talabalarni intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji: idrok etishning rivoji; tasavvurning rivoji; diqqatning rivojini o'zida aks ettiradi [2].

Tarix didaktikasi bo'yicha mashhur olim H. J. Pandel tarixiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy didaktik ta'minotni shakllantirishda

tafakkurning 7 ta kategoriyasini hisobga olishi, mazmuniga singdirish lozimligini ta'kidlab o'tadi [3].

1. Vaqtga bog'liq tarixiy tafakkur (O'tmish, hozirgi zamon va keljakni farqlay olish, tarixiy voqealikni ma'lum vaqtlarga ajrata olish (masalan, 1933-45);
2. Haqiqatda sodir bo'lganligi bilan bog'liq tarixiy tafakkur (Voqealikni real yoki to'qima ekanligini baholash);
3. Tarixiylikni anglash tafakkuri (Tarixiylikni anglash, jumladan uning statik yoki o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini tushunish);
4. Shaxslarni anglash tafakkuri (Ma'lum bir shaxs yoki shaxslarning guruhga mansublikni va uning motivlarini anglashva anglash va buni boshqalar uchun ham hisobga olish qobiliyati);
5. Siyosiy tafakkur (Hukmdorlik va manfaatlar mutanosibligi bo'yicha tushunchalar);
6. Iqtisodiy-ijtimoiy tafakkur (Ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni tan olish);
7. Ahloqiy tafakkur (To'liq relyativizmga tushib qolmasdan va o'z mulohazalaridan butunlay voz kechmasdan, davr qadriyatlari va me'yorlarini qayta qurish qobiliyati).

Ba'zilar yuqoridagi kategoriyalarga sakkizinchi kategoriya sifatida turli nuqtai nazarga bog'liq tafakkurni ham keltirib o'tishadi. Misol tariqasida hukmdor, boshqaruvchi, mahalliy yoki xalqaro nuqtai nazardan ko'rib chiqish. Shuningdek, ma'lum bir etnik birliklar, xatto gender nuqtai nazaridan ayollar va erkaklar munosabatlarini hisobga olish ham alohida ko'rib chiqilmoqda.

Zamonaviy didaktik ta'minot vositasida o'qituvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalar foydalanilishi mumkin:

Interaktiv ta'lim platformalari: Tarixiy voqealar va shaxslar haqida interfaol ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'quy jarayonida qo'llaniladigan ta'lim platformalari. Bunday platformalar o'rganish jarayonini intensivlashtiruvchi va talabalar interfaoligini oshirishi bilan ahamiyatli. Interaktiv ta'lim platformalari funksional jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

8. **Virtual qalam.** Bu interaktiv ta'lim platformasi tarixiy voqealar va shaxslar haqida o'qituvchilarga kichik video darslar, audio tafsilotlar va interaktiv savollar ko'rsatadi. Bu platforma orqali talabalar o'rganish jarayonida ma'lumotlarni qiziqarliroq va interaktiv ko'rishlari mumkin.

9. **Google Arts & Culture.** Bu interaktiv ta'lim platformasi talabalarga dunyo bo'ylab eng mashhur muzey va galereyalarning san'at asarlari haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu platforma orqali talabalar san'at asarlarini tahlil

qilish, tarixiy voqealar va shaxslar haqida tafsilotlar va videolarni ko'rishlari mumkin.

10. **Kahoot.** Bu platforma orqali talabalar tarixiy voqealar haqida test savollari tayyorlash, ularni amaliyotga tadbiiq etish borasidagi tajribalarga ega bo'ladi.

11. **Nearpod** (<https://nearpod.com/>). Bu interaktiv ta'lim platformasi talabalarga tarixiy voqealar va shaxslar haqida ko'rsatmalarni qiziqarli va interfaollikni ta'minlashga qaratilgan didaktik materiallar tayyorlashga yordam beradi. Bu platforma orqali talabalar sinovlar uchun savol va topshiriqlar ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

12. **Quizlet.** Bu interaktiv ta'lim platformasi o'qituvchilarga tarixiy voqealar va shaxslar haqida tayyorlangan test savollari, ma'lumotlar va so'zlar to'plamlari taqdim etadi. Bu platforma orqali talabalar ma'lumotlarini sinovga chiqarish va yangi so'zlar o'rganishlarini ta'minlashlari mumkin.

Virtual darsliklar. Virtual darsliklar tarixiy voqealar va shaxslar haqida tafsilotlar, tahlillar, tasvirlar va videolarni o'z ichiga oladi. Bu talabalarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi muhim mediadidaktik material hisoblanadi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan virtual darsliklari, tarixiy ma'lumotlarni bilim oluvchilar uchun yaratilgan bir necha turdagi elektron darsliklardir. Bu darsliklar talabalarda har tamonlama bilim egallashi uchun maxsus dizayn va funktsiyalarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Virtual darsliklar talabalar uchun fan doirasida ma'lumotlarni oson topish imkonini beruvchi interfeysga ega. Virtual darsliklardan shaxsiy kompyuter yordamida onlayn platformalarda foydalanish, yuklab olish mumkin bo'ladi. Shuningdek, virtual darsliklar turli kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi mashg'ulotlar, ko'rsatmalar, sovolnomalar va sinovlar tashkil etish imkonini ham beradi.

Tarixga doir interfaol o'yinlar: Tarixiy o'yinlar o'rganilgan ma'lumotlarni amaliyot qo'llash, fikrlarni sinovdan o'tkazish va tafakkurni rivojlantirish uchun yordam beradi. Tarixiy o'yinlar orqali talabalar tarixiy hodisalar va shaxslar haqida o'rganishga va tafakkur qilishga imkon beruvchi interaktiv vositadir. Tarixiy o'yinlar tarixning turli davrlari hamda tarixiy tadqiqot turlari bo'yicha yaratiladi hamda talabalarga onlayn, turli qurilmali dasturlar orqali o'ynashlari mumkin. O'yinlar ijtimoiy tajriba va emotsional intellektni rivojlantiradi va shu orqali ta'limning tajribaviy jihatlarini yanada oshiradi. Kontseptual jihatdan tarixiy o'yinlar tarixiy hodisalarni yodga solish, tafakkur qilish va o'yin orqali tarixiy kontekstlarni o'rganish uchun qulay didaktik vositadir.

Videolavhalar: Tarixga doir videolavhalar talabalarga tarixiy voqealar va shaxslar haqida tasvirlar va videomateriallar yordamida o'rganish va tarixiy

mazmunni vizual ko'rish orqali fikrlashga undaydi. Tarixiy videolavhalar turli shakllarda mavjud bo'lib, quyidagicha sinflanadi:

- **Tarixiy xabarnomalar:** Bu turdagi videolavhalar tarixiy hodisalar va shaxslar haqida ko'proq tafsilotli ma'lumot beradi.
- **Tarixiy dokumentatsiya:** Bu turdagi videolavhalar, tarixiy hodisalar yuzaga kelganda yoki tarixiy shaxslar hayoti, ijodi va faoliyatini ma'lum manbalar asosida shakllantiriladi.
- **Tarixiy animatsiya:** Bu turdagi videolavhalar tarixiy hodisalar va shaxslar haqida animatsiya shaklida yaratilgan videomaterialdir.

Tarixiy videolavhalar onlayn yoki dasturiy ta'minot orqali o'zlashtirish imkoniyati mavjud bo'lib, shuningdek, ular talabalarga qulay va qiziqarli tajriba taqdim etadilar.

Virtual saytlar: Tarixiy voqealar va shaxslar haqida ma'lumotlarni o'rganish uchun virtual saytlar talabalarga ma'lumotlar to'plash, manbalar bilan ishlash, taqqoslash, tahlil qilish va fikrlash uchun qulayliklar yaratadi.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muaasasasi bitiruvchilarining ko'pmillatli va ko'p madaniyatli muhitda yashashga, turli madaniyat egalari bilan kasbiy hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, madaniy, etnik qadriyatlar va farqlarni to'g'ri idrok etishga o'rgatish ilm-fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunday vaziyatda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilish va ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda talabalarni o'qitish mahoratini shakllantiri uchun zarur bo'lgan muayyan qadriyatlar va tarixiy tafakkur tizimiga ega shaxsni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Binobarin tarix bilan bog'liq fanlarni o'rganish jarayonida oliy o'quv yurtlari talabalarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularda yuksak ma'naviyat va axloq, vatanparvalik, o'z Vatani, o'z xalqi va tarixiy o'tmishi bilan faxrlanish [4. B. 4] tuyg'ularini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'affarov F. H. Zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim, 8, 2017, 17-21
2. Bekmetova S. A., Allabergenova G.B. Dars samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish/ «Aktualnyye nauchnyye issledovaniya v sovremennom mire», Выпуск 3(71) ch. 8, 10-14
3. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy.- Sankt petersburg: „КАРО“, 2005. – S. 56

4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1993.-222 b.

ELEKTRON TIJORATNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKDAGI NOANIQLIKLAR VA MUAMMOLAR

Iskandarova Yodgora Oybek qizi
yodgora.iskandarova707@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashuv jarayonida elektron tijoratdan foydalanuvchilar sonining oshib borishini inobatga olgan holda har bir davlat mazkur jarayonni to'liq tartibga solishi hamda unda nafaqat sotuvchilar, balki iste'molchilar huquqlarini ta'minlab qo'yishi lozim. Buning uchun esa elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikda noaniqliklar va bo'shliqlar bo'lmasligi lozim.

Kalit so'zlari: elektron tijorat, elektron tijoratni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar.

Abstract. Taking into account the increase in the number of e-commerce users in today's globalization process, every country should fully regulate this process and ensure the rights of not only sellers, but also consumers. For this, there should be no ambiguities and loopholes in the legislation regulating electronic commerce.

Keywords: e-commerce, regulatory legal documents regulating e-commerce.

Elektron tijorat faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi va amalga oshiriladi. Elektron tijorat Internet tarmog'idagi tijorat sohasiga oid faollikni, unda oldi-sotdini amalga oshirilishini ifodalash uchun qo'llaniladi. U kompyuter tarmog'idan foydalangan holda xarid qilish, sotish, servis xizmatini ko'rsatishni amalga oshirish, marketing tadbirlarini o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- ✓ xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;
- ✓ savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjud;
- ✓ ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli xaridorlarning aloqa vositalari yordamida sotuvchilar bilan muloqotda bo'lish imkoniyati;
- ✓ kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va shu mahsulotlari bor firmalarga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali

foydalanish, mahsulotlarni bir joyga yig'ish va ularni sotib olishda aniq manzillarga murojaat qilish;

✓ xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati.

Yuqorida nazarda tutilgan afzalliklar tufayli ham elektron tijoratdan foydalanuvchilar soni oshib bormoqda. Shu o'rinda, elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikdagi muammolarga to'xtalib o'tamiz.

Birinchiidan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining 2016-yildagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektron tijoratni amalga oshirish" Qoidalarini va "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda iste'molchiga berilgan ta'riflarning bir-biriga zid sanaladi. Masalan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda elektron tijorat subyektiga iste'molchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar deyilgan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda esa iste'molchi sifatida faqat jismoniy shaxslar tushunilishi ko'rsatilgan. Vazirlar Mahkamasining 2016-yildagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan "Elektron tijoratni amalga oshirish" Qoidalarida esa xaridor deganda pirovard iste'mol, tijorat maqsadlarida foydalanish, o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchi jismoniy shaxs yoki tadbirkorlik faoliyati subyektlari tushunilishi belgilangan. Bu holatda yuqorida keltirilgan normalardagi iste'molchi va xaridor tushunchalariga aniqlik kiritilishi lozim.

Ikkinchiidan, elektron tijorat maydonlari – veb-saytlardan foydalanish qoidalariga nisbatan yagona shakl yoki talabning qonunchilikda mavjud emasligi. Masalan, har bir veb-saytda ommaviy oferta va foydalanish qoidalarini (Политика конфиденциальности) joylashtirilgan bo'ladi. Ushbu qoidalarni ko'pchilik tanishib chiqmasdan rozilik belgisini bosib foydalanishda davom etadi. Bu esa shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish sohasida qonunchilik normalariga zid kelishi mumkin. Shu sababli elektron tijorat maydonlari uchun yagona bo'lgan talab va qoidalar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, fuqaro o'z ism va familiyasini yozib onlayn mahsulot xarid qilsa, sotuvchi fuqaroning shaxsiy ma'lumotlaridan o'zga maqsadlarda foydalanishi mumkin. Bu holat fuqaroning shaxsiy daxlsizlik huquqiga zid.

Uchinchiidan, nizolarni hal etish usullari.

"Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi, deb belgilangan. Biroq, elektron tarzda amalga oshirilgan harakatlar natijasida yuzaga kelgan nizo va odatiy nizolarni hal qilish usullari farq qilishi mumkin. Bunga birgina dalillar to'plashni misol qilishimiz mumkin.

To'rtinchidan, elektron tijoratda elektron pullardan foydalanish normalarining qo'llanilishi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda to'lovlarni amalga oshirish usullari sifatida elektron pullardan foydalangan holda — elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag'larini o'tkazish vositasida deyilgan norma keltirilgan. Ammo ushbu holatda aynan qanday tartibda amalga oshirilishi belgilab berilmagan.

Beshinchidan, elektron tijorat doirasida sotiladigan tovar yoki xizmatga nisbatan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish muammosi mavjud.

INGLIZ TILIDA HAZIL NUTQIY JANRIDA IJTIMOIIY MAVZULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Diyora Avezmuratova

Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya

fakultetlararo chet tillari o'qituvchisi

E-mail: diyoraaa@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz xalqi yumorlari xususida tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yumor, lingvomadaniyat, hazil, mutoyiba, janr.

Annotation. The article analyzes the humor of the English people.

Key words: humor, linguistic culture, humor, humor, genre.

Аннотация. В статье анализируется юмор англичан.

Ключевые слова: юмор, лингвокультура, юмор, юмор, жанр.

Ingliz xalqi yumorni yaxshi ko'ruvchi xalq hisoblanadi. Ular yumorda hech qanday araz, gina yoki shaxsiy yomon ko'rish kabi his-tuyg'ulardan yiroq bo'lib, ushbu hodisani sog'lom hodisa sifatida qabul qiladilar, yarmi jiddiy, yarmi yolg'on hisoblangan ushbu janr o'zida ba'zan hazilona haqiqatlarni ham saqlashiga ishonadilar. Ingliz lingvomadaniyatida ba'zan hazilni qo'llash so'zlovchining jiddiy suhbatdan tiyilishni hohlashini anglatadi.

Ingliz tilida to'plangan hazil nutqiy janriga oid ijtimoiy mavzularini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ingliz xalqida sevgi-muhabbat va oila mavzusi chegaralanmaydi va cheklanmaydi. Masalan, ushbu ajrashish mavzusidagi hazilona xat misolida o'sha jamiyatda o'zbek halqi uchun "arzimaydigandek" tuyuluvchi sabablar tufayli inglizlar o'z oiladan kechishi mumkinligini sezish mumkin. Ammo bu ingliz milliy-madaniy xulqi va tarbiyasida sevgining ulug'lanishi, oilada individual shaxsiy hohish istak birinchi o'rinda turishidan darak beradi. Masalan,

BEST DIVORCE LETTER EVER

Dear Wife,

I'm writing you this letter to tell you that I'm leaving you forever. I've been a good man to you for 7 years & I have nothing to show for it. These last 2 weeks

have been hell. ... Your boss called to tell me that you quit your job today & that was the last straw. Last week, you came home & didn't even notice I had a new haircut, had cooked your favorite meal & even wore a brand new pair of silk boxers. You ate in 2 minutes, & went straight to sleep after watching all of your soaps. You don't tell me you love me anymore; you don't want sex or anything that connects us as husband & wife. Either you're cheating on me or you don't love me anymore; whatever the case, I'm gone.

Your

EX-Husband

P.S. don't try to find me. Your SISTER & I are moving away to West Virginia together! Have a great life!

Dear Ex-Husband,

Nothing has made my day more than receiving your letter. It's true you & I have been married for 7 years, although a good man is a far cry from what you've been. I watch my soaps so much because they drown out your constant whining & griping Too bad that doesn't work. I DID notice when you got a hair cut last week, but the 1st thing that came to mind was 'You look just like a girl!' Since my mother raised me not to say anything if you can't say something nice, I didn't comment. And when you cooked my favorite meal, you must have gotten me confused with MY SISTER, because I stopped eating pork 7 years ago. About those new silk boxers: I turned away from you because the \$49.99 price tag was still on them, & I prayed it was a coincidence that my sister had just borrowed \$50 from me that morning. After all of this, I still loved you & felt we could work it out. So when I hit the lotto for 10 million dollars, I quit my job & bought us 2 tickets to Jamaica But when I got home you were gone.. Everything happens for a reason, I guess. I hope you have the fulfilling life you always wanted. My lawyer said that the letter you wrote ensures you won't get a dime from me. So take care.

Signed,

Your Ex-Wife,

Rich As Hell & Free!

P.S. I don't know if I ever told you this, but my sister Carla was born Carl. I hope that's not a problem!

Ushbu xatning yozilishi tarixiga nazar tashlansa, xristian dinida ajrashish va qaytadan turmush qurish borasida shunday deyiladi: Agar biror kishi uylansa-yu, keyinchalik xotinidan birorta uyatli qiliq topib, uni yoqtirmay qolsa, uning qo'liga taloq hati yozib berib, uyidan chiqarib yuborishi mumkin[1]. Ko'rinadiki, taloq xatida er yoki xotini yoqtirmay qolganini sabablarini ko'rsatib oiladan kechishi va ajrashishi diniy taomillardan sanaladi. Shu sababli ham ingliz lingvomadaniyatida

hazil nutqiy janrida taloq xati bilan bog‘liq hazil turlarini ko‘rish mumkin. Bu holat esa ingliz lingvomadaniyatida diniy xukmlarni kamsitish ma’nosini anglatmaydi. O‘zbek lingvomadaniyatida esa taloq hati mavjud emas va bu diniy hukm hazil obyektiga bo‘la olmaydi.

Quyidagi hazil orqali ingliz hazil nutqiy janri bilan bog‘liq xulqida intim mavzular ham hazil obyektiga aylanishini kuzatish mumkin. Lekin bu hazil turi o‘zbek lingvomadaniyatida ochiq bo‘lmagan, yopiq mavzular qatoriga kiradi.

Wife : Honey before we got married , you used to give me gifts and expensive jewelery.

Husband : Yes...so ?

Wife : How come you don't do it anymore ?

Husband : Have you ever seen a fisherman give worms to the fish after catching it

Husband : Baby, before we got married, you were the sexiest girl i've ever met but now you are twice my size, what happened baby
Wife : Have you ever seen a fisher(woman) give worms to the fish after she has caught it?

Quyidagi “Family Problem” deb nomlangan hazil orqali esa ingliz jamiyatida ota-onalarning ajrashishi va ularning o‘gay o‘g‘il-qizlar bilan turmush qurishi ingliz halqi ma’naviy hayotida ulkan fojea emasligini tushunish mumkin.

Family Problem!

Two men at a bus stop started a conversation. One of them keeps complaining of family problems. Finally, the other man says, "You think you have family problems?" Listen to my situation..

"A few years ago I met a young widow with a grown-up daughter and we got married.

Later, my dad married my stepdaughter. That made my stepdaughter my stepmom and my dad became my stepson-in-law. Also my wife became mom-in-law to her dad-in-law.

Then my wife's daughter, my step-mom, had a son.This boy was my half-brother 'cause he was my dad's son, but he was also the son of my wife's daughter, which made him my wife's grandson.

That made me the grandfather of my half-brother. This was nothing until my wife and I had a son. Now, the half-sister of my son, my stepmom, is also the grandmom. My dad is the bro-in-law of my child, who is the stepbrother of my dad's wife! & YOU THINK YOU HAVE A FAMILY PROBLEM?"

“Changes in Hell” deb nomlangan hazil orqali esa xudo va uning yaratgan mavjudotlari hazil obyektiga aylanganini ko‘ramiz. Bu esa ingliz

lingvomadaniyatida oddiy hol deb baholansa, o'zbek lingvomadaniyatida Xudoni haqoratlash bilan tenglashtiriladi.

Changes in Hell

An engineer died and was mistakenly sent to hell. Fairly quickly, he had redesigned the place. Hell cooled down considerably thanks to the air conditioning he built and installed. The escalators and elevators worked just fine. Manual labor was quickly becoming a thing of the past.

God looked down one day and noticed all the changes. He called down to the devil to ask how these improvements came about.

The devil replied, "That engineer you sent me."

"What engineer? You're not supposed to have an engineer. Send him back up here!"

The devil's answer was simple... "No."

"If you don't send that engineer back right now, I'm going to be very angry. In fact, I'll sue you!"

The devil replies, "And . . . where are you going to get a lawyer?"

Ko'rinadiki, ingliz hazillarini tushunish masalasi ingliz halqining milliy-madaniy qarashlarini chuqurroq bilishga, ular madaniyatini boricha qabul qilishga undaydi.

Adabiyotlar

1. Муқаддас китоб. Ўзбекистон Библия жамияти, Тошкент, 2016, 257-бет.

XX ASR ADABIYOTIDA INSON RUHIYATI TASVIRIGA E'TIBOR

Musayeva Dilsuz Tuychiyevna
Qarshi davlat universiteti

Badiiy adabiyot xalqning ma'naviy dunyosini takomillashtirishni maqsad qilganligi sababli u insonlar qalbiga juda yaqin. Xalq og'zaki ijodining noyob namunalaridan tortib, zamonaviy adabiyot namunalarigacha hayotni badiiy bo'yoqlarda, obrazli tarzda jonli tasvirlaganligi, ifodalaganligi uchun odamlar qalbiga yaqinlasha olgan. Xalq yaratgan noyob asarlar, milliy adabiyotlarning eng sara namunalari insoniyatning ma'naviy takomili uchun xizmat qiladi. Jamiyatning yuksalishida fuqarolarning ma'naviy-intellektual darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Bu tarixda isbotlangan hodisa. Yuksak ma'naviyatli shaxslar hatto tarixni o'zgartira olganlar. Misol uchun, buyuk Temur, Navoiy yashagan davrlarni olaylik. XIV-XV asrlar dunyo tamaddunida o'ziga xos hodisa bo'lganligi ma'lum. "Ma'naviy va estetik takomil har qanday kasbdagi odam uchun ham zarur. U

ijodiy tasavvur kuchini oshiradi, tasavvurni kengaytiradi, eng og‘ir sharoitlarda qat‘iyatli, o‘ziga ishonchli, quvnoq va izchil bo‘lishga o‘rgatadi”¹⁶, deb yozgan edi mashhur adib Asqad Muxtor. Darhaqiqat, ma‘naviy takomilsiz, boyliksiz, hissiz qalb toshga aylanadi. Shuning uchun komillikka yo‘naltirilgan ma‘naviy-estetik didni tarbiyalash badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi sanaladi. Badiiy adabiyot shaxsning o‘z-o‘zini anglashida, uni insonparvarlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyot o‘zida xalq xotirasini mujassamlashtiradi, uning axloqiy ma‘naviy qadriyatlarini asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga olib o‘tadi.

Shunday ekan, XX asrda jahon adabiyoti, jumladan, milliy o‘zbek adabiyotida ham inson psixologiyasi talqiniga keng e‘tibor qaratilganligi bejiz emas. Ijodkorlar hozirgi adabiy jarayonda inson iqlimini kashf etish, mohiyatan anglab yetish sari dadil qadam bosdilar, o‘z asarlarida tasvirlangan qahramonlarining ichki dunyosini yoritishga, ijtimoiy “men”ni emas, balki o‘zining kimligini idrok etishga urinayotgan, o‘z “men”ini izlayotgan, o‘z qalbiga sinchkov nazar tashlayotgan muqaddas insonni tasvirlash, talqin qilishga alohida e‘tibor bera boshladilar.

XIX asr oxirida yuzaga kelgan va XX asrda takomiliga yetgan psixoanalitik maktab barcha ziyoli qatlam vakillari diqqatini o‘ziga jalb qildi. Ushbu maktab I.Baxofenning 1861-yilda yozgan “Onalik huquqi” nomli ilmiy izlanishidan keyin tez rivojlana boshladi. Nemis olimi V.Vundtning “Xalqlar ruhiyati”, Freyding “Tush ta‘biri” kabi asarlari hamda K.Yungning tadqiqotlari ushbu oqimni shakllantirdi. Ushbu asarlar adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika, psixologiya va san‘atning rivojlanishida salmoqli ahamiyatga molik bo‘ldi.

Ma‘lumki, har qanday badiiy asarning tasvir obyektida inson shaxsi turadi. Insonga psixologik jihatdan yondashuv nihoyatda muhim sanaladi. Ushbu yondashuvda inson shaxsiga turli rakursdan yondashiladi. Ayrim ijodkorlar qahramonlari ruhiyatidagi ichki to‘qnashuvlarni ifodalasa, ayrimlari davr va shaxs ziddiyatlarini ochish nuqtai nazaridan yondashadi, ba‘zilari esa qahramonning hissiyotlari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishga urinadi. Shuningdek, adiblarning o‘zi qahramonlarining dunyoqarashini, tafakkur darajasini, iqtidori-yu, iste‘dodini, qalb kechinmalarini yuqorida ta‘kidlangan rakurslarda tasvirlaydi. Psixologizm barcha san‘at turlarida ham ma‘lum bir darajada mavjud bo‘lib, uning gnoseologik ahamiyatining eng muhim mezoni hisoblanadi.

Inson ruhiyati juda keng olam bo‘lib, undagi hissiyot va tuyg‘ular ikki xil shaklda o‘zini namoyon qiladi : 1. Aniq mantiqqa asoslangan, bo‘ysungan, tashqi olam haqida tasavvur va qarashlarga ega hissiyotlar, qarashlar. (Bunday tuyg‘ular

¹⁶ Asqad Muxtor. Ёш дўстларимга. Тошкент, 1971.- Б.-72.

insonning jamiyatga, odamlarga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi. Ularni ong, ichki sezimlar sintez qilib beradi). 2. Ong osti kechinmalari, ya’ni insonning ruhiyatida doim bor bo‘lgan, tashqi olam bilan muloqot qilib turadigan hissiyotlar, tuyg‘ular (bu kabi hissiyotlar inson harakatini ta’minlaydi). Bizning hissiyotlarimiz ma’lum ma’noda aniq bir mantiqqa tobedek tuyulsa-da, lekin ana shu hissiyotlarni yuzaga chiqarishga sabab bo‘ladigan narsa ongosti hislaridir. Ruhiyatimizda anglangan hislardan ko‘ra, anglanmagan ongosti hissiyotlar har tomonlama benihoyadir.

Asrlar davomida davom etayotgan adabiyotlarning o‘zaro ta’sir jarayoni badiiy psixologizm taraqqiyoti nuqtai nazaridan alohida qiziqish uyg‘otadi. Psixologik tahlil usullarining takomillashuvini Yevropa yozuvchilarining avloddan-avlodga o‘tgan ijodida kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқад Мухтор. Ёш дўстларимга. Тошкент, 1971.- Б.-72.
2. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. Т.:Фан, 2006, - 203 б.
3. Куронов Д., Рахмонов Б. Фарб адабий танқидий тафаккури тарихи очерклари (ўқув қўлланма-хрестоматия). – Тошкент, — 2008. – 316 б. – Б. 85.
4. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Тошкент, 2013. – Б. 373.
5. То‘rayev Damin. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. Т. : Universitet, 2001. -166 б.
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1999, - 543 b.

MUNDARIJA

Xalikova M.X. Lisoniy sathda raqamli til birliklari	3
Asqarova M.A. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturidan foydalanishning metodik jihatlari	7
G'ofurov A.U. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sport turizmi uchun zaruriy ekstrimal-irodaviy sifatlarni rivojlantirish	10
Rustamova D.V. Metaforaning kognitiv xususiyati	13
Турдиева М. Комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг баландлигини унинг иш кўрсаткичларига таъсири	16
Турдиева М. Комбинациялашган дискли борона текислагич-зичлагичининг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчагини унинг иш кўрсаткичларига таъсири	20
Рахмонова Н.Б., Мухаммедов Ж.Э. Изменчивость параметров золотого оруденения участка южный ii месторождения каульды	24
Рахмонова Н.Б., Мухаммедов Ж.Э. Влияние густоты разведочной сети на достоверное определение подсчетных параметров и запасов (на примере участка южный ii месторождения каульды)	29
Mamanazarova G.Y. Yuridik tilning xususiyatlari	32
Jurayeva N. Teng huquqlilik va gender tengligi	35
Ismoyilova N.I. Ilk o'spirinlarni kasbga yo'naltirishning ayrim psixologik masalalari	37
Ишанов Ж.Х. Томчилатиб суғориш кувурларида сув босимининг беҳуда сарфини гидравлик ҳисоби	40
Safarova U. Таум-менејмент: о'қиш ва ишда вақтни самарали бoшқариш усуллари	44
Madjitova J.A. Geografiya ta'limida axborot komunikatsiyon texnologiyalaridan foydalanish	47
Шоймуротов У.Қ. Тасвирий санъат ва адабиётнинг алоқадорлик қонуниятлари таълим амалиётидаги ҳолати	50
Asallayev O'X. Biologiya ta'limida elektron axborot ta'lim vositalaridan foydalanish va ularning huquqiy-nazariy asoslari	53
Bobojonov U.Yu. Sharq allomalarining farzad tarbiyasidagi qarashlari	56
Mahmudova X. International experience of financial literacy-themed television programs	60
Раббимова Ф.Ш. Футувват ва тасаввуф: шахснинг рухий ҳаётдаги жараёнлар	67
Nurmuratov A.Y. Masofaviy ta'limda milliy platformalar yaratishning dolzarbligi	71
Арысланбаева А.Б. Коммуникативная компетентность как качественная и эффективная образовательная концепция	76
Gaybullayeva D.F. Controversial points relating to the classification of phraseological units	77
Gafurova N.I. Qurilishga oid trminlarning yasalishining o'ziga xos xususiyatlari	80
Gafurova N.I. Qurilishga oid matnlarning tarjima muammolari	82
Melikova U.B. Koreys tilida noto'g'ri fe'llarning o'rni va ahamiyati	85
Shermamatova N. Improving ecotourism in Uzbekistan: issues of organization	92
Qodirova N.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari	95
Xudoyorova D.R. Dynamics of epidemiological indicators of diabetes mellitus in children and adolescents	97

Xudoyorova D.R. Effectiveness of continuous glyceimic monitoring for early diagnosis of gestational diabetes mellitus	98
Abdullayeva A.A. Zamonaviy didaktik ta'minot vositasida bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish mazmuni, vositasi va tamoyillari	99
Iskandarova Y.O. Elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar va muammolar	106
Avezmurotova D. Ingliz tilida hazil nutqiy janrida ijtimoiy mavzularning o'ziga xos xususiyatlari	108
Musayeva D.T. XX asr adabiyotida inson ruhiyati tasviriga e'tibor	111